


X. PO'LATOV

SHAHARSOZLIK
TARIXI





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


71
J88-

X. PO'LATOV

SHAHARSOZLIK TARIXI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2008



X.Po'latov. Shaharsozlik tarixi. O'quv qo'llanma. T., «Fan va texnologiya», 2008, 296 bet.

Qo'llanmada jahon shaharsozligi tarixi davrma-davr yoritilgan. O'rta Sharq mamlakatlari, xususan, O'rta Osiyo shaharsozligi o'z o'rnnini munosib ravishda olinishiga alohida e'tibor berilgan. Xronologik jihatidan ibtidoiy zamondan XX asrning ikkinchi choragi-gacha bo'lган davrni qamrab olgan.

O'quv qo'llanma 5.580 100 – «Arxitektura» yo'naliشining tala-balari uchun tayyorlangan. Undan barcha tarixiy shaharsozlik masalalari bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir: arxitektura nom., dots.— B.Inog'omov

Taqrizchilar: arxitektura dok., prof. — X.Tursunov;
arxitektura dok., prof. — T.Qodirova

ISBN 978–9943–10–129–6

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008.

SO'Z BOSHI

«San'at, arxitektura va shaharsozlik tarixi» tahsilining tarkibiy qismi shaharsozlik tarixidir. Mazkur qo'llanmaning jahon shaharsozligi tarixiga tegishli umumiyligi qismlari ko'proq ikki jildli «История градостроительного искусства» (Т.Ф.Саваренская и др.) о'quv qo'llanmasi asosida tuzildi. O'rta va Yaqin Sharq hamda Markaziy Osiyo shaharsozligiga tegishli qismlarini yozishda boshqa manbalardan keng foydalanildi. Qo'llanmaga o'quv jarayonidagi o'zbek tilida yozilgan dastlabki tajriba sifatida qarash lozim. Qo'llanmani boshqa tarqoq holda mavjud bo'lgan so'nggi barcha tadqiqotlar natijalari bilan to'ldirish, O'zbekiston tarixiy shahlarining jahon shaharsozligidagi o'rnini yanada to'laroq ko'rsatish, kelgusida qilinishi lozim bo'lgan ishdir. Rasmilar turli manbalardan olingan, manba rasm ostki yozuvida qavslarda ko'rsatilgan. Qo'llanmada muallif shaxsan bajargan rasmlar yulduz (*) bilan belgilangan.

Arxitektura ta'limotida maxsus — tarixiy fanlar bloki muhimdir. Bir qancha bo'limlardan iboratdir. Bo'limlar o'zaro san'at, arxitektura va shaharsozlik tarixlari bo'lib, chambarchas bog'liq hamda har biri o'ziga xos xususiyatlariga ega.

Arxitektura ta'limotida o'tmish davrlar me'morchiliginini (arxitekturasini) anglash katta ahamiyatga ega. Bunga ko'proq «San'at, arxitektura va shaharsozlik tarixi» fani orqali erishiladi. Rostmana, mukammal arxitekturani yaratish uchun uning rivojlanish tartibotlarini (qonun-qoidalarini) o'rganish lozim. Zero zamonaviy arxitektura o'tmish arxitekturasining davomi bo'lib, ikkisi ham bir yaxlitlikni yaratadi. Aslini olganda fanning besh asosiy bo'limlari (san'at tarixi, arxitek-

tura tarixi, shaharsozlik tarixi, O'rta Osiyo me'morligi tarixi va zamonaviy arxitektura) mustaqil fanlarni tashkil etishi ham mumkin. Fan bo'limlarining ketma-ketligi umumiyyadan xususiyga tamoyiliga (prinsipi) mos keladi. San'at tarixida san'atning to'rt asosiy turlari: arxitektura, haykaltaroshlik, rassomlik va amaliy san'at turlari bo'yicha umumiy rivojlanish qoidalari tushuntiriladi, har turning o'ziga xos jihatlari ochib beriladi, san'at uslublari (stilar) va yo'nalishlari to'g'-risida tushuncha beriladi. Keyingi bo'limda san'atning bir tarmog'i-arxitektura tarixi beriladi. O'z navbatida arxitekturaning bir sohasi bo'lgan shaharsozlikning tarixi keyingi semestrda o'tiladi. Bu hali kelajakda Markaziy Osiyo me'morchilik tarixini va zamonaviy arxitekturani o'zlashtirishga imkoniyat yaratib beradi.

«San'at tarixi» bo'limida, san'atning umumiy yo'nalishi, uslublari to'g'-risida gap ketadi. «Arxitektura tarixi» bo'limi tarixiy-tipologik o'rganish uslubiga asoslangan: «Shaharsozlik tarixi» fani tarixiy-topografik o'rganish uslubiga asoslashgan.

«Shahar», «qishloq» kabi tushunchalar turli ma'nolarni bildiradi.

Shaharning qishloqdan farqi sotsial, kasb-hunar, demografiya, me'moriy rejalash jihatlariga tegishlidir. Shaharda insonlarning muloqoti jamlanadi. Shaharsozlik tarixi shaharlarning rivojlanish jarayonida o'rganiladi. Shahar har davrda ham yaxlit fazoviy makon sifatida me'morlarning bir necha avlodlari mahsuli sifatida qaraladi. Uning har bir davrining o'ziga xos bo'lgan qiyofasi mavjud.

Arxitekturani yaxshi anglash shaharsozlikni tushunishga zamin yaratadi. Ma'lumki, arxitektura asari uch tomonlama – funksiya, konstruksiya, estetik bo'yicha sifatlanadi. Hamon shaharsozlik arxitekturaning bo'lagi ekan, mazkur sifatlar soha asarlari – shaharlarga ham taalluqlidir. Biroq bu sifatlar o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Arxitektura asarida funksiya asosan bir maqsadli bo'lgan holda shaharning funksiyasi ko'p

maqsadlidir. Shahar uy-joy hududlari, ko'cha, maydon, suv tarmog'i kabi unsurlardan tashkil topgan. Bular shaharning moddiy tomoni konstruksiyasidir. Arxitekturaning asosiy badiiy vositalari hajm va fazoviy muhit hisoblanadi. Bu ikki vositaning ahamiyatlari har xil: arxitekturada deyarli teng bo'lgan holda, shaharsozlikda muhitning ahamiyati ustuvoridir, hajm esa unga nisbatan kamdir.

I. QADIMGI SHAHARSOZLIK

Shaharlarning ko'pchiligi ibtidoiy-qabilachilik davrida davlatchilikka o'tar vaqtida hunar dehqonchilikdan ajralib chiga boshlagan davrda vujudga keldi. Tabiiyki, bu jarayon ko'proq dehqonchilik rivojlangan joylarga to'g'ri keladi. Ular esa yirik daryolarning: Dajla, Frot, Nil, Ind (Hind), Xuanxe vohalari hamda Suriya, Eron tog'oldi yerlаридир. Bu joylar yerning shimoliy kengligining 23° – 40° gacha bo'lgan mintaqasida joylashgan. Bular dehqonchilik uchun nisbatan qulay bo'lgan yerlardir. Dastlabki shaharlarning paydo bo'lishi mi'loddan avvalgi 4-3 ming yilliklar chegarasiga (eneolit va bronna davrlariga) to'g'ri keladi.

Shaharlarning ko'pchiligi avvalida qarorgohlar, manzilgohlar bo'lgan. Qadimda katta qarorgohlar yoki shahar – qarorgohlar ham vujudga keldi. Bunday qarorgoh va dastlabki shaharlardagi turar-joylariga misol tariqasida Katal Xayyukni (Turkiyada) keltirish mumkin.. U urug' jamoasining katta qismi uchun mo'ljallangan edi. Dastlabki muqaddas maydonlarda avval dolmen va mengirlar, keyin esa ibodatxonalar qurilgan. Namuna sifatida Stonxejni (Angliyada) ko'rsatsa bo'ladi.

Dastlabki shaharlar ma'muriy va diniy markaz edi. Bazingilari ibodatxonalar oldilarida vujudga kelgan edi. Qal'a yoki O'rda (hokim qarorgohi) sifatida ham ko'rilgan. Dastlabki shaharlarda hunarmandchilik qaror topgan. Ular hokim, ayonlari, qohinlarning talabini kondirgan. Keyinchalik savdo rivojlandi, savdo shaharlari paydo bo'ldi.

Shaharlar aholisi amaldorlar, kohinlar, navkarlar, savdogarlar, hunarmandlar va qullandidan tashkil topgan edi.

I.1. Qadimgi Misr

Shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi Misrning tabiatи, avvalo, Nil daryosi bilan bog'liq. Shaharlar, asosan, ikki qirg'oqdagи cho'zinchoq, eni tor bo'lган vohada vujudga keldi. Daryoning tarmoqlarga ajrab ketgan quyi oqimidagina voha eniga yoyilib ketgan.

Shaharlarning eng muhim alomati Qadimgi Misr yozuvlarida — ierogliflarda mujassam. «Shahar» ma'nosini anglatadigan belgi — ieroglif aylana (qo'rg'on devor) ichidagi chorradan iborat.

Narmer qabr toshida ham shahar hududining aylana shakli mujassamlangan. Qabr toshi asosiy tomonining pastki qismida fir'avн-ho'kiz suzayotgan qal'a nagal shaklida ko'r-satilgan.

Qadimgi Misrning dastlabki shaharlaridan biri Naxab (Al-Ka'b) bo'lib, u ilk podsholik davriga mansubdir.

Shaharsozlik tarixi nuqtai nazaridan turli davrlarda poytaxt bo'lган Memfis, Fiva va Axetaton shaharlari alohida diqqatga sazovor.

Memfis — qadimgi podsholik poytaxti. Yaxshi o'rganilmagan. Lekin mozoris tonlari mashhur (Sakkarada Gizada).

Qadimgi podsholik davrida ikki me'moriy majmular: Sakkaradagi Joser va Gизадаги piramidalar majmualari mashhur. Pog'onali Joser piramidasи me'mori Imxotebdir.

Gизадаги piramidalar geometrik analizlarini V.N.Vladimirov bajargan. Kompozitsion jihatidan olinganda, Gизадаги majmua ochiqdir; u tabiat bilan bog'langan xarakterga ega.


Fiva (Fogom vohasida) o'rta podsholik davrida poytaxt bo'lган. Senuset II Kohun shaharini qurdirgan.

Yangi podsholik davrida Fivada, hozirgi Karnak va Luk-sor qishloqlarida Amon Raga bag'ishlangan ulkan majmular vujudga keldi (Nilning quyi qirg'oqlarida).


Axetaton — (Memfis bilan Fiva oralig'ida) fir'avн Axetaton (Exnaton) davrida tezkorlik bilan barpo etilgan.



1-rasm. Shahar ma'nosini anglatidigan Qadimgi Misr ieroglifi (6-ad., 11-b.).




3-rasm. Karnakdagi Amon Ra ibodatxonasi. Amon Raning Luk-sordagi ibodatxonasi bilan sfinkslar hiyoboni vositasida birlashib ulkan majmua — shaharsozlik asari hosil etilgan (6-ad., 12-b.).



2-rasm. Memfis shahari. Gizadagi piramidalarning o'zaro joylashuvi va hajmlarining handasiy mutanosibligi.

V.N. Vladimirov tahlili
(6-ad., 13-b.).



4-rasm. Luksordagi Amon Ra ibodatxonasi. Dastlabki qurilma — birinchi hovlining shimoliy burchagidagi uch xonali ibodatxona umumiy kompozitsion o'qning sinqligiga sabab bo'lgan (6-ad., 21-b.).



5-rasm. Kaxun shahari. O'rta podsholik davrida barpo bo'lgan (6-ad., 17-b.).



6-rasm. Qullar mahallasi. Muntazam tarhga ega. Bir xildagi turar joylardan tashkil topgan (6-ad., 26-b.).



7-rasm. Axetaton shaharning
grafik rekonstruksiyasidan lavha
(6-ad., 26-b.).



8-rasm. Axetaton shahari. O'rtadan o'tgan xiyobon shahar negizini
tashkil etgan (6-ad., 25-b.).

Asosiy yo'l — xiyobon tariqasida barpo etilgan. Unda 3 (shimoliy, o'rta, janubiy) ibodatxonalar mavjud, tarxda Qullar mahallaga ajralib turadi.

I.2. Old Osiyo

Hudud nomi - «Old Osiyo» hozirgi Iroqqa to'g'ri kela-digan joylarga nisbatan ishlataladi. «Ikkidaryo oralig'i», «Mesopotamiya» (yunoncha) iboralari ham qo'llaniladi.

Iqlimi va tabiatni bir xil emas. Frot, Dajlaning o'rta oqimi keskin kontinental iqlimga ega. Daryolarning boshi tog'larda, sovuq, quyi oqimi — subtropik iqlimga ega. Frot daryo — tinch, Dajla esa — jo'shqin oqadi.

Old Osiyoda birin-sirin turli davlatlar paydo bo'ldi. Bular: Shumer, Akkad, Ko'hna Bobil podsholigi (mil. av. XIX—XVI asr.), Yangi Bobil podsholigi (miloddan avvalgi VII—VI asrlar), Ossuriya (rivoji-mil. av. XVIII asr boshi, mil. av. XII—IX asr.).

Old Osiyoda miloddan avvalgi IV mingyillikdan shumerlar o'rashadi.

Ular Ur, Lagash, Uruk shaharlarini barpo etadilar. Bu shaharlarning xususiyati quyidagicha: shakli asari oval bo'l-gan, ko'chalar odatda shimoli-g'arbdan, janubi-sharqqa yo'nalgan bo'ladi. Ibodatxona markazda yoki shimoli-g'arba-da, sun'iy yoki tabiiy tepalikda qurilgan; ibodatxona maydoni to'g'riburchak bo'lib, unda asosiy bino zikkurat edi. Shahar maydonining yoqligi, hovlilar atrofida turar-joylar, saroy va ibodatxonalar shaharda katta ahamiyatga ega bo'lishi Old Osiyoga xos bo'lgan jihatlarini tashkil etadi.

Shumer poytaxti Ur edi. Ur Akkad shahari bo'lib. Old Osiyoda eng qadimgilardan biridir. Urda 5250 ta hovli, 40—50 ming aholi bo'lgan. Shahar 1000x700 m o'lchamli qo'r-g'on devorning balandligi 25—32 m bo'lgan. Asosiy ibodatxona oy ma'budiga bag'ishlangan edi. Undan tashqari, yana 2 ta tepalikda Nannara va uning xotini Nangal, so'ng Nangal

uchun alohida ibodatxona bor edi. Shu yerda saroy ham bo'lgan. Kiraverish-hovliga yon tomonidan o'tilgan. Urning rivoji mil. av. 2000-yilga to'g'ri keladi. Uylar hovlili, o'rta-sida o'choq yoki quduq bo'lgan. Ko'cha, asosan bitta bo'lган. U marosimlar uchun xizmat qilgan.

Suriyadagi xettlar shahri Samal (Zanjirli) Ikkidaryo an'analarida qurilgan. Rivoji mil. av. XII–VIII asrlariga to'g'-ri keladi. Tashqi devorini ossuriyaliklar qurishgan.

Nippur – shumerlarning muqqaddas shahari hisoblangan. Asosiy ma'bud – Enlilga bag'ishlangan edi. Frot qirg'o-g'ida bo'lgan. Maqqadasgoh yarim shaharni egallagan bo'lib, unda ibodatxonalar va zikkurat bo'lgan. Bu joyda kohinlarning uylari hamda kutubxona bor edi. Undan sopol taxtada shaharnihg tarxi topilgan. Bu dastlabki, tarxi to'rtburchakka yaqin shaharlardan biri bo'lgan. Reja bilan bir vaqtida qurilgan.

Ikkidaryo yaqin shaharlaridan biri Borsippadir. Uning tomonlari 1406x1760 m bo'lgan. Yetti darvozasi mayjud edi. Ular ma'budlar nomi bilan atalgan. Asosiy ko'chalar shulardan o'tgan. Shahar o'rtasida muqqadasgoh kvadrat geometrik modul asosida tashkil etilgan edi. Modul 3 ashrudan, ya'ni 176 m.dan tashkil topgan. Ya'ni bir ashlu (Qadimgi Bobil o'lchovi – «arkon») 59 m.ga teng edi. Shahar jug'rofiy taraf-larga nisbatan yo'naltirilishi an'anaviydir. Shundayligi to'g'-risida turli taxminlar (gipotezalar) mavjud. Ba'zi taxminlarga ko'ra, shamollardan saqlanish uchun shunday ishlangan. Bosh-qalarning taxminlariga ko'ra, buning zamirida diniy tushunchalar yotadi.

Dur-Sharrukin shaharini Sargon II (Ossuriya podshosi) qurgan. Uni mil. av. VII a. oxirida midiyaliklar buzishgan. Yetti darvozasi bo'lgan, tarxi deyarli kvadratni (1800x1650 m) tashkil etgan. Modul – 61 m ga teng edi. Demak, tomonlari 30 va 27 modulga teng edi. Darvozalar o'rni ham modul bilan belgilangan. Shahar arki 14 m. balandlikda bo'lgan. Zikkurati 7 bo'g'ingan iborat edi. Darvoza oldida shoh ham-

da qahramonlar Gilgamesh va Enkidu tasvirlari bo'lgan. Saroy ichida alebastrdan Sargon II qilgan yurishlari tasvirlangan.

Ossuriya poytaxti Nineviya bo'lib, u hozir yo'q bo'lib ketgan. Biroq qoldiqlari bor.

Bobil Frot daryosi bo'yida mil. av. III mingyillikdayoq bunyod etilgan. Qurilishi Ko'hna Sargon nomi bilan bog'liq (mil. av. 24 as.). Shahar Xammurappi (mil. av. XVIII a.) davrida rivoj topdi. Ko'p marotaba buzilib tiklangan. Yunon muarrixlari Gerodot, Strabon bu to'g'rida yozishgan. Bobilning maydoni 20 km², tashqi devor uzunligi 18 km edi. Ichki shahar maydoni 410 ga joyni egallagan edi. Ichki devor uzunligi 8360 m edi. Devor pishiq g'ishtdan qilinib qalinligi 3 m gacha yetgan. 8 darvozasi bo'lgan. Asosiy darvoza ma'buda Ishtar darvozasi edi. Yana, bosh Bobil ma'budi — Mardukdan e'tiborli darvozalar ham bo'lgan. O'rtada maq-qadasgoh — Esogil joylashgan edi. Unda Marduk ibodatxonasi va Etemanakka zikkurati («Yer va osmon yaratilish uyi») bo'lgan.

Bobilliklarning e'tiqodi bo'yicha, Bobil jahoning markazi edi va bu shahar uning aksi bo'lib, zikkurit markaz nuqtasi edi. Etemenakki 90 m balandlikka ega bo'lgan. U bir necha pog'ona — yarusdan iborat edi. Pastki yarus oq, ikkinchisi qora 18 m, undan yuqorisini qizil, ko'k, kumushrang va moviy ranglarda bo'lgan.

Bayramlarning eng yaxshisi Yangi yil edi. Bu bayram 10 kun davom etgan. Yangi yil tashqi shaharda tantana qilingan. Marosim Ishtar darvozasidan boshlangan. Ishtar Venera sayyorasi bilan qiyos etilgan. Bobilning eski va yangi qismlari ajralib turgan. Frot daryosi ustidagi ko'pri 123 m uzunlikda edi. Shaharda 3 saroy bo'lgan. Birinchisi yozgi bo'lib, tashqi devor oldida, Bobil tepaligida qurilgan edi. Ikkinci saroy janubda edi. Marosimlar ko'pincha tepalik joyda o'tkazilgan. Uchinchi, shimoliy saroy ham shu joyda bo'lgan, lekin u devorning tashqarisida edi.

Janubiy saroy yaxshi o'rganilgan. 5 hovlidan iborat edi. Shimoliy burchagida Semiramida muallaq bog'lari bor edi. U qadimgi yetti mo'jizalaridan biri sanaladi. Shahar o'z kanalizatsiyasiga ega edi. Bobilda, taxminan, 360 ming aholi bo'lgan. Ichki shaharda, taxminan, 80 ming aholi yashagan. Keyinchalik Iskandar Maqduniy Bobilni ulug'ligi, hasham-dorligi va ko'rki uchun o'z poytaxti qilmoqchi bo'lgan.

Dajlaning ikki qirg'og'idagi Salavkiya va Ktesifon shaharlari ham alohida diqqatga sazovordir.


Salavkiya daryoning g'arbida mil. av. 300-yilda qurilgan. U muntazam tarxga ega bo'lgan. Shahar devorlari mustah-kam edi. Asosiy ko'chalari o'rtada kesishgan. Shahar bir muddat parfiyaliklar poytaxti ham bo'lgan. Hayoti III asrgacha davom etgan.

Ktesifon Salavkiyaning qarshisida, Dajlaning sharq qirg'og'ida joylashgan bo'lib u bilan ko'prik orqali bog'langan edi. Mil. av. III asrda Parfiya podsholari Arshoqiylar tomonidan barpo bo'lgan. Mil. av. I asrda Parfiya poytaxti (podsholar qarorgohi va harbiy-ma'muriy markaz), keyinchalik milodiy VI asrda so'nggi Sosoniylar poytaxti vazifalarini o'tagan. Hayoti XIII asrgacha davom etgan. Dajla o'zanining o'zgarishi natijasida shahar ikkiga bo'linib ketgan. G'arb tomonida maydoni 72 ga bo'lgan, doirasimon qismi «Eski shahar» nomini olgan. Sharqiy qismi – Asfanabrdasosoniylarning eng muhtasham saroyi bo'lmish Toqi Qisro ($117,5 \times 105,0$ m) saroy qoldiqlari mavjud. Ulkan ayvon ravog'ining qadami 26,65 m ga, balandligi 37 m ga tengdir. Mazkur joylarning sharqida va shimoli-g'arbida boshqa aholi joylari bo'lib, shahar jami 30 km^2 dan ortiq joyni egallaydi.

Umuman olganda, Parfiya davrida Iroqda saroylarning (Sharqiy Eron qismidagi saroylardan farqli bo'lgan) o'ziga vos me'morligi shakllandi. Chunonchi, peristel hovlisi, mahalliy ayvon bilan qo'shilgan Ashshurdagi saroy bunga yorqin misoldir.



9-rasm. Shumer davlati
poytaxti – Ur. Bosh tarxi
(6-ad., 31-b.).




10-rasm. Urning markazi.
Qora to'rburchak zikkuratning
pastki qismini ifodalaydi
(6-ad., 31-b.).



11-rasm. Ur shaharining zikkurati (4-ad., 268-b.).



12-rasm. Borsippa sh., mil. av.
VI a. (6-ad., 33-b.).



13-rasm. Borsippa ning handasiy
tahlili. E. Egli bajargan (6-ad., 34-b.).



14-rasm. Xarsobod (Dur - Sharrukin)
sh. Mil. av. 711–707 y. (6-ad., 34-b.).




15-rasm. Xarsobodning saroyi
tarxi (6-ad., 34-b.).




16-rasm. Xarsobodning saroyi. Umumiy ko'rinish (6-ad., 35-b.).




17-rasm. Babil sh., mil.
av. VI a. (6-ad., 36-b.).



18-rasm. Babil shaharining shimoliy –
Ishtar darvozasi (6-ad., 37-b.).




19-rasm. Babil shaharining ko'rinishi. A. Parroning
grafik rekonstruksiyasi (6-ad., 39-b.).



20-rasm. Nippur shaharining aniqlangan tarxi (6-ad., 33-b.).



21-rasm. Unger va Fisher bo'yicha mil. av. XII asrda sopol taxtaga chizilgan Nippur shaharining tarxi (6-ad., 33-b.).



22-rasm. Bobildagi Sammuramat (Semiramida) bog'laringin grafik rekonstruksiyasi (4-ad., 252-b.).

Parfiya davridagi shaharlardan biri Iroqning shimolidagi Xatra (hozirgi Al Xadr yaqinida) shahridir. U miloddan avvalgi davrda qurilgan, I-II asrlarda rivoj topgan, III asrda buzilgan edi. Karvon yo'llarining kesishgan joyida barpo bo'lgan. Tarxi doiraga yaqin (maydoni 320 ga atrofida), qator devor va xandaq bilan o'ralgan edi. Tashqisi toshdan, ichki ikkisining poydevorlari g'ishtdan terilgan edi. Muntazam rejali, maydonlari va hovuzlari bo'lgan. To'rt darvozasidan o'tgan ko'chalarining janubi-g'arbiy burchagida, shaharning o'rtasida (maydoni 15 ga) to'rtburchak tarxli saroy joylashgan. Saroyning, taxminan, uchdan ikki bo'lgan sharqiy qismini hovli egallagan, saroy binosi g'arbiy tomonni egallagan edi. Bino hovli tarafga toqli ayvonlar bilan ochilgan edi. Bino o'z navbatida ikkiga bo'linib taxt zali toq shaklida yopilgan. Quyoshga sig'inish ibodatxonasi va turar xonalardan iborat bo'lgan. Saroy haykallar, devoriy bo'rtma suratlar bilan bezatilgan edi.

Xulosa. Ikkidaryo oralig'ida yerdan unumli foydalanib, muhandisona tayyorlash (подготовка) yuqori saviyada bo'lgan. Qo'rg'on qurilishi yaxshi rivoj topgan, mahalliy ashylardan unumli foydalanilgan. Shahar bosh imorati (zikkurat), rang muammolari hal etildi.

I.3. Qadimgi O'rta Sharq

Dastlabki manzilgohlar Eronda juda qadimdan paydo bo'lgan.

Markaziy Erondagi Tepai Setalk manzilgohida turar joylar paxsadan (mil. av. 5-ming yillik) ishlanganligi hamda ko'p xonali xonadonlar xom g'ishtdan (mil. av. 4-ming yillik) qurilganligi ma'lum. G'arbiy Erondagi Tali Barzu manzilgohi ham mil. av. 5-ming yillikka mansubdir.

Elam davrida (mil. av. 3-2 ming yilliklar) bir qancha shahar-davlatlar bo'lgan. Ular qatorida poytaxti Suza (Shushan) bo'lgan Suziyona, Anshan (Anzan), Simashkinni ajra-

tish lozim. Elam Old Osiyo bilan mustahkam (chambar-chas) bog'liq bo'lib, shaharlarda zikkuratlar katta mavqega ega bo'lgan. Choga Zambil (hozirgi Dur-Untosh) mil. av. XIII–VII asrlar davomida hayot kechirgan. Tashqi shahar devorining uzunligi 4 km atrofida edi. Shaharning sharqiy qismida saroy (70x54 m) bo'lgan. Ichki shahar (muqaddas daha) devorining uzunligi esa 1,5 km dan ortiq edi. Ichki shaharning zikkurati (105,2x105,2 m) besh pog'onali (yarusli) bo'lib, uning dastlabki balandligi 53 m ni tashkil etgan. Shaharning mazkur qismida ibodatxonalar guruhi ham qurilgan edi.

Elamning poytaxti Suz (Shush) hisoblangan.

Mil. av. I-mingyillikning I-yarmida Eron hududida Midiya qaror topadi. Mil. av. VII asrdan esa davlat sifatida taniladi. Midiyada oldi ikki ustunli ayvon tariqasidagi g'or maqbaralari (mas. Do'kon Dovud), olov sajdagohlari tarqaladi. Poytaxti-Oqbatona (hozirgi Xamadon; Ibn Sino maqbarasi shu shaharda) edi. Oqbatonaning qo'rg'on devorlari juda mustahkam bo'lganligi ma'lum.

Ahamoniylar shaharsozligi mil. av. V asrda, ayniqsa rivoj topdi. Mil. av. VI asrda Eronning janubi-g'arbidagi Sheroz yaqinida oldin Pasargada, keyin Persepol (Taxti Jamshid) va mil. av. V asrda Suz (Shush, Dizful yaqinida) shaharlari poytaxt bo'lishgan. Bu shaharlarning tuzilishini ko'p jihatdan saroylar va ayniqsa, ularning taxt xonalari belgilagan. Binolar, asosan, g'ishtdan tiklangan, poydevorlar, zinalar, darvoza kesakilari toshdan ishlangan. Persepol saroyi asosan toshdan o'yilgan. Suorda saroyi rangdor (sir berilgan) bo'rtma suratlar bilan bezatilgan.

Dastlabki poytaxt Pasargada me'morligi sipolik bilan ziynatlanadi. Bu sifat Kirning saroy qoldiqlarida va uning qabrida namoyon bo'ladi.

Persepol (Taxti Jamshid) saroyi qoldiqlari tepalikda joylashgan. Saroy Doro va Kserks tomonidan barpo etilgan. Shahar tashqarida, Naqshi Rustamda otashparastlar ibodat-

xonasi – Kabai Zardusht joylashgan. Saroydan 6 km masofada ahamoniylar tomonidan Istashr shahri ham barpo etilgan. Deyarlik besh asr yashab. X asrda vayron etilgan.

Suz (Shish) mil. av. 4-mingyillikda vujudga kelgan. Elam davlati davrida ham poytaxt bo‘lgan. Shahar to‘rt tepalikdan iborat. Bular: yuqori shahar («akropol») tepaligi, apadan tepaligi, podsho shahri tepaligi va hunarmandlar shahri tepaligidir. Mil. av. VI asrda yuqori shahar, apadan va podsho shahri tepaliklari devor bilan o‘rab olindi. Yuqori shahar (akropol) qal‘a vazifasini o‘tadi.

Eron salavkiylar (mil. av. IV–III asrlar) davlati tarkibiga kirgan davrda shaharsozlikda ellistik jihatlar yorqin namoyon bo‘ldi. Bu jihatlar Iroqdagagi salavkiylarning, keyin parflarning poytaxti bo‘lgan va yuqorida zikr qilingan Salavkiya shahrida ko‘rindi.

Parfiyaning (mil. av. III – mil. III asrlar) saroylar me’morligida hovlili va toq shaklida yopilgan ayvonli va alohida hovlida ibodatxona qurish usuli qaror topdi. Ko‘xi Xo‘ja saroyini (Afg'oniston chegarasida) bunga misol tariqasida ko‘rsatsa bo‘ladi.

Parfiyaning diniy markazi Fraaspa (hozirgi Taxti Sulaymon)dir. U Eron Ozarbayjoni hududida, mamlakatning shi-moli-g‘arbida joylashgan bo‘lib, nafaqat Parfiya podsholari sulolasi, balki sosoniylar sulolasi hokimligi davrida ham zardushtiylik dinining markazi vazifasini o‘tagan (XIII–XIV asrlargacha hayot kechirgan). Fraaspa tarxi oval shaklida bo‘lib, uzunligi 1200 m, eni 5 m, balandligi 14 m ga yetgan qo‘rg‘on devorida 2 darvoza, 27 burji bo‘lgan. Fraaspaning o‘rtasida ko‘l mayjud edi. Shaharda saroylar, olov ibodatxonalar bo‘lgan.

Eron yerlarini birlashtirib, uning tarkibiga qator mamlakatlar ham kiritilgan Sosoniylar davrida (III–VI asrlar) shaharsozlik jadal rivoj topdi. Muntazam tarhli shaharlar paydo bo‘ldi. Me’morlikda xarsangtosh, pishiqlik va xom g‘isht, ganch qo‘llanilgan. Ravoqlarning linga chizig‘i elliptik shakl-

ga ega bo'lgan. Muntazam tarxli shaharlar (Gur, Nishopur) ulkan saroylar (masalan, Iroqdag'i Ktesifonda), bog'lar (Qasri Shirinda), ko'prik-to'g'onlar (Dizfulda, Shushterda) qurilgan.

Eron janubidagi Gur (hozirgi Feruzobod) shahari 224 yilda tarxi doira shaklida barpo bo'lgan. Shahar o'rtasini ikki konsentrik qo'rg'on devor o'rabi olgan. Markazda hajmi 9x9x33 m bo'lgan olov minorasi bo'lgan edi. Shaharning atrofida Ardasherga va boshqa shaxslarga tegishli saroylar qad ko'targan.

Eronning shimoli-sharqida (Xurosonda) III asrda barpo etilgan Nishopur shahari ham to'g'ri to'rburchak tarxga ega bo'lgan (Shaharda keyinchalik Umar Xayyom maqbarasi paydo bo'lgan).

Mamlakat g'arbidagi Dizful shaharidagi ko'prik-to'g'on Rim asirlari tomonidan toshdan, 22 ravoqli qilib qurilgan edi. Uzunligi 400 m atrofida bo'lgan.

Shushtar shahari ham g'arbda joylashgan bo'lib, dastlab, mil. av. 2-ming yillikda barpo bo'lgan. III asrda esa Qorun dar-yosida «Bandi qaysar» («Valerian ko'prigi») nomi bilan ataladigan ko'prik-to'g'onning uzunligi 550 m ni tashkil etgan.

Eron shaharsozligida hashamli saroylar katta rol o'ynagan. Saroy me'morligida dastlabki devorlarda mahalliy toqli ayvon bilan ellepistik gipostil tarqalgan bo'lsa, keyinchalik yunon jihatlar tamoman yengilib, faqat toqli ayvonga asoslangan saroylar barpo etilgan.

Mil. av. 1-mingyillik davomida Afg'oniston Ahmoniyalar (m.av. IV-VI asr), Maqduniy (m.av. IV asr), Yunon-Baqtra (m.av. II-III asr) davlatlari tarkibida bo'lgan. M.av. III asrda ellistik, keyin Kushon madaniyati bilan bog'liq bo'lgan.

Balx (hozirgi Vazirobod) m.av. 1-mingyillikda karvon yo'llar tizimida muhim rol o'ynagan shahardir. Kushon va undan keyingi davrlarda buddaviylik diniy markazi vazifasini o'tagan.



23-rasm. Pasarg'oda shahari.
Saroy qoldiqlari (4-ad., 245-b.).



24-rasm. Ktesifondagi saroy
(4-ad., 244-b.).



25-rasm. Qadimgi Balx, tarxi
M. Beru bo'yicha
(4-ad., 193-b.).



26-rasm. Oyxonim shahari
(4-ad., 176-b.).

Hirot Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan. Maqduniy davrida Oriyona deb atalgan.

Kobul milodiy I asming boshidayoq hayot kechirayotgan edi. Hozirgi Kobulning janubi-sharqida buddaviylar shahari qoldiqlari mavjud.

Oyxonim-Afg'oniston shimalidagi olimlar tomonidan nisbatan yaxshi o'r ganilgan ellenistik shahardir.

I.4. Qadimgi Turon

Qadimgi Turon (O'rta Osiyo) shaharsozligida to'rt yirik davr ajraladi: ilk davr (m.av. 4 mingyillik – VI asr o'rtasi); ahamoniylar (m. av. 558–330 yil), ilk antik (m. av. 330 y. – m. av. I asr) va so'nggi antik (I–VI asr) davrlar.

Janubiy Turkmaniston – O'rta Osiyoning dastlabki me'morchilik kurtaklari paydo bo'lgan yerlaridir. Neolit, yangi tosh davrida (mil.av. 3–4 mingyilliklar) bu joylarda dehqonchilik-chorvachilik jamoalari shakllanadi. Jaytun madaniyati miloddan avvalgi VII–V-mingyillikka oiddir. Jaytunda 30 ta turar joylar bo'lsada, ko'cha va maydon yo'q. Tuzilishida bir muncha o'zaro bog'liqlik bo'lgan Qoratepa (miloddan avvalgi 3-mingyillik) mavjud.

O'rta Osiyoda bronza davrining boshlanishi miloddan avvalgi 4–3 mingyilliklarga to'g'ri kelib, bu davrda insonning ochiq qarorgohlari paydo bo'ldi. Sun'iy ravishda sug'orish inshootlari – ariqlar qazila boshlandi.

Dastlabki shaharlar to'g'risidagi ma'lumot zardushtiyalar kitobi «Avesto» da mavjud. Unda «var» to'g'risida so'z yuritiladi. Ibora sug'd tilida «qo'rg'on» ma'nosini bildiradi. Shu davrlarda paydo bo'lgan istehkomlar nomlariga ham o'tgan – «Dalvarzin», «Varaxsha» kabi.

Bronza davriga mansub yodgorliklardan Oltintepa va Sopollitepani alohida ta'kidlash joizdir.

Sopollitepa (Surxondaryo) urug' jamoasining istehkomini sanaladi. Miloddan avvalgi XVII–XIV asrlarda hayot kechirgan. Umumiylar maydoni 3 ga joyni egallaydi. Qal'asi murabba (kvadrat) tarxli bo'lib, tomonlari 90 m ni tashkil qiladi. Qo'rg'on devorlari tashqi va ichki yo'laklari ajratib turuvchi muntazam tartibda bog'langan uch qator devorlardan iborat. Darvozasi janubda joylashgan. Devor qalinligi – 1,6 m. Sopollitepaliklarning dini totemizm bo'lgan deb taxmin qilinadi.

Bronzaning so'nggi va temir davrida (janubiy hududlarda boshlanishi miloddan avvalgi IX asrdan, mil. av. IV asrdan

esa barcha hududlarda) O'rta Osiyo arxitekturasida, xususan, shaharsozligi umumiyligi nuqtai nazaridan ikki mintaqani (zonani) ajratish mumkin: 1. Shimoliy Baqtra, Saraxs vohasi, Marg'iyona, Shimoliy Parfiya; 2. Farg'ona, Toshkent vohalari, Ustrushana. Xorazm va So'g'dni biror mintaqaga kiritish qiyin deb hisoblanadi.

Zikr etilgan hududlarning har biri bir qancha maydaroq vohalardan tashkil topgan edi. Masalan, Marv vohasi 5 mayda vohalardan iborat bo'lgan.

Shimoliy Baqtra istehkomlari ichidan 4 toifadigilari uch-raydi: 1-shahar tariqasida shakllanayotgan yirik manzilgohlar. Qiziltepa istehkomi shu toifaga kiradi. U qal'ali bo'lib, umumiy maydoni 30 ga atrofida bo'lgan. Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda vujudga kelgan. Miloddan avvalgi VI asrda qo'rg'on devori qurilgan; 2-qal'a va atrofi devor bilan o'ralmagan manzilgohlar; 3-kattagina, maydoni 10 ga atrofida bo'lgan tarqoq hamda devorsiz manzilgohlar; 4-mayda, maydoni 0,5 ga atrofida bo'lgan manzilgohlar.

Baqtra turarjoy Kuchuktepa misolida o'rganilgan. Aniqlanishicha, u miloddan avvalgi 800-yillardan 400-yillargacha hayot kechirgan qo'rg'on-hovli bo'lgan.

Shimoliy mintaqasi hududlarida yirik istehkomlardan quydagilarni ajratish o'rnlidir: Shimoliy Baqtradagi Qiziltepa istehkomi (mil. av. VIII—VII asrlarda vujudga kelgan) qal'asi bo'lib, umumiy maydoni 30 ga atrofida bo'lgan. Qo'rg'on devori mil. av. VI asrda qurilgan.

Seraxs vohasi eneolit davridayoq o'zlashtirilgan edi. Insonning ikkinchi o'zlashtirish davri Eski Seraxs qal'asining o'rnida bo'lgan manzilgohda o'z aksini topgan. Manzilgoh tomonlari 300—320 m bo'lgan noto'g'ri beshburchak shakliga ega. Atrofini o'rab turgan 1,8 m balandlikdagi tepalik qo'rg'on devori qoldiqlari bo'lishi mumkin. **Shimoliy Parfiya** yerlarida istehkomlar ko'p bo'lgan. Yelkantepa istehkomi yirik qal'alardan hisoblangan. Marg'iyonadagi Yoztepa istehkomi (mil. av. 200-mil. 400-y.) qal'asi o'rtada bo'lgan.

Farg'onada miloddan avvalgi 2- va 1-mingylliklar chegarasidan miloddan avvalgi VI asrgacha Chust nomi bilan ataladigan ilk temir madaniyati shakllanib, unga mansub bo'lgan 80 ga yaqin yodgorlik mavjud. Manzilgohlar katta ariq va ularning tarmoqlari atroflarida, vodiylarda joylashgan. Vohalar orasi 20-30 km ni tashkil qilgan. Ular: O'zgan (9 manzilgoh), Qorasuv (24 manzilgoh), Tova-Kosonsoy (8-manzilgoh), Qoradaryo va Xo'jaobod vohalaridir. Ba'zi vohalarda markaziy manzilgohlar mavjud edi. Uch xil kattalikdagi manzilgohlar uchraydi:

- 1 - yiriklari (12-25 ga, Ashqoltepa va Dalvarzin);
- 2 - o'ttachalari (4-5 ga, Chust, Dehqon);
- 3 - maydalari (0,02-0,9 ga, ko'pchilik manzilgohlar).

Dalvarzin maydoni 25 gektarga teng. Uch qismdan iborat bo'lgan. Har biri o'z qo'rg'on devoriga ega bo'lgan. Qal'arning maydoni 2 ga bo'lib, ko'p joylarida hech narsa qurilmay qolgan. Bir necha turarjoy majmualari esa ichki devor bo'y lab qurilgan edi. Turarjollar — mahallalar maydoni — 8 ga; orasidagi sayxonlik 5 gadir. Chamasi o'rtasi mol uchun qo'ra vazifasini o'tagan.

Chust — kattagina manzilgohdir. Ikki bo'lakdan iborat. Kattaroq bo'lagi qo'rg'onsiz edi; faqat kichikroq bo'lagi (1,5 ga) qo'rg'on devorga ega bo'lgan. Qo'rg'onli bo'lak qal'a sifatida yoki urush vaqtida qo'ra sifatida foydalilaniladigan joy bo'lishi mumkin.

Toshkent vohasida Burganlik madaniyati qaror topgan bo'lib, tadqiqotchilar uning ikki bosqichini ajratadilar:

Burganlik — 1 miloddan avvalgi IX—VII asrlar;

Burganlik — 2 miloddan avvalgi VI—III asrlar.

O'nga yaqin Burganlik manzilgohlari mavjud. Tuyabugiz — I manzilgohi nisbatan yaxshi saqlangan. Tarxi oval (260x100 m) shaklida. Uch tomondan xandaq bilan o'ralgan edi. So'nggi bronza, ilk temir davrida vohalar bo'yicha joylashgan aholining qal'ali va qal'asiz manzilgohlari O'rta Osiyoda mikrodavlatlar paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Ba'zi tad-

qiqotlarga ko'ra, antik mualliflar qayd etgan «Baqtra saltanati» to'g'risidagi ma'lumot noaniqidir. Unda, chamasi, Mar-kaziy Osiyoda bir necha viloyatlarning qisman miloddan avvalgi 650–640-yillardagi ko'chmanchi qabilalar ta'siri natiasida vujudga kelgan birlashmasi nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Ahamoniylar davrida O'rta Osiyoda avvalgi davrda bo'l-gani kabi shaharsozlikning rivoji davom etdi.

Mamlakatlararo aloqalar rivojlanishi **Buyuk Ipak yo'lli** nomi bilan ataladigan xalqaro karvon yo'lli shakllanishiga olib keldi. Uning muhim tarmoqlari Yevropa, Yaqin, O'rta va Uzoq Sharq mamlakatlari o'zaro bog'langan. Bu yo'l orqali 1-mingyillikning o'rtalaridan milodiy XV asrgacha Sharq va G'arb o'rtasida aloqa o'rnatildi.

Farg'onadagi zikr etilgan Chust madaniyatidan keyin **Elaton** madaniyati qaror topdi. *Elaton* deyarlik o'rganilmagan. Tarxi to'rtburchak shaklda. G'arbdan sharqda yo'nalishida cho'zilgan. Ikki qator devorli. Ichki o'lchamlari 500x400 m. Taxminga ko'ra, istehkom alohida turgan qurilmalardan iborat bo'lgan, atroflarida sayxonliklar bo'lgan. Uzun (11 m), eni tor (3 m) xonali bino ochilgan. Paxsa devorining qaliligi 0,8–0,9 m bo'lgan. Manzilgohning bu qismi qo'rg'on devor bilan qurshalgan. 60 m tashlab burjlari qilingan. Devor eni 4 m bo'lgan. Devor guvaladan (oraliqlari loy) ishlangan sufa ustida qurilgan. Elatonning darvoza oldi ochilgan. Shahar devorining ham eni – 4 m, xom g'ishtdan, burj devordan 4–5 m ga turtib chiqqan (10,5x10 m). Burj guvaladan ishlangan. Burj ichi ham urilgan. Faqat shimoliy-g'arbiy qismida kichik (3x2 m) xona bo'lgan. Uning kiraverishi (0,9 m eni) darvoza tomonga qaragan. Ichki devordan 500 m narida tashqi devor qoldiqlari saqlangan. Unda ham burjlari bo'lgan. Devor shimolda 2 km uzunligida saqlangan, sharqda – 200 m, taxminga ko'ra, janub tomonidan, ariq tarafida qo'rg'on devorida hech qachon qurilma bo'lmagan.

Toshkent butun Chirchiq vohasi kabi qadimdan Choch, Shosh deb nomlangan bo'lib, shaharsozligining rivoji antik davrga to'g'ri keladi. U o'z tarixi davomida xalqaro savdo yo'llaridagi muhim punkt, dehqonchilik va chorvachilik hududlarining chegarasidagi qal'a va yirik savdo shahari bo'lib kelgan; katta maydonni egallagan; o'z atrofidagi yerlar va aholi joylari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shunga ko'ra, shaharlarning negizi hamisha ham markazda muqim turmay, 2 marotaba o'z hududining chekkasiga o'tgan. Undan tash-qari, shahar shakllanishiga uning hozirgi hududidagi arxeologlar qayd etgan 50 dan ortiq istehkom, qal'a, kentlar ta'sir etgan.

Dastlabki Toshkent mil. av. II—I asrlarda shahar qiyofasini olgan Jo'n arig'i bo'yidagi Choshtepa bilan bog'liq.

Toshkent shaharsozligining ikkinchi davri Salor arig'i bo'yida milodiy I—II asrlarda paydo bo'lib, ilk o'rta asrlarga kelib, poytaxt shaharga aylangan Mingo'rik (Afrosiyob)da kechadi.

Ohangaron daryosi bo'yida mustahkam **Kangxa** shahari quriladi, maydoni 6,5 ga bo'lib tarxi murabba (kvadrat) shaklida. Tomonlarining uzunligi 230 m, shimoliy burchakda qal'a (u ham murabba) mavjud. Shahar ham, qal'a ham eni 50 m va daryo bilan bog'langan xandaq hamda devor bilan o'ralgan. Qal'a devorlarining tuzilishi aniqlanmagan. Shahar muhofazasi murakkab. Birmuncha tekislangan tepalikda 3 m qalinlikda tuproq va paxsadan platforma tashkil etilgan. Ustdan bir necha qavat xom g'isht to'shalgan (farsh qilin-gan). Platforma chetidan devorgacha 15 m oraliq bor. Devorning pastki qismi paxsadan, tepasi xom g'ishtdan ishlangan. Devor ikki qator: tashqisining eni — 2,7 m, oralig'idagi raxrav (koridor) eni 2,2 m, ichki devor eni 4,5 m bo'lgan. Tashqi devorning nishabi keskin — 70 % gacha boradi. Raxrav toq bilan yopilgan. Unda trapetsiyasimon g'ishtdan foydalaniilgan. 3—4 m balandlikda yuqori raxrav boshlanadi. Tarhi oval shaklidagi (asosining diametri 9 m) burj saqlangan. Faqat bitta darvoza (janubi-g'arbda) bo'lgan.

Ustrushanada oldin zikr etilgan Nurtepa istehkomida (maydoni 18 ga) miloddan avalgi VI–V asrlarda tashqi qo‘rg‘on – devor quriladi. Uning eni 3–4 m. U soz tuproq tepaligidan foydalanib ishlangan. Ichki paxsa devorining eni 1–2 m. Tepalik (tuproq devor) bilan paxsa oralig‘ida eni 1–4 m bo‘lgan raxrav o‘tadi. O‘sha vaqtida ham (mil. av. VI–V asrlar) qal‘a devori qurilgan. Unga ham tabiiy soz tuproqdan foydalanilgan. Uning ustidan paxsa devor ishlangan. Eni 5,5 m. Ustidagi devorga xom g‘isht ishlatilgan. Nurtepada turarjoylar – yerto‘lalar shaklida qurilgan, kattagina bo‘lgan (uzunligi 5 m, eni – 3,5 m) yerto‘la ochilgan, yengil tomi bo‘lgan. Ilk temir davrining so‘ngida paxsali uylar paydo bo‘ladi.


Hozirgi O‘ratepa shahrini va uning tabiiy tepaligi bo‘lgan Mug‘xona qal‘asini yozma manbalarga asoslanib, ayrim tad-qiqotchilar Ko‘rukada (Kiresxata, Kiropol) deb taxmin qiladilar. Shu yozma manbalarga ko‘ra, Ko‘rukadaning paxsadan ishlangan va past devori bo‘lgan. Qal‘asining ham qo‘rg‘on devori bo‘lgan.

Xo‘jand shahari Ustrushana bilan Farg‘ona chegarasidagi miloddan avvalgi VI–V asrlarda vujudga keldi. Qo‘rg‘onning devor qoldiqlari mavjud. Qal‘a devorining past qismi paxsadan, yuqorisi xom g‘ishtdan ishlangan. Qal‘anining boshqa yerida 2 metrcha balandlikda tabiiy do‘nglikdan foydalanilgan. So‘ng qumtosha qatlami tekis qilib berilgan, ustidan xom g‘isht yotqizilgan.


Horazm Amudaryoning chap qirg‘og‘ida miloddan avvalgi V–IV asrlarda **Qal‘ali kir** istehkomi (shahari) vujudga kelgan. Shaharchani Charmanyob arig‘i suv bilan ta‘minlab turgan. Tarxi to‘rtburchak (1000x700 m) shakliga ega. Darvoza oldi alohida muhofazalangan hamda mustahkam qo‘rg‘on devor bilan o‘ralgan edi. Istehkominning g‘arbiy qismida, qo‘rg‘on devorga tutashtirib saroy majmuasi (umumiy maydoni – 10500 m²) qurila boshlangan, biroq oxiriga yetkazilmagan. Miloddan avvalgi III asrda tashlab ketilgan.




27-rasm. Oltintepa, tarx. A. Lyapin bo'yicha (30-ad.).



28-rasm. Jarqo'ton
ibodatxonasi (4-ad., 17-b.).




29-rasm. Sopollitepa
(4-ad., 249-b.).




30-rasm. Marg'iyonadagi
Antioxiya, keyinchalik –
Govur qal'a (4-ad., 183-b.).



31-rasm. Budrach – Chag'oniyon.
I–XI a. E. Rtveladze bo'yicha
(4-ad., 200-b.).



32-rasm. Ko'hma Nisa, tarx
(4-ad., 238-b.).



33-rasm. Nisa sh., «Kvadrat
zal» (4-ad., 2539-b.).




34-rasm. Marqand – Afrosiyob (4-ad., 46-b.).



35-rasm. Qadimgi Buxoro
(4-ad., 202-b.).



36-rasm. Qang'xa sh.
(4-ad., 222-b.).



37-rasm. Choshtepa
(Muallif chizmasi).



38-rasm. Arxeologik qazuvarlar
(Toshkent, ensiklopediya. T.: 1984, 397-b).



39-rasm. Toshkent vohasidagi muhim manzilgoh va shaharlar
(*muallif chizmasi).



40-rasm. Qadimgi Qashqadaryo vohasi. Yerqo'rg'on sh. (23-ad.).




41-rasm. Termiz atrofidagi Zartepa (4-ad., 218-b.).



42-rasm. Kampirtepa (4-ad., 221-b.).




43-rasm. Kampirtepa Ark saqlanib qolgan qismining umumiy ko'rinishi va bosh tarxi (4-ad., 55-b.).



44-rasm. Qadimgi Termiz (4-ad., 254-b.).



45-rasm. Dalvarzintepa
(4-ad., 213-b.).



46-rasm. Qoratepa, Qadimgi
Termiz buddoyi g'or majmualari
(4-ad., 224-b.).

I.5. Qadimgi Hindiston

Qadimgi Hindiston shaharsozligiga uning jo‘g‘rofiyasi ta’sir ko‘rsatgan. Shimolda Himolay tog‘lari, janubda okean joylashgan. Vind tog‘i Hind yarim orolini ikkiga – Hind va Dekanga ajratadi.

Neolit davri mil. av. V-IV mingyllikkarda hukm surgan. Shimoli-g‘arbda o‘troq dehqon va chorvadorlar istiqomat qilgan. Ibtidoiy tuzum mil. av. II mingyllikgacha davom etdi. Shaharlar janubga va sharqqa tarqaldi.

Xarappa madaniyati mil. av. III mingyllik oxiri – II mingyllik o‘rtasida rivoj topdi. Hind vohasidan tashqari bu madaniyat Panjob, Saraurshtra, Rojistonlarni ham qamragan edi. Shaharlarda geometrik muntazamlik qaror topdi. Xarappa, Moxenjo-Daro, Chanxu-Daro shular jumlasidan. Asosiy qurilish materiali-pishiqlik g‘isht bo‘lgan.

Moxenjo-Daro shahrining tomonlari 1100x1250 m bo‘lgan. Hind daryosining o‘rta oqimida joylashgan. Qalin qo‘r-


g'on devorli edi. To'g'ri va keng ko'chalar (5–10 m) qo'r-g'ondagi burjlarga taqalgan shaharni ikki ko'cha g'arbdan sharqqa, uch ko'cha shimoldan janubga kesib o'tadi. Boshqa sharq shaharlari kabi ikki qism – ark va shahristondan iborat edi. Ark g'arbining o'rta qismini ishg'ol etgan. Arkda saroy topilgan. Undan tashqari, tomonlari 26 m bo'lgan zal (bozor), don saqlanadigan xonasi, hovuz (12x7 m) bo'lgan, uylar 2–3 qavatlari edi. Hovlilarida, odatda, o'choq qurilgan. Ichimlik suv arig'i, kanalizatsiyasi bo'lgan.

Oriylar bu mamlakatning mil. av. II mingyillik – I mingyillik o'rtasida shimoli-g'arbida joylashdilar. Undan Ganga va Jamna daryolari tomon siljishdi. Aholi o'rtasida varna (tabaqalar) paydo bo'ldi. Ular to'rtta: braxmanlar (ruhiyat ustozlari), kshatri (navkalar), vayshi (savdogar va hunarmandlar), shudra (eng past tabaqa – dehqonlar). Mil. av. I mingyillikda vedizm din braxmanizmga aylandi.

An'analar chuqur bo'lgan. Shreni-quruvchilar qasabasi bo'lgan. Shaharlar ham 4 qismga bo'lingan edi. «Mahabhorot»da va veda (diniy matn)larda shu davrdagi shaharlar tafsif etiladi. Mil. av. V asrda buddizm vujudga keldi. U tabaqalash (kastalar)ga qarshi edi. Mavri (Mauri) imperiyasi mil. av. 322–185 yillarda davom etgan. Chandragupta Mavri davlatiga (mil. av. 322–298 yillar) asos solgan.

Hindistonda shaharlar ierarxiyasi mavjud edi. Pataliputra (Patala) shahri imperiya poytaxtiga aylandi. Shaharlar «ichki shahar» (poytaxt), «tashqi shahar» (viloyat markazi) maqomlarga ega bo'lgan.


Taksilla mavqeyi jihatidan ikkinchi shahardir: mil.av. VI asrda vujudga kelgan. Mil. av. V asrda **Taksilla** yirik shaharga aylandi. Shimoldan janubga o'tgan ko'cha butun shaharni kesib o'tadi. Mil. av. 185-yilda Yunon-Baqtra tasarrufiga o'tgan. O'sha vaqtida ikkinchi qarorgoh-Sirkap vujudga keladi. Dahshatli zilzila Sirkapni yo'q qildi. Shimolda yangi qarorgoh (1,3x1 km) qurildi. V asr o'rtasida xunlar hujumidan so'ng uchinchi qarorgohning ham umri bitdi.




47-rasm. Qadimgi Hindiston (6-ad., 41-b.).



48-rasm. Moxenjo – Doro sh., 1 – qal'a; a-a – g'arb – sharq yo'naliishidagi asosiy ko'chalar; b-b – shimol – janub yo'naliishlaridagi asosiy ko'chalar (6-ad., 42-b.).




49-rasm. Moxenjo – Doro sh., Qal'adagi imoratlar (4-ad., 263-b.).



50-rasm. Moxenjo – Doro sh., shimol – janub yo'nalishlaridagi ko'cha yonlaridagi uylar (6-ad., 42-b.).



51-rasm. Taksilla sh., mil. av. V – mil. III asrlar davomida shahar o‘z o‘rnini o‘zgartirib turgan. Dastlabki shahar (1) Tamra Nal daryosining janubi – g‘arbiy qirg‘og‘ida, ikkinchi shahar – Sirkap (2) Tamra Nalining sharqiy qirg‘og‘ida, uchinchi shahar (3) Lunda Nal daryosining shimoliy qirg‘og‘ida bo‘lgan (6-ad., 44-b.).



52-rasm. Taksilla sh., ikkinchi shahar – Sirkapdag‘i asosiy ko‘cha, Yunon – Baqtra (mil. av. II – mil. I asr) davri (6-ad., 45-b.).

Sanchidagi stupa, g‘or ibodatxonalar shu davrga taalluqlidir.

«**Artxashastra yoki siyosat ilmi**» (mil. av. III–II asrlar) kitobi mamlakat boshqaruviga bag‘ishlangan. Shaharsozlikka oid ma’lumotlar ham bor (ikki bo‘lim). U orqali aholi soni va manzilgohning katta-kichikligi belgilanadi (shudra-dehqonlar uchun). Chegarada qal’a qurish tavsija etiladi. O‘rtada bosh shahar qurish lozim edi. Joy suv bo‘yida bo‘lishi

talab etiladi. Tarhi muntazam-doira yoki to'rtburchak shakllarida bo'lishi kerak edi. Shahar markazi (saroy, xazinaxona, ibodatxona, qozixona, aslaxona, savdoxonasi va boshqalar) ham Arhashastra vositasida belgilangan. Undan tashqari, har varna mahallalarining o'rni aniqlangan. Ko'chalarning vazifasiga qarab ularning eni belgilangan. Ko'chalar qo'rg'on dagi minoralarga olib borar; tashqaridan suvli xandaq qilingan. Shaharlarning mavqelari qancha qishloqni o'z tasarrufiga olganligiga qarab markazlilik darajasi belgilanadi. «Viloyat markazi» — 200 qishloqni, «mahalliy markaz» — 10 qishloqni o'z tasarrufiga olgan edi. Faqat adabiyotlarda mazkur taysiyalardan foydalanganligi qayd etilgan.

Kushonlar milodiy 25–227-yillarda va Guptalar 300–500-yillarda hokimlik qilishgan. Milod boshida O'rta Osiyo, Parfiya va Rim bilan aloqa bog'landi. Bu aloqa Taksilla Purushanuru shaharlari va shimoliy-g'arbdagi tog' yo'llari orqali amalga oshirilgan. Port shahrlar, quruqlikda va daryo bo'yalarida yangi shaharlari (savdo, hunar uchun) paydo bo'lди. Guptalar davrida poytaxt-Pataliputra, Sanchi, Ajanti va Karli monastirlari (rohibgohlari) o'sdi. Xunnlar hujumi (V asr oxiri – VI asr boshi) bilan qadimgi davr tugaydi.

I.6. Qadimgi Xitoy

Neolit (mil. av. III–II mingyllikda), bronza davri mil. av. XVI–XV asrlarda davom etdi. Mil. av. XIV asr oxirida Xuanxe daryosining o'rta oqimida In (Shan) davlati vujudga keldi. In poytaxti qo'rg'onli va xandaqli edi. O'rtadan tosh bilan farsh qilingan ko'cha o'tgan. O'rtada saroy va ibodatxona bo'lgan. Ularning yaqinida zodagonlar mahallalari bor edi. Asosiy imoratlar poydevori toshdan, devorlar taxmin bo'yicha — sinch va kesakli bo'lgan. Zodagonlar uylaridan aksari taxta ariq o'tgan edi.

Mil. av. XI asr Chjou davlati Inni bosib oldi. Yangi hokimiyat mil. av. III asrgacha davom etgan. Bir necha podsholikka bo'lingan. Bosh podsho Chjou edi. Dastlabki davr

G'arbiy Chjou davridir (mil. av. XI–XIII asr). Katta-kichik shahrlar bo'y sunish munosabati (ierarxiya)da bo'lgan. Poytaxt-Xaoszin shahri edi. Qo'shni qabilalar hujum qilganda saqlanish uchun ikki qo'rg'onli, kvadrat tarhli shahrlar qurilgan. Qo'rg'onlar orasida meva va sabzavot yetishtirilgan. Keyinchalik ularda savdogar va hunarmandlar o'mashgan. Yangilari ham shunday qurilgan.

Mil. av. 770-yilda poytaxt sharqqa ko'chiriladi. Bu keyingi Sharqiy Chjou davri (mil. av. 770–256-yil) edi. Poytaxt Loi tarxi kvadrat, tomoni 9 li (4,5 km) qo'rg'onli bo'lgan. Har tomonda 3 tadan shahar darvozasi bor edi. O'rtada saroy qurilgan edi. Undan o'ng tomonda Zamin ibodatxonasi, chapda Ajdodlar ibodatxonasi joylashgan edi. Sharqiy Chjou davrida fan, hunar rivoj topdi. Bu darvda faylasuf Laoszi va Konfutsiy ijod etdilar.

Qadimgi Xitoyda shaharsozlik qo'llanmalari ichida **Chjou-Li** e'tiborlidir. Bu kitob bo'yicha poytaxt kvadrat tarhli, tomoni 9 li (4,5 km) bo'lishi kerak. 9 ko'cha shimoldan-janubga, 9 ko'cha g'arbdan-sharqqa yo'naltiriladi. Ko'cha eni 9 «arava o'qli» bo'lishi lozim. Janubda imperator saroyi bo'lishi kerak. Oldida shaharning kompozitsion o'qida simmetrik tarzda ikki ibodatxona qurilishi kerak. Orqasida ikki bozor bo'lishi lozim. Imperator, Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, Osmon o'g'lidir. Shu davrda shahar, ibodatxona jamoat va turarjoylarni qurish tartibi shakllandi. Qoidaga rioya qilish uchun maxsus nazoratchilar tayinlangan edi. Konfutsiy izdoshi faylasuf **Menszi** (mil. av. 372–289-yil) shu nomli o'z asarida shahrlar bo'yicha ko'p tavsiyalar bergen. U o'quvchilarning ustozи bilan o'tkazilgan suhabat tariqasida yozilgan. Menszi bo'yicha, shahar avvalgi saqlanish (panohgoh) shaharlari asosida quriladi.

Chjou davrining so'nggisi-Kurashuvchi podsholiklardir. Bu davrda Sin podsholigi g'alaba qiladi (mil. av. 221–207). **Buyuk Xitoy devori** (6000 km) qurildi. Sinshixuandi davrida tugatildi. Balandligi 10 m, eni 7–8 m. Yo'llar quriladi. 36 viloyatda bosh va ko'p kichikroq shahrlar bo'lgan.

Sin imperiyasidan so'ng Xan imperiyasi (mil. av. 206–220-yil) qaror topdi. Poytaxti – Chan'an edi. Devorining uzunligi 25 km, 9 darvozasi bo'lgan. Ko'chalar shimol-janub, g'arb-sharq bo'yicha ketgan 60 kvartallarda karvonsaroy va bozorlar bo'lgan. Xunnlar bilan bo'lgan uzoq urushdan so'ng **Ipak yo'li** ochilgan. U o'rta yer dengizigacha borgan. Xan imperiyasi davrida quldorchilik yemirilib, feodalizm paydo bo'lgan.

Hindiston va Xitoy shaharsozligining umumiy jihatlari:

- qishloq jamoalari ko'p bo'lgan;
- markaziy hokimiyat kuchli edi;
- panohgoҳ shaharlar paydo bo'lgan;
- katta-kichik shahar – rezidentsiyalar qurilgan;
- nazariy kitoblar (Artnashastra, Chjouli) paydo bo'ldi.

Shu bilan birga, farqlar ham bor: Hindiston-ellistik Sharq, Rim bilan bog'landi; Xitoyda tashqari bilan aloqalar (O'rta, Old Osiyo, O'rta yer bilan) nisbatan kech o'rnatildi.





53-rasm. Qadimgi Xitoy (6-ad., 48-b.).



54-rasm. Buyuk Xitoy devori.
Mil. av. III a., hamisha (ayniqsa,
XV-XVI asrlarda) ta'mirlab
turilgan (6-ad., 50-b.).



55-rasm. Shahar sxemasi; qadimgi xitoyliklar tassavvurida shahar tabiat qo'ynida joylashgan bo'lishi kerak
(6-ad., 50-b.).



56-rasm. Shaharlar sxemalari. Qadimgi Chjou – li risolasi bo'yicha kichik (1), o'rtacha (2) va markaz (3) shaharlar tomonlari 125 m (chorak «li») bo'lgan kataklardan tuzilishi lozim (6-ad., 49-b.).

I.7. Egey dunyosi

Egey dunyosiga qit'adagi Yunoniston, Egey dengizi orollari hamda Kichik Osiyo qirg'og'i kiradi. Dehqonchilik bu joylarda erta rivojlandi.

Bolqondagi Fessaliya muzofotida mil. av. III mingyllik (o'rta neolit) davrida qo'rg'on devorsiz, kichik manzilgohlar paydo bo'ldi. So'ngi neolitda (mil. av. XXVIII asrlar atrofida) shu yerda qo'rg'onli qarorgohlar paydo bo'ldi. Ichida aksari megaron bo'lar edi.

Kritda ilk Minoy (mil. av. 30–22 a.), o'rta Minoy (mil. av. 22–16 a.) va so'ngi Minoy (mil. av. 16–12 a.) davrlari hukm surgan. Ilk Minoy davrida dastlabki shaharsimon qarorgohlar paydo bo'ldi. Unda hokim (bazilevs) istiqomat qilgan. O'rta Minoy davrida Knoss davlati rivoj topdi. So'nggi Minoy davri Kritning eng rivojlangan bosqichiga to'g'ri keladi. Krit shaharlarining markazlarida saroy barpo etilib, uning o'rtasida maydon-hovli bo'lgan; maydon-hovlini turli qurilma qurshab olar edi.

Knoss saroyidagi maydon-hovli 50x28 m bo'lgan. Knossa da Gurniyada vodoprovod, kanalizatsiya tizimi tuzilgan edi. Gurniyada saroy hovlisi 40x17 m bo'lgan. Ko'chalar tosh bilan farsh qilingan edi.

Taxminan, mil. av. XIV asrda Santorin vulqonining otlishi kuchli zilzilaga sabab bo'lgan, uning kuchi 200000 vodorod bombasiga teng ekan.

Miken shahrining qo'rg'on devori tog' relyefiga mos bo'lgan. Shaharda podsho qabrлari bo'ib, ular ikki xil: shaxta kabi va yakka holatda qilingan. Miken, asosan, qabrлar, akropol, qo'rg'onli chashma qismidan iborat edi. Uning «siklopiк» devorlarida yirik-yirik toshlar terilgan. Shahar darvozasi «Sherlar darvozasi» deyiladi. Saroy 35 m balandlikda barpo etilgan.

Tirinf 20 m atrofidagi balandlikda qurilgan. Asosiy shahardan boshqa — quyi shahri ham bor. Shaharni kirish joyi, yo'lak, kazematlar, katta propilleya, 1-hovli, asosiy hovli, katta megaron, kichik megaron, maxfiy darvoza, quyi shaharcha tashkil etgan.

Troadani arxeolog Henrix Shliman Hisorlik tog'ida topgan. Homerning «Illiada» dostonidagi Troyasi Troya VII ga to'g'ri keladi. Dastlabki Troya mil. av. 30–25-asrlarda hayot kechirgan. Mil. av. 1260-yilda Troyani axeylar yoqib yuborgan. Mil. av. XIII asr oxiriga kelib, Troyani dor qabilalari bosib oladi. Egey dunyosida bundan keyin yangi davr boshlanadi.




57-rasm. Knoss sh. saroyi;
o'rtada katta hovli — maydon
(6-ad., 53-b.).



58-rasm. Knoss saroyidagi zina
hovlisi; qo'llanilgan ustunlar
pastga qarab ingichkalashib boradi
(6-ad., 53-b.).




59-rasm. Gurniya sh. 1 — hovlili —
maydon; 2 saroy (6-ad., 55-b.).




60-rasm. Miken sh., bosh tarh
(6-ad., 55-b.).



61-rasm. Miken shaharining asosiy — Sherlar
darvozasi (6-ad., 55-b.).



62-rasm. Troya I va Troya II shaharlari (Bell bo'yicha),
mil. av. uchinchi mingyillik (6-ad., 57-b.).



63-rasm. Tirinf sh. akropoli, mil. av.
XVI–XIII a. (6-ad., 56-b.).

I.8. Yunoniston

Yunoniston shaharsozligida asosiy uch davr mavjud: arxaika (mil. av. 8-6 asrlar); klassika (mil. av. 5-4 asrlar) va ellinizm (mil. av. 4-1 asrlar). Polislarning maydoni turlichaligiga bo'lgan. Masalan: Sparta 8400 km², Afina 2550 km² hududni egallagan edi. Afina aholisi 300 ming kishini tashkil qilgan. Uning uchdan bir qismi qullar edi.

Selenunt akropoli kompozitsiyasida polixromiya qo'llanilgan. Tarhida muntazamlik mavjud. Shaharni Karfagen bir necha marta buzgan.

Pestum sh. Buyuk Gretsiyada joylashgan. Shahar o'rta-sida dumaloq basseyn bo'lgan.

Olimp muqaddasgohi altis deyilgan. Mil. av. 776 yilda dastlabki Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. Bu joyda asosiy ibodatxona Zevsga bag'ishlangan edi. Zevs sajdaghida yorqin olov ushlab turishgan. Ibodatxona qarshisida «Exo» stoasi bo'lgan. Keyinchalik aqora paydo bo'ladi. Altis yonida 40 ming o'rinali stadion bo'lgan. Yaqinidagi Alfey daryosi yoqasida ippodrom bo'lgan. Altis atrofida gimnasiy, palestra bulevteriy kabi imoratlar, bo'lgan. Shaharning o'zi kichkina edi. Olimpiya o'yinlariga qullar kirgazilmagan. Altis arxaika davrida tuzilgan bo'lsada, muntazam emas, balki erkin tarxli qilib qurilgan.

Mil. av. VII–VI asr dengizchilik, savdo-sotiq, aholining o'sishi kolonizatsiya rivojiga olib keldi. Dastlabki kolonizatsiya markazi Evganya oroli edi. Keyin Korinf, Megara va Rodos shaharlari koloniylar qurdilar. Ba'zan koloniylarining o'zlarini ham rivojlanib, koloniya tuzdilar.

Miletliklar 80 koloniya (yangi shaharlari) qurdilar, shu jumladan Qora dengizda Istriya, Odessa, Olviya, Feodosiya, Pantikapey, Dioskuriada shaharlarini barpo etdilar. Yangi shahar uchun kerakli shartlar quyidagilar hisoblangan: kema uchun ko'rfaz yaqinligi, toza suv, unumli yer, muhofaza uchun relyef qulayligi, shamollar tarzi, yomg'ir suvlarining oqishi uchun nishablik va boshqalar.

Miletlik **Gippodam** mil. av. V asrda ijod etgan me'mor va matematikdir. Shaharsozlikdagi muntazamlilik mil. av. VII-VI asrlarda ham ma'lum edi. Etrusklar va finikiyaliklar ham uni ishlatganlar, lekin Gippodam ulami yangicha funksiyal va estetik mazmunda qo'llagan. Arastu ma'lumotiga ko'ra, Gippodam Pirey shahri qurilishida qatnashgan. U Miletni qayta qurban (A. Gerkan bo'yicha). Ikkala shaharda yangi va umumiyl xususiyatlardan biri shundan iboratki, ularda zonalar, savdo markazi, jamoat markazi va ikki daha ajratilgan. Pireyda Gippodam nomli maydon ikki bandarqoh orasida tashkil etilgan. G'arb-roqda sklad va port hududi mavjud. Dahalar shimoli-sharqda va janubi-g'arbda joylashgan. Boshqa ikkinchi umumiyl jihatasi asosiy ko'cha janubi-g'arbdan shimali-sharqqa yo'nalganligidan iborat. Kvartallarning nisbatlari Gippodamgacha cho'zinchoq edi, keyin esa kvadratga yaqinlashdi. Gippodamga ikkilamchi ko'chalar eni 3,5 m bo'lgan. Miletning asosiy ko'cha - 7 m, Pireyda - 15 m edi. Demak, mavqesi muhimroq ko'cha eni 2 barobar enliroq qilib olingan.

Milet shahari markazi ikki yo'nalishda rivojlangan: biri bo'yicha gimnasiy, stadion, park joylashgan; boshqasi bo'yicha savdo va jamoat markazlari (ikki agora, o'tasida bulevteriy, fuqarolar qasam ichishlari uchun sajdagoh va yana gimnasiy) joylashgan edi. Taxmin bo'yicha shimoliy kvartallar klassik davrda qurilgan bo'lsa, janubiyalarning qurilishi elliñizm davriga to'g'ri keladi. Milet katta shahar bo'lgan. Aholisi 100 ming kishi atrofida edi. Bu yerda yirik olim va faylasuflar ijod etgan. Pifagor ham shu yerga yaqin bo'lgan Samos orolida yashagan.

Bunday muntazam tizimdagagi shaharlar «ochiq» tiynatga (xarakterga) ega edi. Qo'rg'on devor shaharni berkitib qo'yagan. Uning ham dahalarini, ham markazini kengaytirish va rivojlanadirish imkoniyati bor edi. Shaharlar tabiat bilan bog'langan bo'lgan.

Rivoyatlariga ko'ra, Zevs yemning markazini bilish uchun ikki kabutarni uchingan. Uchrashtgan joyini yemning markazi

sifatida belgilangan. Maxsus tosh-omfal shu yerni, ya'ni yer kindigi — Delfani bildiradi deb hisoblangan. Delfalilik kohinlar qaysi yerda, qanday yer o'zlashtirish kerakligini bashorat qilishgan. Delfadagi Appolon muqaddasgohi, ikki tog' orasida barpo bo'lgan. Asosiy kiraverishda turli qabila (polis)larning xazinaxonasi, ustunlar va haykallar joylashgan. Mazkur egri yo'ldan bosh ibodatxonaga borilgan. Aditonida kohin ayol so'rovlarga javob berardi. Uni yozib she'r tarzida so'rovchiga yetkazilar edi. Majmuada teatr ham bor.

Afina yorqin shaharsozlik namunasidir. Pireyni rejalahsh uchun Milet dan Gippodam chaqirtiriladi. Femistokl (mil. av. 525—460-y.) davrida devorlar, jumladan, uzun devorlar qu'rildi. Afina dengiz ittifoqini tuzishda boshchilik qildi. Shahar Perikl (mil. av. 443—429-y.) davrida rivoj topdi. Xalq majlislarida har 20 yoshga to'lgan erkin fuqaro qatnashgan. Bu butun aholining 20% edi. Majlis qatnashchilari 10 fil (rayon)-dan saylangan. 500 kishidan iborat kengash bo'lgan. Perikl davrida Afina g'arbdan-sharqqa 1,5 km ga cho'zilgan edi. Tepaliklar ikki kichikkina daryo oralig'ida edi. Shahar mil. av. VI asrda qurilgan akvedikdan suv ichgan. Bosh savdo va jamoat agorasini Akropol bilan Dipilon darvoza oralig'ida edi. Agora atrofida ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, chinorlar o'tqazilgan edi. Limna, Melite, Keramik kabi dahalari bo'lgan. Turarjoylar yog'och va xom g'ishtdan qurilar edi. Akropol bir vaqtlar qal'a va o'rda vazifasini o'tagan. Uzunligi, taxminan, 300 m, eni 150 m. atrofidadir. Rivoji vaqtida Afinada Gerodot, Esxil, Sofokl, Epirid, Fidiy, Iktin, Kallikrat, Mnesikl kabi allomalar ijod etgan. Avvalgi Gekotomedon ibodatxonasi vayronaga aylangan edi. Qayta qurish vaqtida Akropolda uch g'oya o'z ifodasini topdi: 1 — yunoñ olamida Afinaning e'tiborini e'tirof etish; 2 — Attikaning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini aks ettirish; 3 — demokratik tuzumni ifoda etish. Akropolda diniy funksiya vatanparvarlik bilan uyg'unlashib ketgan. Avval, Afina Promaxos haykali qurildi, keyin — Parfenon ibodatxonasi, Propileya hamda Nika

Apteros va Erexteyon ibodatxonalari qad ko'tardi. Parfenon ham Olimpiyadagi Zevs hamda Delfadagi Appolon ibodatxonalari kabi umumyunon ibodatxonasi bo'lgan. U harbiy va fuqarolik shuhrat yodgorligi kabi edi. Unda arxitektura va haykaltaroshlik chambarchas bog'liqidir.

Panafineya bayramlari to'rt yilda bir marta o'tkazilgan. Mahalliy Afineya bayrami har yili o'tkazilgan. Panafineya bayrami esa Olimpiya o'yinlar kabi qadimiy bo'lmay mil. av. VI asr o'rtalarida shahar mavqeini ko'tarish maqsadida joriy etilgan. Iyul oyining oxirida bir necha kun davom etgan. Ishtirokchilar kechga yaqin agoraga yig'ilgan. Bayram qo'shiq va raqs bilan boshlangan. Keyin bayram ishtirokchilari akropol tomon yurishgan. Orasida turli marosimlar o'tkazilgan. Quyosh chiqish vaqtida tepalikning sharqiga yetilgan. Quyosh Parfenonning sellasiga bir necha daqiqa kirib xriso-elefantin haykalini yarqiratgan. Keyin marosim tepalikning janubiy, Dionis teatri va Perikl odeonida (musiqa binosida) qo'shiq-raqs bilan davom etgan. Kunning ikkinchi yarmisida Propilleya orqali akropolga chiqilgan. Marosim Parfenonning zoforida aks etilgan. Unda e'tiborli oiladan chiqqan qizlar peplos ko'tarishgan, ulardan keyin oqsoqollar, boshqa shahar elchilari sovg'a ko'tarib o'z xizmatkorlari bilan atletlar, ruhoniylar, qurbanlikka hayvonlar yetaklashgan holatlari tasvirlangan. Marosim quyosh yo'li bilan hamohang ravishda o'tkazilgan.

Aflatun (mil. av. 428–348 y.), Arastu (mil. av. 384–322 y.) polis (shahar-davlat) tuzilishiga oid izlanishlarga yakun berishdi. Ularning qarashlari bir xil bo'limgan.

Aflatun zodagonlar bilan bog'liq edi. U bayon etgan hikoyada Atlantida davlatini podsho va arxontlar boshqaradi. Aflatunning ideal shahar-davlat to'g'risida fikrlari uning «Davlat» va «Qonunlar» kitoblarida berilgan. Shahar-davlatda jamiyat 3 tabaqaga bo'lingan: davlat boshqaruvini bajaradigan faylasuflar, muhofaza qiluvchi navkarlar va moddiy boylik yaratuvchi dempurglar (hunarmand, dehqon va sav-

dogarlar). Bulardan tashqari, qullar bor. Ular Aflatun naz-dida «mehnat qurollari»dir.

Shahar-davlat aholisi 12 moli teng guruh (fil)ga bo'linadi va har biri o'z joyiga ega. Ular 5040 yer bo'linmalarga ajraladi. Har yer bo'lmalari yana ikkiga bo'linadi: biri shahar chetida, biri mamlakat chetida joylashgan. Bosh shahar o'r-tasida akropol quriladi. Bosh shahar tevaragida bir xilda tar-qalgan dehqonchilik yerlarining markazi bo'lgan 12 qasaba jylanadi. Shahar aholisi chamasi 3040 ming kishi bo'lishi kerak. Aholi soni doimiy bo'lishi zarur. Ko'paysa yangi dav-lat tuzilishi zarurati tug'iladi. Hokim Klisfen (mil. av. 510—509 y.) urug' qabilaga qarab shaharni — 4 filga bo'lgan. Attika 10 filga qayta taqsimlangan. Attikani 3 zonaga ajratdi (Asina, Mesageya — O'rta Attika, Paraliyam — Attika cheti). Har 10 fil har uch zonada o'z yeriga ega edi. Demak, Aflatun g'oyalari o'tib bo'lingan yo'l edi. Shunga qaramay, Uyg'onish va Yangi zamon olimlari ko'p marotaba uning g'oyalariiga murojaat etishgan.

Arastu fikrlari ustozinikidan ancha farq qilgan. Aflo-tunda shahar tashqi dunyodan, ayniqsa, dengiz savdosidan holi bo'lishi kerak. Uning tushunchasi bo'yicha, polis o'z hojatini o'zi chiqarishi lozim. Arastuga ko'ra esa shaharning dengiz bo'yida joylashuvi rivojning garovidir. Aflatun shahar rejasida muntazamlik va uylarning bixilligini ma'qul ko'rgan. Arastu buni ortiqcha qattiqlik deb biladi. U shunday deydi: «Bus-butun shaharni to'g'ri rejali qilish yaxshi emas. Shaharning ayrim qismlari va mahalla (kvartal)lari gina to'g'ri rejali bo'lishi lozim. Shunday holatgina shaharning mudofaasi va ko'rinishi uchun maqbuldir» (Siyosat, VII, 10—11). Arastu bo'yicha, shaharning ba'zi maydonlarini savdo ixtiyoriga berib, ularning atrofiga bazilika, korxona va sud mahkamalarini joylashtirish zarur. Boshqa — «pokiza» maydonlarda esa ibodatxona, gimnasiy va boshqa jamoat binolari qurish lozim. Xullas, Arastu shahri Aflatunnikidan erkinroq va hayotiyroq edi. Arastu tasavvuridagi shaharda o'sha vaqt-

dagi (mil. av. IV a.) Afinaning ba'zi xususiyatlarini ham ko'rish mumkin.


Arastuning klassik davridagi estetik qarashlarga yakun yasab, yangi – ellinizm san'atiga asos bo'ldi. Arastuning estetik tushunchalariga ko'ra, go'zallik mutanosiblik va tartibdir; uyg'unlik – butunning o'z qismlari bilan bog'liqligidir, bu bog'liqlik o'xshash bo'lgan unsurlar nisbat orqali ifodalanadi; o'lchov – butunning boshlang'ich va bo'linmas birligidir. Bu qarashlar o'sha vaqtning badiiy muammolarini falsafiy umumlashtirish natijasi edi.

Shaharga oid fikrlar boshqa olimlar tomonidan ham ilgari surilgan. Gippokrat (mil. av. 460–377 y.) hakim (tabib) bo'lib, «Havo, suv, joy» degan risola bitgan. Fukidid (mil. av. 460–400 y.) tarixchi edi. U umuman shaharlar tarixiga va Afina tarixiga oid asarlar yozgan edi.




64-rasm. Selenut sh.; akropolida peripter tipidagi ibodatxonalar parallel ravishda qurilgan (6-ad., 62-b.).


65-rasm. Pestum sh., tarxi
Kastan'oli bo'yicha
rekonstruksiya qilingan;
shahar o'tasidagi
maydonda doira shaklida
hovuz qurilgan
(6-ad., 62-b.).




66-rasm. Olimpiya altisi. Shimoliy tarafga ko'rinishi (6-ad., 65-b.).



67-rasm. Olimpiya altisi; majmua keyinchalik shahar maydonlari – ago-
ralar shakllanishaga asos bo'lib xizmat qilgan; ko'rsatkich chiziq bilan
assosiy – Zevs ibodatxonasiga qarshi yo'naliishi ifoda etilgan (6-ad., 64-b.).




68-rasm. Delfadagi Appolon altisi; ibodatxona (I) ichidagi omfal toshi «yer kindigi» ni belgilab turgan (6-ad., 69-b.).




69-rasm. Qo'sh shahar — Pirey va Afina, umumiy mudofaa qo'rg'on devorlar tizimiga ega bo'lgan (6-ad., 71-b.).



70-rasm. Afina sh.; tepaliklar va mavzeler ko'rsatilgan (6-ad., 72-b.).



71-rasm. Afina akropoli., majmuada ikkala – dor va ion me'moriy tizimlarni qo'llanishi umumyunon birligi g'oyasini aks etdiradi (6-ad., 73-b.).



72-rasm. G'oyaviy shahar, Aflatun bo'yicha, tarx (6-ad., 79-b.).



73-rasm. G'oyaviy shahar, aksopometriya (6-ad., 79-b.).

I.9. Ellinizm

Ellinizm madaniyati yunon madaniyatining tashqi rivoji hisoblanadi. Iskandar Maqduniy qurilish uchun mablag' ajratgan birinchi shahar — Priena. U Miletni qamal qilganda, bu shaharda turgan edi.

Priena deyarlik bir vaqtida, mil. av. IV asr o'rtaida qurilgan. Unda yangi, ellinizm shaharsozlik xususiyatlari mavjud. Boshqa shaharlar o'z hayoti davomida birnecha qayta tuzildi. Priena esa shundayligicha qolgan. Shaharga suv tog'dan quvurlar orqali keltirilgan. Priena rivojlanishi uchun zaxira joyga ega. Markazi — katta. Asosiy ko'cha-g'arbiy darvoza ko'chasi bo'lib, uning eni 7,36 m; 2 — darajali ko'chalar eni 3—4,4 m bo'lgan. Kvartallarning nisbatlari 3:4 (35,4x47,2 m). Agor tilla nisbatda (oltin kesma)da qurilgan. Boshqa joylarda ham bu nisbat ishlataligancha. Uylar asosan 2 xilda: kichik va katta roq. Ba'zan uy orqasida bog' bo'lgan.

Jamoat markazlari 3 sattda joylashgan. 1 — pastdag'i markaz; quyi gimnasiy va stadiondan (Meandra daryosidan 30 m balandlikdan) iborat. 2 — o'rtadagi markaz; birinchisidan 43 m yuqoridagi asosiy jamoat markazi va sajdagohi; ulardan shimolda Muqaddas stoa, ekklesiasteriy, pritaneydan tashkil topgan. 3 — yuqoridagi markaz; daryodan 90 m balandlikda bo'lib, undagi ibodatxonani arxitektor Pifey qurilganligi to'g'risida pronaosda yozilgan bitik mavjud. Ibodatxona agoradan pastda, burchakda qurilgan. Yana yuqorida Yuqori gimnasiy, akropol bo'lgan. Yana yuqoridagi sat ibodatxonasiz edi va undan kuzatish maydoni sifatida foydalanilgan.

Prienaning shaharsozlik ahamiyati shundan iboratki, umuntazam rejada qurilgan, turli balandlikdagi binolarni majmua (ansambllar)ga bog'lagan.

Misr Iskandariyacha forsler qo'lida bo'ldi. Jahonda 70 dan ortiq Iskandariyalar bor. Eng yirigi **Misr Iskandariyasi** (mil. av. 331-yilda barpo bo'lgan) edi. Faros orolida qadimiyatning

yetti mo'jizalaridan biri mayoq (mil. av. III asr) qurilgan bo'lib, uning balandligi 150 m edi. Shaharni axitektor Dey-nokrat rejalagan edi. Kutubxona Museyon nomli binoda joylashgan edi. O'ttada forum bo'lgan. Bog'lar barpo etilgan edi. Paneyon parkining o'tasidagi sun'iy tepaligida ibodatxona bo'lgan. Asosiy ko'chaning eni 30 m bo'lib, kolonna-dasi bor edi. Shaharning uzunligi 7 km bo'lgan. So'nggi elli-nizm davrida I skandariya Rim bilan aholisi bo'yicha deyarlik teng edi.

I skandar O'rta Osiyodan keyin Hindistonga yurish qil-gan. Vafotidan so'ng imperiya Makedoniya, Ptolomeylar, Salavkiylar, Yunon-Baqtra va Peigam podsholigiga ajraldi. Ptolomey I ham 75 ta yangi shahar qurban. Eng yirigi Ptolomaida (Misrda, I skandariyadan keyin 2-o'rinda) edi. Ptolomey, asosan, Misri egallagan edi. I skandardan keyingi davrlarda davlatlarning eng kattasi Salavkiylar davlati bo'l-gan. U O'rta yer de ngizidan Hindistongacha tuzilgan edi.

Dura-Evropos shahrining aholisi yunon, makedonlar bo'-lishgan. Frot daryosining labida edi. Shaharning yo'nalishi diagonal bo'yicha bo'lib, avvalgi yo'nalish an'anasini takrorlaydi. 3 darvozasi bo'lgan. Qal'asi shimoli-sharqda joylashgan edi. Kvartallarning tomonlari 70,5x35,2 m o'chamlanga ega bo'lgan. Damashqda ham kvartallar tomonlarining nisbatlani 1:2 bo'lgan.

Pergam shahri mil. av. III asrda Attalla davrida juda rivojlandi. Uning tarxida muntazamlik yo'q. Ikkii — yuqori va quyi agorasi mavjud. Gimnasiy uch sathda, o'rta balandlikda, tepada akropol joylashgan. Asosiy yo'l janubiy darvozadan boshlanadi va akropolga olib boradi. Akropolda Troyanon, Afina ibodatxonalarini, kutubxona, saroy bo'lgan. Akropoldagi kutubxona kattaligi jihatidan I skandariyanikidan katta edi. Peigamda akropol bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yelpig'ich-simon ansambllardan iborat. Past-balandligi ulami birdash-tirdi. Akropolning g'arbiy tarzi 27 km naridagi dengizdan yaxshi ko'ringan. Rim davrida qurilgan Troyan ibodatxonasi

muvozanatni buzdi. Pergam yunon shaharsozligining yuksak namunasidir.

Assos shahri Pergamdan shimolda joylashgan. Akropoli beshinchi terrasadon o'r'in olgan. Uzunligi 120 m edi. G'arbiyda ibodatxona, sharqda bulevtariy qurilgan edi. Ibodatxonani savdo maydonida joylashishi ellinizm shaharsozligida yangilik bo'lgan. Maydonning qisqa tomonidan joylashishi ham Rim respublikasiga oid usuldir.

Ellinizm shaharsozligining ahamiyati quyidagilardan iborat:

- maydonlarni badiyan tashkil etish (ustunlar qatori, portik peristel va boshqalardan ishlab chiqildi);
- turli sathlardagi ansambllar tuzish muammolari hal etildi;
- obodonlashtirish yuqori darajada ko'tarildi (shu bilan birga boy va kambag'allarning uylari orasida keskin farq bo'lgan);
- Sharq vositalari: katta o'lchamlar, bezak va boshqalar dan foydalanildi.




73a-rasm. Iskandar Maqduniy imperiyasi (6-ad., 81-b.).




74-rasm. Misr. Iskandariya sh. tarxi (6-ad., 87-b.).






75-rasm. Iskandariya sh., Faros mayog'i, rekonstruksiya
(4-ad., 180-b.).




76-rasm. Afina agorasi.
Trox
(6-ad., 75-b.).



77-rasm. Afina agorasidagi
Atalla stoasi, tarx va qirqim
(6-ad., 75-b.).




78-rasm. Prianadagi hovlili (peristelli) turar uylarning tarxlari
(6-ad., 83-b.).



79-rasm. Ellirizm davridagi Damashq shahri (6-ad., 88-b.).



80-rasm. Priena sh., Mikal tog'i yonbag'rida joylashgan, pastda – Meandr daryosi bilan chegaralangan (6-ad., 81-b.).



81-rasm. Priena shaharining o'rta qismi; markazda maydon – agora ajraladi (6-ad., 82-b.).



82-rasm. Pergam sh., siniq chiziqlar shahar devorlarini ifoda etadi
(6-ad., 89-b.).




83-rasm. Pergam akropoli; tarx majmua «yelpig'ich kompozitsiyasi»ga ega
(6-ad., 90-b.).




84-rasm. Pergam akropoli; umumiy ko'rinish
(6-ad., 91-b.).



85-rasm. Assos sh., o'rtada akropol, janubda – agora va teatr joylashgan (6-ad., 92-b.).




86-rasm. Assos agorasi, tarx, chapda – ikki qavatli, o'ngda – bir qavatli stoalar (6-ad., 91-b.).



87-rasm. Assos agorasi, umumiy; stoalar oralig'li kengayib ketgan tarafda ibodatxona joylashgan (6-ad., 93-b.).



88-rasm. Rim imperiyasi xaritasi (6-ad., 95-b.).



89-rasm. Rim harbiy lageri.
Markazi — bosh qo'mondon — pretorning chodiri hisoblangan, o'ng tomonda pretor yordamchisi joyi — forum joyalshgan. Bosh ko'chaning eni 30 m atrofida, pretoriy ko'chasi 15 m atrofida bo'lgan.
(6-ad., 99-b.).




90-rasm. Rim shaharining hududiy kengayishi. Dastlabki shahar – «Kvadrat Rim» Palantin tepaligini egallagan edi. Mil. av. IV asrda qurilgan serviy Tulliy devoir Kapitoliy tepaligini shahar qal'asi sifatida qurshab olgan (6-ad., 96-b.).

simus (g'arb-sharq) yo'nalishlari aniqlangan. Avgust davrida dekumanus maksimus eni 12 m, kardo eni 6 m, yon ko'chalarining enlari 4 m bo'lgan. Chorraha (tetrans) tetrapil (chortoq), ba'zan 4 ustun bilan belgilangan. Asosiy kiraverish zafar darvozalari bilan belgilangan bo'lar edi. Boshqa ko'chalarining eni belgilanmagan. Shahar maydonlari ma'lum «standart» maydon bilan o'Ichangan. Rimdan boshqa shaharlarning maydonlari 50 yuger (14,7 ga)dan oshmagan. Lekin Aosta (yoki Avgusta Pretoriya) maydoni 150 yuger edi. Shahar Avgust salasslarga qarshi yurishda (mil. av. 26–25 y.) qurilgan (724–572 m). Bu yerda urush veteranlari o'rashdi. Teatr, amfiteatr, term, ibodatxona bo'lgan. Hozir faqat zafar toqisi saqlangan (tashida).

Rim davlati shimoldan janubga, taxminan, 2000 km, g'arb-dan sharqqa 4000 km atrofida cho'zilgan edi. Rim jumhuriyatida polis sistemasi saqlangan bo'lgan. Sulla diktaturasi jumhuriyatni saqlash uchun qilingan so'nggi harakat edi.


Trumviratdan keyin senat (mil. av. 27 y.) bosh hokimiyatni Oktaviyanga topshirdi va unga Avgust nomi berildi. Bu prinsip (Senatda boshchilik) aslida monarxiya edi. Okta-vian harbiy hokimiyatni ham (imperiumni) olgani uchun imperator ismiga ega bo'ldi. Avgust davri «oltin asr» edi. Vergiliy, Goratsiy, Ovidiy, Tibulla uning davrida ijod etishdi. Strabon (geograf va tarixchi) ko'p jildli «Jo'g'rofisiya»ni yoza-di. O'zi asli yunon bo'lsa hamki rimliklar g'oyasini o'ziga singdirgan edi. Vitruviy «Arxitektura to'g'risida o'n kitob» asarini yozdi. U Yuliy Sezar qo'shinida me'mor va muhandis sifatida xizmat qildi. Vitruviy 1-kitobning 4-bobida shahar tashkil qilishdagi asosiy talablar: joy tanlash, maydon joyi, ko'chalar yo'nalishi va h.k. ko'rsatadi, 5-kitobda jamoat binolari-bazilika, kuriya, teatr, term, palestra, forum to'g'risida bayon etgan, 6-kitobda turarjoylar to'g'risida yozgan. Vitruviy bo'yicha, arxitekturada ordinatsiya (order), dispozitsiya (joylanish), evritmiya (uyg'unlik), simmetriya (mutanosiblik), dekorum (moslik), distributsiya (imkoniyatni taqsimlash) bo'lishi kerak. Ular, olimning fikricha, shaharning omillaridir.




93-rasm. Pompeya sh.. vulqondan halok bo'lgan bu shaharning sakkiz darvozasi va ikki forumi bo'lgan (6-ad., 122-b.).




94-rasm. Pompeyaning g'arbiy qismi. Merkuriy ko'chasida (5-5) Bosh forum (1) bo'lgan; Uchburchak forum (2) janubda, teatr (3) oldida edi (6-ad., 123-b.).




95-rasm. Pompeya Bosh forumi. Ustunlar bilan o'ralgan maydon va Yupiter ibodatxonasidan iborat (6-ad., 124-b.).



96-rasm. Pompeya sh., Favn uyi. Ikki atriy va ikki peristel hovlilarga ega bo'lgan (6-ad., 124-b.).




97-rasm. Shimoliy Afrikadagi Lambezin shahar – lageri. Dekumanus maksimus (6-8) va kardo (7-9) ko'chalarining tutashgan joyi chorraha binosi – tetrapil (7) bilan belgilangan. U shaharning assosiy inshooti – pretoriyning darvozaxonasi vazifasini ham o'tagan (6-ad., 119-b.).



98-rasm. Shimoliy Afrikadagi Timgad shahar – lageri. Shahar kengayishi natijasida shaharning dastlabki chegarasidan tashqarida term, bazilikा, kapitoliy binolari qurilgan (6-ad., 121-b.).




99-rasm. Timgad sh., Dekumanus maksimus ko'chasi qoldiqlari (6-ad., 120-b.).




100-rasm. Jordaniyadagi Jerasha savdo shahari. Bosh ko'chada tetrapil va Oval forum bo'lgan. Asosiy inshoot — Demetra ibodatxonasining kompozision o'qi g'arbdagi jarlikkacha davom etgan (6-ad., 128-b.).



101-rasm. Jerashning janubiy tetrapili
(6-ad., 129-b.).



102-rasm. Splitdag'i Dialektian shahar – qarorgohi (saroyi),
tarh (6-ad., 130-b.).



103-rasm. Splitdag Dialektian shahar – qarorgohi, grafik
rekonstruksiya (6-ad., 131-b.).

II. O'RTA ASRLAR (V–XV ASR) SHAHARSOZLIGI

O'rta asrlar shaharsozligi bir qancha o'ziga xosliklarga ega. Bu o'ziga xosliklar qadimgi shaharsozlik bilan qiyos qilinganda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Qadimgi davrda aksari shaharlar markazlashgan hokimiyatlar – qudratli davlatlar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda barpo bo'lar edi. O'rta asrlardagi, ayniqsa, ilk o'rta asrlarda hokimiyatlar tasarrufi, asosan, mayda hududlar bilan cheklangan. Markaziy hokimiyat qadimgi davrga qaraganda zaif edi. Bu esa o'rta asrlarda Sharqda dehqonlar (G'arbda-feodallar) tayanch bo'lgan qal'alar (ko'shklar, zamoklar) qurilishi shaharlar qurilishiga qaraganda ahamiyatliroq bo'lib qolishga olib keldi. Ayni vaqtida qadimgi davrda markaziy hokimiyatlarning sustlashgan chog'lari bo'lgani kabi o'rta asrlarda ham markaziy hokimiyatlarning kuch-qudratga to'lgan chog'lari ham bo'lgan. Tabiiyki, bunday jarayonlar o'rta asr shaharsozligida ham turli ko'rinishlarda o'z aksini topgan. Qadimgi shaharsozlikda shaharlar qisqa vaqtida bunyod etilib, ko'proq tarxi to'g'ri to'rtburchak shakliga ega, ko'chalari to'rsifat o'tkazilib, shahar hududi kataklarga bo'linar edi. O'rta asrlardagi shaharlar ko'proq uzoq vaqt-asrlar moboynida bunyod etilib shaharlar tarxi doira shaklini, asosiy ko'chalari esa radial-halqa ko'rinishni olar edi.

O'rta asrlar shaharlarida ham basharning, umuman tammadduni (sivilizasiyasi)da bo'lgani kabi dinlarning tarqalishi katta ta'sirga ega bo'lgan. Yaqin va O'rta Sharqda, xususan, O'rta Osiyoda islom dinini tarqalishi shaharsozlikka kirib kelgan bir qacha jiharlar orqali namoyon bo'ladi. Bu jihatlar Hindistonda boburiylar sulolasini qaror topgan vaqtdagi sha-

harsozlikda ham ko'rinadi. Hindistonning janubiy qismida va Xitoydagagi shaharsozlikda qadimgi davrda vujudga kelgan an'analar davom ettirildi. Qadimgi Rim imperiyasining negizida paydo bo'lgan davlatlarda-G'arbiy Rim imperiyasida (Yevropa mamlakatlarida) va Sharqiy Rim imperiyasi (Vizantiyada) shaharsozlik an'analariga turlicha qarashlar mavjud edi. An'analar Vizantiya davlatida bevosita davom ettirilgan bir vaqtida, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ular unitilayozgan edi. Romanika va gotika davrlari (X-XV asrlar)da yangicha shaharsozlik bunyod etildi. Kiev davlatining va o'rta asrlardagi Rusyaning shaharsozligi Vizantiya an'analarini davom ettirishga harakat qildi.

II.1. O'rta asrlardagi Yaqin va O'rta Sharq

Yaqin va O'rta Sharqning o'rta asrlardagi shaharsozligiga xos bo'lgan jihatlar ummaviylar va abbosiylar davrlaridanoq shakllanib bo'ldi.


Ummaviylar poytaxti **Damashq** edi. Shaharning markazi bozor bo'lib, u devor bilan ixotalangan maydonni (385x305 m) qamrab olgan edi. Maydonda 708-yilda xalifa al-Volid tomonlari 157x100,0 m bo'lgan Katta masjid qurdirdi. Masjid maydonining deyarli yarmini hovli egallagan. Katta masjid O'rta yer dengizi atrofidagi boshqa masjidlar me'morchiiligiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Iordaniyadagi VIII asrda Ommon shahri janubida 25 km masofada **Mshatta** saroyi (150x150 m) qurilgan. Uning me'morligida Rim, Vizantiya va sosoniyalar davridagi an'analar birikib ketgan – kiraverish va uch nefli arzxona, uning orqasidagi gumbazli zal saroyining o'rta qismini egallagan. Arzxonaning hovli tarzini talqin etilishi uch ravoqli Rim zafar darvozalarni eslatadi.


Frotning o'ng qirg'og'idagi **Ko'fa** shahridagi Dorul-imora saroyida ham arzxona Mshattadagi kabi uch nefli bo'lgan Ortidagi najm gumbazli shaklga ega bo'lgan. Marka-

ziy hovlida ham bo'ylama va ko'ndalangiga ketgan komnozitsion o'qni belgilash mumkin. Bu usul keyinchalik keng tarqaldi.


Abbosiylarning eng rivojlangan bosqichi dastlab hukmronlik qilgan xalifa Mansur, Xorun ar-Rashid va Ma'mun hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Xorazmdagi **Ma'mun akademiyasi** (Dor ul-Hikma) faoliyati jahon markazlaridan bo'lganligini ta'kidlaydi.




104-rasm. Jordaniya. Mshatta qal'a – saroyi, tarx (14-ad., 26-




105-rasm. Mshatta qal'a – saroyi, hovlidagi kiraverish qismi, Kresvell rekonstruksiysi (14-ad., 26-b.).




106-rasm. Uxaydir qal'a-saroyi (14-ad., 32-b.).



107-rasm. Iroq. Ko'fa qal'a saroyi (14-ad., 30-b.).




108-rasm. Iroq. Bog'dod sh., Dajla daryosining o'ng qirg'og'ida doira shahar, chap qirg'og'ida — Rusafa (14-ad., 31-b.).



109-rasm. Samarra sh., Balkuvor saroyi (14-ad., 35-b.).




110-rasm. Ispaniya. Granada sh., Al-Hamro qal'asi (14-ad., 105-b.).




111-rasm. Granada sh., Al-Hamro saroyi majmuasi (14-ad., 106-b.).




112-rasm. Misr. Qohira sh.,
X a. (14-ad., 55-b.).




113-rasm. Tunis. Qayravn sh.,
IX a. Suv havzalari tarx
(14-ad., 74-b.).




114-rasm. Suriya. Xalab sh.,
A – qal'a; B – madina;
V – rabod (14-ad., 44-b.).



115-rasm. Xalab qal'asining
darvozasi, qirqim
(14-ad., 44-b.).



116-rasm. Jazoir, Bani Hammad qal'asi
(14-ad., 78-b.).



117-rasm. Qasri Shirin. Husrov II qarorgohi, VI – VII a.
(15-ad., 285-b.).

II.2. O'rta asrlardagi Markaziy Osiyo

VI—VII asrlarda (avvalgi davrdagidek) dehqonchilik vohalari ko'chmanchi chorvadorlar chullaridan devorlar bilan muhofaza qilingan edi. Ayni vaqtida VII asrda O'rta Osiyo davlatlari jadal sur'atlarda Eron va Xitoy bilan savdo olib borgan. Sug'd esa VI asrdan boshlab Yettisuvni kolonizatsiya qildi, uning miqyosi VII asrda Sharqiy Turkistonni ham qamrab olgan edi.

IX—XIII asrlar shaharsozligida avvalgi, o'tmish davrlardan qolgan vohalar (shaharlar va qishloqlar)ni muhofaza qilish maqsadida qurilgan qo'rg'on devorlar ta'mirlandi va qaytadan tiklandi. Ular uzoqqa cho'zilgani bois **uzun devorlar** nomi bilan ataladi. Uzun devorlar o'z nomlariga ega bo'llishgan. Toshkent va Chirchiq bo'yidagi boshqa shahar va qishloqlarni Devori kandi pirak yoki qisqacha — Kampir devor (buzilgan shaklda-Kampir devor) muhofaza qilar edi. Bunday nom boshqa joylarda ham (masalan, Buxoro atrofидаги devor uchun) qo'llanilgan. Samarcand va uning atroflardagi kent va qishloqlarni Devori qiyomat mudofaa qilgan.

O'rta asrlarda shaharlar to'g'risidagi tushuncha bir xil bo'limgan. Geograflar Al-Istaxriy va Al-Makdisiy jome' masjidini shahar belgisi deb hisoblaganlar. «Hudud-ul-olam» asarida noma'lum muallif quyidagi turlardagi shaharlarni keltiradi: katta shahar (Marv), shahar (Seraks, Nisa) va yana ikki turdag'i shaharlar — kichik shahar, shaharcha, ba'zan qishloq deb yuritiladi. Ayrim manbalarda Qavat qal'a (Xorazm, X asr) kabi yodgorliklar ham **rustoq**, ham shahar deb hisoblangan. Bunday joylar qal'asiz vujudga kelgan shaharlar qatoriga qo'shilgan.

V—IX asrlarda ko'pchilik qadimgi shaharlar tiklandi. Yangilari karvon yo'llari bo'ylarida vujudga keldi. Shaharlarning tuzilishi avvalgi vaqtdagidan farqlangan. Oldingi **dizlar** faqat siyosiy mavqega ega bo'lgan shaharlardagina o'z e'tiborini saqlab qoldi. Boshqalarida esa dizlar mavqelarini

yo'qotib xarobaga aylandi. Adabiy manbalarda ular «*ko'han-diz*» – ko'hna diz deb nomlanadi. Bu vaqtida shaharlarning asosiy qism odatda ***shahriston*** deyilgan. Shahar rivoji davomida uning tevaragida ***rabod*** shakllana borgan.

Aksari shahrlar 10–15 ga maydonni egallangan. Buxoro shahristoni 30–35 ga, Samarqand rabodi bilan 200 ga atrofidagi maydonni ishg'ol qilgan edi. Shaharlар quduq, ochiq ariq va sopol quvurlar yordamida suv bilan ta'minlangan. Yo'llarni va karvonlari himoya qilish maqsadida ko'plab ***rabot*** qurildi. Shaharlarni suv bilan ta'minlash katta ahamiyatga ega bo'lgan. Aksari suv ariqlardan keltirilgan, hovuzlarga yig'ilgan. Ba'zan yerosti sopol quvurlaridan foydalaniłgan. Samarqand kabi tepaliklardagi shaharlarda ***ko'tarma nov*** (akveduk) qurilgan edi. Samarqand novi Jo'yi Arzis deb nomlangan. Yerosti suvlardan tog' va tog'oldi joylarda ***koriz*** tizimi orqali foydalaniłgan. Farova korizi rabodda bo'lib 700 m uzunlikka ega bo'lgan. Koriz yer ustida, ikki enida qo'rgon devor, burjlar bilan qurilgan edi. Ba'zi shaharlarda (Buxoro, Termiz kabilarda) ***taroz*** – kanalizatsiya qo'llanilgan.

Beruniyning tariximizga bag'ishlangan asarlarida Iskandar Maqduniydan 660 yil so'ng Xorazm shohi Afrig' poytaxt yaqinida ***ko'shk*** qurdirganligi to'g'risida xabar bergan. Uning tasnifi aynan Xorazmdagi ***Yakka parson*** ko'shki to'g'risida ketayot-ganday tuyuladi. Yakka parsonda ham tomonlari nishabli sufa (platforma)ga qurilgan ko'shkka, taxminan, 20 m naridan o'tgan, burjlari aylana shakllarda bo'lgan qo'rg'on devordan ko'tarma ko'priq orqali o'tilgan. Ikkinci devor birinchidan 10 m naridan o'tgan edi. Uchinchi devor qoldiqlari 40–45 m naridan topilgan.

Xorazmshohlar davrida **Hazorasp** mustahkam qal'a va go'zal shahar sifatida dong taratgan edi. Solnomalarda uning bozorlari va savdogarlari ko'pligi, aholisi boy bo'lganligi qayd etilgan. Shahar ko'l bilan o'ralgan bo'lib, qoldiqlari hanuzgacha mavjud. Shaharning birgina orolda joylashgan darvozasi bo'lgan.

Samarqand shahari mo'g'ullar istilosigacha **Afrosiyob** tepaligidagi joylashgan edi. Shimol tarafidan pastlikda Siyob arig'i o'tgan edi. Shaharning shimoliy qismida qal'a joylashgan. Uning qo'rg'on devorlari shaharning janub tarafiga kengayganini ko'rsatadi. Bir necha darvozalari bo'lgan. Shahardan topilgan mashhur devoriy suratlar hokim — ixshid saroyiga tegishli bo'lgan.

Termiz shahari VI—VIII asrlarda avvaldagi asrlardagi tanazzuldan so'ng ancha jonlandi. Oldingi tashlab ketilgan joylarning ba'zilariga aholi qaytib keldi. Shaharning gullabyashnashi esa IX—XII asrlarga to'g'ri keladi. U yanada kengayib ketdi, bandargoh ta'mirlandi, qal'ada uni mustahkamlash maqsadida qayta qurish ishlari olib borildi. Shahriston qo'rg'on devor bilan o'raldi. Shahar tarkibiga keng rabodidan tashqari atrofidagi qismi (Suradikat) ham kirgan. Somoniylar davrida shahristonda mahallalardan tashqari bozorlar, saroy, rabonna ham bozorlar, ustaxonalar, namozgoh bo'lgan. Qo'rg'on devorlarining eskilari mustahkamlandi, yangilari qurildi. Ularda to'qqiz darvoza bo'lgan. Bu davrda Sulton Saodat majmuasining dastlabki binolari paydo bo'ldi. XIII asr oxirida mo'g'ullar istilosidan vayron etilgan joylardan, sharqqa, sayidlar manzili Salovat degan joyga ko'chdi. XV asr boshida Termiz «yaxshigirra qurilgan, ajoyib bozorlari bo'lgan katta shahar» edi. Butun XV asr davomida qurilish jadal sur'atlar bilan olib borildi; bandargoh va qal'a obdon ta'mirlandi.

Toshkentning bu davrning dastlabki vaqtidagi hayoti **Mingo'rik** (Mingo'rik Afrosiyobi) yodgorligida kechdi. Mingo'rik V—VII asr O'rta Osiyodagi yirik, maydoni 30 ga atrofida bo'lgan shaharlardan hisoblanib, diz (qal'a), shahriston (ichki shahar) va rabod (tashqi shahar)lardan iborat edi. Uning tevaraklarida ko'plab ko'shk, kad, kentlar paydo bo'lgan. Ulardagi imoratlar, asosan, xom g'isht va paxsadan iborat bo'lib, hozirgacha tepe holatida yetib kelgan. Taxminan, VIII—IX asrlarda Toshkent Eski shahar territoriyasiga ko'-

chadi. Bu hudud past-baland bo'lib, xalq tasavvurida shahar uchun eng yaxshi joy («yetti soy, yetti qir») hisoblanib, aholini sel xavfidan saqlagan.

Beruniyning (X asr) guvohlik berishicha, Toshkent o'sha vaqtarda **Binkad** deb atalgan. Shahar har biri qo'rg'on devorli ark (qal'a), shahriston hamda qo'sh (ichki va tashqi) rabodlardan tashkil topgan edi. Ichki rabod «Rabodi doxil», tashqi rabod «Rabodi xorij» deb atalgan. Shaharda binolar zinch (tashqi rabod bundan mustasno) qurilgan edi. X asr ma'lumotiga ko'ra, shahar o'lchamlari farsangga (5–6 km ga) teng bo'lgan. Markaziy Chorsu bozori va Registon maydoni shahristonga tutash bo'lgan.

Toshkent Chirchiq daryosi bo'yidagi boshqa shahar va qishloqlar bilan yaxlit shaharsozlik tizimini tashkil qilgan. Mo'g'ullar istilosini Toshkentga katta talofat keltirgan. XIII asrda yirik qurilish ishlari olib borilmagan. Shahardagi me'morlik to'g'risidagi tasavvurni hozirgi Toshkent va uning atroflaridagi madaniy tepaliklar beradi. Bir necha bunday tepaliklar Oqtepa deb ataladi. Ular ichida Yunusobod Oqtepasi o'zining kattaligi, nisbatan yaxshi saqlanganligi hamda unda O'rta Osiyoda dastlabki gumbazlardan biri qo'llanganligi bilan ajraladi.

Keng qamrovli shaharsozlik ishlarini nafaqat Amir Temur, balki uning o'g'li Shohruh ham olib borganligi ma'lum. 1370-yilda Amir Temur poytaxt shahar sifatida Samarqandni belgilagandan keyin ham Kesh viloyatining bosh shahri Shahrisabzga o'z e'tiborini susaytirmadi. XIV–XV asrlar-dayoq Shahrisabz yonidagi Kitob ornida joylashgan qadimgi Kesh bilan maydon jihatidan bog'lanmagan edi.

Shosh viloyatidagi qadimgi Qang'xada bu davrlarda olib borilgan katta qayta qurish ishlaridan so'ng shahar Shohruhning jonkuyari nomi bilan Shohruhiya deb atala boshladi.

Mo'g'ullar istilosidan so'ng Bolohisorda hayot so'ndi. **Samarqand** pastga, janubga ko'chdi. 1370-yilda shahar qo'r-g'on devor bilan o'raldi. G'arb tarafida qal'a joylashgan

bo'lib u ham alohida devor bilan qurshalgan edi. Natijada g'arbda ikki qator devor hosil bo'lgan. Shahar devorlarida olti darvozasi bo'igan. Ular soat millari harakati bo'yicha joylashuvi tartibida Shayxzoda, Ohanin, Feruza, So'zangaron, Korizgil va Chorsu deb nomlangan. Shimol-janub yo'nali shidagi ko'cha shaharda asosiy bo'lib, uning o'rtasi Registon maydoni bilan belgilangan. Maydondan Ohanin darvozasi gacha o'tgan savdo ko'chasinining ustini Amir Temur gumbazlar bilan yoptirgan edi. Shahar tashqarisida ham u birnecha qishloqlar qurdirib, ularga jahonning yirik shaharlari — Forish (Parij). Bag'dod kabi nomlarni berdi.

XV asrda Samarqand atrosida o'ndan ziyod bog'lar tuzilgan edi. «Boburnoma»da Temurning barpo etgan shunday bog'lardan biri — Bog'i Dilkushodan Feruza darvozasigacha bo'lgan masofada ikki tarafiga teraklar ekilgan *xiyobon* to'g'risida ma'lumot berilgan. Asarda Ulug'bekning bog'lari haqida quydagilar deyilgan: «Yana Pushtai Ko'xak ning domanasida g'arb sari bog'e solibtur, Bog'i Maydonga mavsum. Bu bog'ning o'rtasida bir oliy imorat qilibtur. Chilsutun derlar, du oshiyona, sutunlari tamom toshdin. Yuqorigi oshyonining to'rt tarasi ayvondur, sutunlari toshdin. O'rtasi chordara uydur. Imorat qursisini tamom toshdin farsh qilibturlar. Bu imorattin pushtai Ko'xak sari domanada yana bir borchha solibtur, anda bir ulur ayvon imorat qilibtur, ayvoning ichida bir ulur tosh taxt quyubtur. Ushbu borchada yana bir chordara solibtur, izorasi tamom chinniy. Chinniyxona derlar».

Bibixonim majmuasi Amir Temurning Samarqanddag'i eng yirik qurilishlaridandir. Majmua jome masjidi va madrasadan iborat bo'lib, ular *qo'sh* (muqobil) shaklida tashkil etilgan. Ko'pgina adabiyotlarda jome afsonalarga tayanilgan holda Bibixonim — Saroymulkxonim nomi bilan atalib kelingan. Haqiqat yuzasidan olganda Amir Temur nomi bilan atash maqsadga muvofiqdır. Masjidning kompozitsion o'qi bo'yicha Bibixonim madrasasi qurilgan. Ularning o'rtasidan o'tgan ko'cha poytaxtda eng muhim deb hisoblangan.

Amir Temur jomesi o'zining nihoyatda ulug'vorligi, salobatligi, serbezakligi bilan davr me'morligining yorqin namunasidir. Jome yirik o'lchamlarda barpo etilgan. Hovlili, to'rtayvonli kompozitsiyaga ega. Bo'ylama o'q bo'yicha hashamatli peshtoq va «Katta masjid» deb ataluvchi hajmlar joylashgan. Ko'ndalangi o'qni «Kichik masjid» hajmlari belgilagan. Inshootning zikr qilingan qismlariga qaraganda boshqa, burchak qismlari nisbatan pastroq. Ularning yopmasi ustunlarga tayangan gumbazlardan iborat.

Bibixonim madrasasi jomening kompozitsiyasiga bo'ysun-dirilgan holda tashkil etilgan. Masjidga qaraganda kichikroq. U ham hovlili tizimga ega. Madrasa tarkibiga Saroymulkxonimning maqbarasi kirgan.

Amir Temur davridagi memorial me'morlikning yorqin namunasi Muhammad Sulton majmuasi (Go'ri Amir) dir. Temurning vorisi qilib tayinlangan Muhammad Sultonning vafotidan keyin, uning xotirasiga majmua quriladi. Majmuuning tarkibiga uch asosiy inshoot — maqbara, xonaqoh va madrasa kirgan. Ular chog'roq maydon atrofining uch tomonlarida joylashtirilgan edi. Xonaqoh ham maqbara kabi gumbaz bilan yopilgan edi. Madrasaning o'rtasida hovlisi bo'lgan. Maydonning to'rtinchı tomoni ham devor bilan o'ralib uning o'rtasidan kiraverishi alohida peshtoq bilan ajratilgan. Maydonning to'rtta burchagida minoralar qad ko'tarib turgan edi. Xonaqoh va madrasa buzilib ketgan. Peshtoq va maqbara saqlangan. Maqbaraga Muhammad Sultondan keyin Temurning o'zi, o'g'illari, Ulug'bek dafn etilgandan so'ng inshoot Go'ri Amir nomini olgan.

Dastlab maqbaraga kiraverish maydonchadan tashkil etilgan edi. Keyinchalik, Ulug'bek davridagi qayta qurish chog'ida asosiy eshik oldingisiga nisbatan yon tarafdan tashkil etilgan. Go'ri Amir o'zinig tarixiy qiymati, yuksak badiiy — me'moriy sifatlari: xushbichimligi, juda boy bezaklari, bu bezaklarning hajm sathlariga mosligi — tektonikaviyligi bilan noyob obidalardan hisoblanadi.

Muhammad Sulton majmuasidan farqli o'laroq Shohi zinda majmuasi (aniqrog'i — me'moriy majmular ansambl) boshqa tiynatga ega. U chiziqli kompozitsiyada bo'lib, hozirgi vaqtida shimol — janub yo'nalishidagi usti ochiq **rahrov** (koridor) negizida tashkil etilgan. Majmuuning dastlabki shakllanish jarayonida g'arb-sharq yo'nalishi bo'yicha uyushgan edi. Dastlabki va hozirgi yo'nalishlarning kesishgan joyi hovlisifat maydoncha bilan belgilangan. Maydonchaning jinati — sharqida majmua paydo bo'lishiga sababchi Qusam ibn Abbas qabri va unga tegishli bo'lган binolar uyushmasi joylashgan.

Shohi zindanining Bolohisor yon bag'rida vujudga kelishi uning kompozitsiyasini relyef (past — balandlik)ning badiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish asosida tashkil qilishga olib keldi. Me'moriy majmua sal kam ming yil davr davomida shakllanib kelgan. Biroq undagi binolarning ko'philigi XIV—XV asrlarda bunyod etilgan.

Shohi zindanining jami inshootlari kompozitson jihatidan uch binolar guruhiya uyushgan. Har bir gurujni chortoqlar birlashtirib turadi. Pastki, 1-chortoq majmuaga kiraverishdagi binolar jamlagan. Yuqoridagi, 2-chortoqa pastdan **pilla-poya** (zina) orqali chiqiladi. 3-chortoq ham yuqorida bo'lib, u majmua negizini tashkil qiluvchi Qusam ibn Abbas maqbarasini va unga tutash bo'lган boshqa inshootlarni uyshtiradi.

XIV asr oxirlarida Temur Xorazm, Ozarbayjon, Eronga qilgan yurishlaridan keyin u mamlakatlardan keltirilgan va mahalliy ustalar Oq saroy, Temur avlodining maqarasi — Dorus-Saodat hamda Dorut-Tilovat madrasasi quriladi. Ular O'rta Osiyodagi dastlabki ulkan inshootlardan edi.

Shahrisabz shaharining qadimgi qismi XIV va XIX asrlarda qurilgan qo'rg'on devorlar qoldiqlari bilan chegaralangan. Tarixan shahar maydoni uning janubida qo'rg'on devorlari ichkariga qarab 450 m surilgani hisobiga kamaygan. Shahrisabzda 1378—1379-yillarda Temur katta obodonlash-tirish ishlarini boshlaganda, shahar (Hisor) 4 darvozali paxsa

qo'rg'on devor bilan o'rالgan edi. Tashqi tarafдан devor bo'y lab xandaq bo'lib, ustidan ko'tarma ko'prik orqali o'tilgan. Bu vaqtida Shahrisabz Sharqda qadimdan ma'lum bo'ilgan, tekis maydonga mo'ljallangan, kunga qaratib orientatsiyalangan hamda bosh ko'chalar chorrahada kesishgan, tarxi to'g'ri to'rtburchakli shahar qiyofasiga kiradi. Taxmin bo'yicha, bu an'anaviy sxema asosida koinot tuzilishi to'g'risidagi tushuncha bo'lib, uning ramziy modeli shahar tarxida ham mujassam bo'lgan. Bunday to'g'ri to'rtburchak shaklli shaharlar o'rta asrlarda juda ko'p bo'lgan. O'zbekistonda Shahrisabz shahridan tashqari, Buxoro, Xiva shaharlari, xorijda Hirot va boshqa shaharlar misol bo'la oladi.

XIV asrda Shahrisabz tomonlarining uzunligi 770x1730 m, qo'rg'on devorlarining perimetri 5 km masofani tashkil etgan. Chorrahada hozirdagidek bozor joylashgan edi. Janubdan shimolga bosh ko'cha o'tib, u janubdag'i Charmgar darvozasi bilan shimoldagi Ark (yoki Kitob) darvozasini shaharning o'rtasidan to'g'ri o'tib birlashtirgan. Ko'chaning shimaliy bo'lagi esa katta burchak ostida yo'nalib shahar devorining o'rtasidan chetga taqalgan edi. G'arbdagi Qorixona darvozasidan sharqdagi Kunchiqar darvozasiga qarab ketgan to'g'ri ko'cha vaqt o'tishi bilan ko'p tirsakli shaklga ega bo'lib qolgan. Asosiy ko'chalar chorrahasi **Chorsu** binosi bilan belgilangan. Shaharning shimoli-g'arbiy choragida Amir Temur ulkan inshoot — Oq saroy qurdirgan edi. Uning oldida Registon maydoni bo'lgan. Abdullaxon davrida ham bu yerlarda ark bo'lgan edi. Shaharning janubiy yarmida Dorus-Saodat va Dorut-Tilovat majmualari barpo etilgan.


Toshkent shaharida XIV asr oxiri — XV asrga kelib uning qo'rg'on devori ta'mirlanadi. Shahar ichida va atrofida monumental inshootlar quriladi, arxitekturaviy majmualar paydo bo'ladi. Zangi ota qishlog'idagi Zangi ota va Ambar bibi maqbaralari, Ko'kcha mavzusidagi Zaynuddin buva maqbarasi, Chorsudagi Xo'ja Ahror madrasasi (saqlanmagan) va Jome (Matjome) masjidi, Pushti hammom, Shayxontaxur-

dagi Shayx Xovand Taxur maqbarasi va Yunusxon xonaqohi shular jumlasidandir. Ularda va XVI asrda barpo bo'lgan Toshkent inshootlar bezagida, xususan, Chorsudagi Ko'kaldosh madrasasida, Hazrati Imomdag'i Qaffol Shoshiy maqbarasida va Baroqxon madrasasida, Qoratoshdagi hammomda (poydevori saqlangan) rangdor koshinlar qo'llanilgan.


XV—XVI asrlardagi binolar negizida shaharning funksional va kompozitsion — badiiy yaxlitligini ta'minlovchi Hazrati Imom, Chorsu, Shayxontaxur, Zaynuddin buva, Zangi ota majmualari barpo bo'ldi.

O'rta Osiyoning o'rta asrlardagi shaharlarida jamoat maydonlari alohida mavqega ega bo'lgan, shahar manfaatiga doir turli maqsadlar bilan odamlar to'planadigan ochiq joy. Registonlar turli davrlarda va turli shaharlarda har xil ko'rinishlarga ega bo'lgan; maydonda aksari yirik-yirik jamoat binolari qurilgan; hovuz, daraxtlar bilan obodonlashtirilgan bo'lishi mumkin. Atamaning etimologiyasiga ko'ra, «Registon» — mayda tosh to'shalgan joy. Ular me'moriy jihatdan dastlab sodda bo'lgan. Ayni vaqtida ko'pchilik tomonidan toptalanadigan bu joy yozda tuprog'i o'ynab ketishiga, yog'ingarchiliklardagi botqoqlikka qarshi qum-tosh yotqizilganligi boshqa ochiq joylardan farqlanib turgan. Keyinchalik atrofida mahobatli jamoat binolar (jome masjidi, madrasa, devon kabilar) qurilib hashamatli ko'rinish olgan.

Registonlarning eng ulug'vori Samarqandagidir. Buxoro Registoni Arkning janubida joylashgan. X asrda bu maydonni hozirda saqlanmagan Somoniylar saroyi, devonxonalar qurshab olgan edi. XX asr boshiga kelib, tarxi ovalga yaqin bo'lgan bu maydon atrofida birqancha yirik binolar (ular ham bizgacha etib kelmagan) joylashgan edi. Shahrisabz Registoni Amir Temur qurdirgan Oq saroyning janubida bo'lgan, keyingi davrda ham Oq saroy tevaragida Ark joylashganligini nazarda tutsak, Shahrisabz Registonning tiynatini ma'muriy inshootlar belgilanganligi ravshan bo'ladi.




118-rasm. Panjakent shahar markazi.
V.L. Voronina rekonstruksiyasi (14-ad., 106-b.).



119-rasm. Xorazm. Belovul
karvon saroyi. X a.
(14-ad., 208-b.).




120-rasm. Marv sh.,
IX–XII a. Qadimgi
Marg'iyonadagi Antioxiya
o'rniida rivoj topgan
(14-ad., 203-b.).



121-rasm. Samarcand. Afrosiyob. X a. Shahristonning kengayishi shahar devorining birnecha bor ko'chilishida namoyon bo'lgan (14-ad., 202-b.).


122-rasm. Toshkent. Mingo'rik Afrosiyobi. Eng ilk o'rta asrdagi Toshkent shu yerda bo'lgan deb tahmin qilinadi (*muallif chizmasi).



123-rasm. Kanpirak devorlar: Shosh (Chirchiq vohasi) va Illoq (Ohangaron vohasi)ning muhofaza devorlari
(A. Muhammadjonov bo'icha)
(mualliflar chizmasi).




124-rasm. Hozirgi Toshkent hududidagi V-VIII asrlarga oid shahar va kentlar, arxeologik ma'lumotlar bo'yicha (muallif chizmasi).



125-rasm. Toshkent, VIII-XII a. Binkad sh., ichki rabod (Rabodi Dohil) shtrixli chiziqlar, tashqi rabod (Rabodi Horij) kvadratchalar bilan ko'rsatilgan. Ark (1) va Shahriston (2) M.Ye. Masson bo'yicha belgilangan. Registon (3) maydoni hozirgi Eski Jo'va bozori o'mida, namozgoh (4) Jar sport kompleksi o'znida bo'lgan (muallif chizmasi).



126-rasim. Toshkent. XIII–XVII a. I – Registon; II – turli asrlarga oid arklar (qal’alar) o’rninlari; qora to’rtburchaklar-chaqar (qo’rg’on)lar. Ichki shahar darvozalarini nomlari B.A.Bulatova, tashqi shahar darvozalarini nomlari Muhammad Solih bo’yicha olingan (mualliflar chizmasi).




127-rasm. Buxoro sh., shahriston aridan ajralgan xolda vujudga kelgan. IX asr o'ttasiidagi rabod devorlari tashqaridagi mozorlar o'rinnlari bilan belgilanadi deb tahmin qilinadi. XVI asrga kelib shahar g'rbdag'i Jo'ybor nisobiga kengaygan (14-ad., 203-b.).



128-rasm. Samarqand sh., Bolohisor –
Afrosiyob oldingi shahar o'rnidir.
Markazi – Chorsu binosi bilan
belgilangan. Yonida, XV asrda Registon
maydoni shakllangan. U XVII asrda
hozirgi xoliga kelgan (14-ad., 275-b.).



129-rasm. Shahrisabz sh.;
chorrahada Chorsu
joylashgan; Arkning asosiy
binosi – Oq saroy
(14-ad., 279-b.).



130-rasm. Marv sh., Abdullaxon qal'asi va Bayram
Alixon qal'asi (14-ad., 279-b.).

II.3. O'rta asrlardagi Hindiston


Hindistonda o'rta asrlarda ham qadimgi davrdek asosiy aholi manzilgohlari qishloq **gramalar** edi. Guptalar davlati (III–V asr) barbod bo'lgandan so'ng, kichik davlatlar vujudga keldi. Shaharlarda qal'a, qo'rg'on devor, xandaq bo'lgan. Turar uy, ibodatxona, bino, qishloq va shaharlarda hindlarning dunyo tuzilishi to'g'risidagi tasavvuri aks etgan. Bunday tushunchalar qurilish qo'llanmalarida, jumladan, kosmik diagrammalar – «**mandala**»larda ham o'z ifodasini topgan. Ikki xil mandalar mavjud: qadimgisi – mandala manduka va keyingisi, ikkinchisi – mandala paramashayika. Ikkinchisi yordamida bino eni «**mulasutra**» – modul tanlangan. Binolar kastalarga muvosiq barpo etilgan. Quyi kasta uchun faqat bir qavatlari uy qurilgan, g'isht yoki tosh ham ishlatilmagan – daraxt, bambuk, qamish, loy ishlatilgan.

«**Shilpashastra**» ham diqqatga sazovor. U qadimgi sanskrit tilidagi risola bo'lib, quruvchi, me'mor, rassom, hunarmandlar uchun qonunlardan iborat. Me'moriy bo'lim – «Manasara shilpashastra» deb nomlangan. Manasara bo'yicha, manzilgohlar vazifasi, aholi tarkibi va tarxi bilan farqlangan bo'lishi lozim. Madomiki, qishloqda savdogar va hunarmandlar ko'pchilikni tashkil etib, hokimning qarorgohi mavjud bo'lsa, qishloq shaharga yaqinlashgan va u **pura** – deb atalgan (131-rasm). Bo'limda sakkiz xildagi manzilgohlari sxemasi bayon etilgan. Undan ikkisi egri shaklli, biri yarim doira bo'lib, daryo qirg'oqlarida qurish uchun mo'ljallangan edi. Undan tashqari, sakkiz xildagi qo'rg'onli shaharlar va sakkiz xil qal'alar sxemalari ham keltirilgan. Mansara risolasi (XI–XII asr) Xarrappa va Mavri imperiyasi davrlaridagi qo'llanmaga va keyingi mil. av. III asrga oid «Artxashastra» ga tayanadi.


XIII–XV asrlarda Dehli sultanati davrida O'rta Osiyo, Eron arxitektura ta'sirida yangi turdag'i binolar vujudga keldi. Hind ibodatxonalarini hovlili, atrofi hujra yoki ustunli edi. Ularni masjidga aylantirish oson edi. Hokim qarorgohlari esa

o'z joylaridan tez-tez ko'chib turgan. Masalan, Dehlida XIII—XIV asrlarda qarorgohlar 5 marta joyini o'zgartirgan.

Hindiston janubida XIII asrda yangi ibodatxonalar qurish to'xtab qolgan. Ibodatxona komplekslari manzilgohlarning diniy va dunyoviy markazi edi. Yangi-yangi devorlar qurilgan sayin ibodatxona maydoni kengaya borgan. Darvozalar tepasiga avvalgidan balandroq va hashamatliroq qurilmalar paydo bo'ldi. Natijada o'rtasi pastqamroq bo'lgan me'moriy kompozitsiyalar vujudga keldi. Masalan, Madura diniy kompleksi (132-rasm).



131-rasm. Manzilgohlар схемалари, XI—XII асрларда битилган «Манасара» risolasi bo'yicha karmuka daryo bo'yida, qolganlari ochiq joyda tashkil etishga mo'ljallangan (6-ad., 197-b.).




132-rasm. Maduradagi diniy majmua. Darvoza — gapuramlarning hajmlari markazga — eng qadimgi qismiga yaqinlashgan sari kichiklashib boradi (6-ad., 198-b.).

II.4. O'rta asrlardagi Xitoy


Ilk O'rta asrlarda (I—VIII asr) mamlakat goh yaxlit, goh tarqoq bo'lib turgan. II—VI asrlarda Buzo (Buddha) dini yoyildi. U 504-yilda davlat diniga aylandi. VI asrda Shimoliy Xitoyda bu dinga oid 30 mingga yaqin rohibgoh (monastir)lar paydo bo'ldi. Ming yil davomida uch imperiya vujudga

keldi: Tan imperiyasi (VII–X asrlar), Sun imperiyasi (X–XIII asrlar) va Min imperiyasi (XIV–XVII asrlar).

Beytszin (Bejin-Pekin) shahari dastlab mil. av. 2-chi mingyillikda paydo bo'ldi. Mil. av. 1-chi mingyillikda bu shahar Chzi deb nomlanib o'sha davrdagi Yan podsholigining poytaxti edi. XIII asrda Xubilayxon uni mo'g'ul imperiyasining poytaxtiga aylantirdi. Xubilayxon buyrug'i bilan eski shahar buzildi. Yonida Xitoy uchun an'anaviy bo'lgan 6300x6300 m bo'lgan shahar qurdirdi. Bu Xonbaliqdir. Bejin (Pekin) shimoliy devoridan tashqarida hozir ham uning qoldiqlari bor. Xonbaliq XIII asrda (1368-yil) mustaqillikni qo'lga kiritib, Beypin (Osoyishta shimol) nomini oladi. 1421-yil Min imperiyasining poytaxtiga aylanib, Beytszin (Shimoliy poytaxt) nomini oladi.



133-rasm. Bejin (Pekin) sh. Ichki (1) va Tashqi (2) shaharlardan iborat. Yagona kompozitsion o'q – yo'l negizida tashkil bo'lgan. Tashqi shaharda yo'l boshlanishida chapda - Dehqonchilik ibodatxonasi, o'ngda - Samo (Osmon) ibodatxonasi qurilgan. Ichki shahar tarkibidagi Imperator shaharinining asosiy qismi Haram (Yopiq) shahar tashkil qiladi. Uning g'arbini erkin chizgili Bayxay suv havzalari egallagan (15-ad., 334-b.).



134-rasm. Bejin. Xaram shahar. Markaziy bino – Tay-xe-dyan saroyi (1). Ichki shaharga Tyan-an-min darvoza (2) orqali, Xaram shaharga U-min darvoza (3) orqali kiriladi. Shimoldagi May-shan tepaligi (4) alohida ihotalangan (15-ad., 336-b.).



135-rasm. Tyanszin sh. To'g'ri to'trbuchak shaklidagi o'rta asrlarda
barpo bo'lgan shahar Bayxe daryosi bo'yida, Szinan yo'lida barpo
bo'lgan. Shaharning kengayishi nomuntazam ravishda daryoning ikkala
tomonida ham sodir bo'lgan (6-ad., 212-b.).



136-rasm. Shanxay sh. Dastlabki manzilgoh nomuntazam tarxli edi. Mil.
III a. shahar maqomini olgan; shaharning keyingi davridagi ko'cha-
larining yo'naliishiga Xuangu daryosi, tepalik va qadimgi manzilgoh ta'sir
etgan (6-ad., 211-b.).

II.5. O'rta asrlardagi G'arbiy Yevropa

Inqiroz tufayli qadimgi Rim imperiyasi parchalanib ketdi. Sharqi Rim imperiyasi – Vizantiya XV asrda tanazzulga uchragunga qadar o'rta asrlarda qudratli, yaxlit davlat sifatida hayot kechirdi. Undan farqli o'laroq G'arbiy Yevropaning asosiy qismini tashkil qilgan G'arbiy Rim imperiyasi o'rta asrlarda zaif davlat sifatida hayot kechirdi. U bir-biri bilan bog'liqligi kam bo'lgan, mayda-mayda hududlardan iborat edi. Merovinglar va Karolinglar davri bo'lgan VI–IX asrlarda qurilishlar juda sodda, kam edi. Oldingi, yuksak Rim me'morligi va shaharsozlik an'analari unut bo'lgandi. Ahvol Romanika (X–XI asrlar) davrida birmuncha yaxshilandi. Qadimgi Rimniki bilan kam bog'liq bo'lgan yangicha me'morlik va shaharsozlik vujudga keldi. Bu jarayonda rohibgoh (monastr)larning ahamiyati katta edi. Keyingi Gotika (XII–XV asrlar) davrida shaharlarning mavqeysi juda yuqori bo'ldi.

Shaharlarning hayotida hunarmandlarning uyushmalari-kasabalar muhum rol o'ynadi. Monastrlar rohiblar jamoasining ibodat va maishiy hayoti uchun eng zarur barcha binolar majmuasidan iborat topgan. Bunga **Sent-Gallen** rohibgohi (IX asr) misol bo'la oladi (138-rasm). Unda lotin salbi ko'rinishidagi tarxli cherkov binosi ajralib turgan. Cherkovning g'arbiy tomonida ikki minorasimon qurilma asosiy tarzni belgilab turgan. Cherkov yonidagi hovli – **kluatr** rohibgohning o'rtasini egallagan edi. Kluatrning tomonlarida yotoqxonalar va yemakxonalar (oshxona) bo'lgan. Bulardan tashqari, rohibgohda mакtab, musofirxona, shifoxona, mозор, bir qancha xo'jalik binolari, hunarmandlarning uylari, tomorqalar bo'lgan.

Zamindor (feodal)lar o'zlariga qarorgoh sifatida **pfaleslar** qurishgan. VIII asrda Buyuk Karl saroy majmuasiga aylan-tirgan **Axeн** pfalesi hududini asosiy ikki: saroy va kapella – oilaviy cherkov binolari egallagan (137-rasm). Ularning oraliqlarida ikki hovli mavjud bo'lgan. Binolarni uzun yo'lak (galereya) birlashtirgan edi.

Shaharlarning vujudga kelishida aksari dastlabki tayanch imorat majmualari katta rol o'ynagan. Aholi punkti bunday tayanch imorat majmulariga nisbatan qanday joyda kengayganiga qarab shaharlarning shakllanishida ikki usulni ajratish mumkin. Birinchi usul bo'yicha tayanch imoratlar majmuasi o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi. Aholi majmua atrofiga joylashib boradi. Fransiyadagi **Mon Sen-Mishel** shahri tog' tepasidagi abbatlik (rohibgoh) atrofida vujudga kelgan (139-rasm).

Ikkinci usul bo'yicha, tayanch imoratlar majmuasini vaqt o'tishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotadi. Aholi uning yoniga, birmuncha uzoqlikda joylashib boradi. Polshadagi **Nova Ves** shahri tepalikda qaror topgan feodalning qarorgohi – **zamok**, yonida vujudga kelgan (140—141-rasmlar).

O'rta asrlarda aholi joylarining mudosaasi (qo'rg'on me'morligi)ga alohida e'tibor berilgan. Feodallarning zamoklari qamalga uzoq vaqt dosh bera oladigan tarzda barpo etilar edi. Zamoklarning tarkibida alohida minorasimon qismi – **donjon** bo'lib, zamokning boshqa qismi dushman qo'lliga o'tgan taqdirda ham, uning ichida yana ancha vaqt davomida himoya-chilarga jon saqlash imkoniyatini bergen. Zamoklarning atrofii aksari xandaq (suvli zovur) bilan o'rahib zamokni tashqi dunyo bilan faqat ko'tarma ko'prik bog'lab turgan.

Muhofazasi juda mustahkam bo'lgan shaharlar qatoriga Fransiyadagi **Karkasson** (142-rasm) kiradi. Uning Yuqori shahari ikki qator qo'rg'on devorlar bilan o'ralgan edi. Asosiy qal'asi-zamokdan tashqari uning g'arbida aylana tarxli qurilma (bar-bakan) bo'lgan. Od daryosining chap qirg'og'idagi Quyi shahar muntazam tarh bilan rejalangan edi.

G'arbiy Yevropaning o'rta asrlaridagi shaharlarida jamoat markazlarining ikki – diniy va dunyoviy xillari boshqa xillarga qaraganda ustuvor bo'lgan. Bu hol XIII asrning oxirida Fransiyaning janubida muntazam reja asosida qirol tomonidan barpo bo'lgan **Monpaz'**ye shahrida (144-rasm), ayniqsa, ravshan ko'zga tashlanadi. Burchaklari va uzun tomonlari burj-

lar bilan mustahkamlangan to'g'ri to'rtburchak tarxli bu shaharlarning o'tasida ikki maydon joylashgan. Bir maydonda sobor qurilgan, ikkinchi maydon tomonlari esa do'konlar bilan qurshab olingan edi.


Shaharlarning dunyoviy markazlari – **ratushalar** o'zlarida nafaqat savdo-sotiq, balki ma'muriyat funksiyalarini ham mujassam etgan. Maysen (Olmoniya) shahrining markazi (bozor) maydoni trapetsiya shakliga ega. Atrofidagi binolar (ratusha, cherkov, turar uylar) qiyofalari bir-birlariga hamo-hang ravishda bo'lib, yaxlit fazoviy muhitni tashkil qilgan. Oderning chap irmog'i Neyse qirg'og'ida qurilgan Xerlis shahrining asosiy maydoni Quyi bozor hisoblangan. Katta trappersiya tarxli maydon o'tada qolib ketgan turar uylar bloki tufayli ikkiga bo'lingan. Asosiy qismini qiyofasini ratusha binosi, ravokdor galereya va favvora belgilaydi. Elbaning chap qirg'og'ida qurilgan Pirna shahrining bozor maydoni to'rtburchak shaklga yaqin (146-rasm). O'rtada ratusha binoasi joylashgan. Pirnaning tarxiy rejasida shaharlarga talaygina muxtoriyat bergen Magdeburg huquqi berilgan imtiyozlar majmuasi bo'lgan.

Florensiya shahrining (Italiya) dunyoviy markazi – Sin'oriya maydonida burchakda me'mor Arnolfo di Kambino qurgan Vekkio *palassosi* joylashgan. U ratusha vazifasini o'tagan. Palossoning minorasida dastlab qo'ng'iroq bo'lib u orqali zarur paytlarda shaharlarni maydonga chorlagan. Maydon qiyofasini *lojiya* (ravoqli ayvon) jonlantirib turadi. Me'mor Arnolfo di Kambio qurilajak shaharlar hududlarini mutonasib ravishda taqsimlash bo'yicha ham izlanishlar olib borgan.

Parij shahri XI asrda tarqoq hududlardan iborat bo'lган. Shaharning markazi qismi – Site oroli ikkiga bo'linib, biri qিrol tasarrufida, ikkinchi Notr-Dam sobori joylashgan qis-mida ruhoniyilar tasarrufida bo'lган. Orolning o'tasidan o't-gan Sen-Jak va Sen-Martin ko'chalari shaharning bosh ko'-chasini belgilab turgan. XII–XIII asrlar oralig'ida Filipp-

Avgust tomonidan qurilgan devor dastlabki shahar devori bo'lgan.


G'arbiy Yevropa o'rta asrlardagi shaharlarning asosiy strukturasi va Uyg'onish keyingi Barokko davrlardagi shaharlarning negizini tashkil qildi.




137-rasm. Axen. Qadimgi Rim manzilgohi Akvigranum franklar imperatori Karl tomonidan qarorgohga — pfalesga aylantirilgan; saroy (1) va kapella (2) oralig'ida ikki hovli (4 va 5) hamda yo'lak — galereya (3) joylashgan (6-ad., 148-b.).



138-rasm. Sankt-Gallen rohibgohi (monastiri); 820-y. holati rekonstruksiyasi; qurilmalar oralidan cherkov (1) ajralib turgan (6-ad., 148-b.).




139-rasm. Mon-Sen-Mishel shahar — abbatligi. Yuqoridagi cherkov shpili tog' cho'qqisiday his etiladi (6-ad., 150-b.).



140-rasm. Feodal zamogi oldida manzilgoh paydo bo'lishini ko'rsatuvchi sxemalar (6-ad., 152-b.).

141-rasm. Polsha.
Nova Ves shahari —
zamok oldida paydo
bo'lgan shahar
misoli
(6-ad., 153-b.).







142-rasm. Karkasson qal'a – shahari. XII–XIII a. Od daryoning o'ng tomonidagi Yuqori shahar va chap tomonidagi Quyi shahardan iborat (6-ad., 151-b.).




143-rasm. Karkasson. Yuqori shahar. Tepalikda zamok-qal'a (1) qurilgan. G'arbdagi alohida joylashgan burj – barbakan bilan bog'langan. Manzilgoh bilan birgalikda ikki qator devor bilan o'rалган (6-ad., 151-b.).



144-rasm. Fransiya Monpaz'ye sh.; muntazam tarhga ega.
O'rtada sobor va bozor maydonlari ajralib turadi
(6-ad., 163-b.).



145-rasm. Olmoniya.Pirna sh., Elba daryosi bo'yida Zoinenshteyn zamogi (5) yonida vujudga kelgan. Sobor (1) va bozor (2) maydonlari o'rtada joylashgan (6-ad., 161-b.).



146-rasm. Pirna shaharining bozori maydoni. O'rtani ratusha — hokimiyat binosi egallagan. Chizmada maydon tomonlarining yoymalari berilgan (6-ad., 161-b.).



147-rasm. Rotveyl sh., shaharning asosiy ko'chalar yo'nalishi nafaqat funksional, balki ramziy (diniy) ahamiyatga ham ega bo'lgan (6-ad., 168-b.).



148-rasm. Drezden sh., V. Rauda bo'yicha. Shaharning tuzilishida qadimgi Quddusga o'xshatishga harakat qilinganligini sezish mumkin (6-ad., 168-b.).



149-rasm. Quddus shaharining XII asrdagi tasviri (6-ad., 168-b.).



150-rasm. Parij sh., XIV a. (Filipp Avgust davri), 1 — sobor; 2 — Sent Shapel; 5 — Sen — Jak ko'chasi; 6 — Sen — Martin ko'chasi. Luvr saroyi (4) shahar devoridan tashqarida joylashgan (6-ad., 165-b.).

II.6. Vizantiya, Kiyev davlati va Rossiyaning knyazliklari

Vizantiya (IV–XV a.) shaharsozligi Qadimgi Rim shaharsozligini davom etdirdi va boshqa mamlakatlar, ayniqsa, Kiyev davlati va Rossiya knyazliklari shaharsozligida o‘ziga xos, chuqur iz qoldirdi.

Vizantiya V asrda ikki: Illirik (Bolqon yarimoroli) va Sharq qismlaridan iborat bo'lgan. Mamlakatning dastlabki davrlarida antik davrdan meros bo'lgan 1000 ga yaqin shahlar saqlanib qolgan edi. Ularda aksari o'n minglab aholi yashagan. Davlatning gullab-yashnagan, ilk bosqichida, ayniqsa, Yustinian davrida qo'rg'on me'morchiligiga katta e'tibor berilgan. Bu imperatorning farmoniga ko'ra har manzilgoh o'z qo'rg'oni bilan yoki oldidagi biror soqchi manzilgoh bilan muhofazalangan bo'lishi lozim edi.

Mil. av. 660-yilda yunonlar Bosforaning Marmara deniziga chiqish joyida **Vizantiy** shahrini barpo etgan edilar. Davlatning nomi bu shahar nomidan kelib chiqqan. Rim imperiyasining so'nggi davrlarida (324-yilda) «Yangi Rim» barpo etildi. Keyinchalik bu poytaxtning asoschisi bo'lgan imperator ismini olib «Konstantinopol» deyila boshlandi. Shahar Rimga o'xshab yetti tepalikda joylashgan. Maydoni jihatidan Rimdan ancha katta. Konstantinopol hududi Feodosiy II (V asr I-yarmi) davridan g'arbga qarab kengaya bordi. V asr 2-yarmida butun shahar devor bilan qurshab olindi. Qo'rg'on devorda jami 400 burj bo'lgan. Oltin darvozadan boshlanadigan o'rta ko'chada bir qancha forum bo'lgan. Mesa ko'chasi Amastrid forumida shaharning shimaliy, Andrianopol darvozasidan boshlanadigan ikkinchi muhim ko'cha bilan uchrashgan. Eng katta forum Feodosiy forumi bo'lib, uning markazida Qadimgi Misrning Geliopol shahridan olib keligan *obelisk* o'rnatilgan. Asosiy forum Avgustion forumi edi. Unda Milliy (ustun) o'rnatilgan edi. Qadimgi Rimda masofalar ushbu Milliydan hisoblangan. Avgustionga Katta imperator saroyi va Avliyo Sofiya ibodatxonasini tutash bo'lgan. X-XI asrlarda Konstantinopol o'rta asrlarga xos bo'lgan ko'p markazli tizimga ega bo'la boshladi. Shahar ichida turli mamlakatlardan kelgan aholi mavzelari paydo bo'ldi. Masalan, Pera va G'alata. Konstantinopol hududi 14 tumanga bo'lingan edi. Tumanlar regionarxlar tomonidan boshqarilgan. Tumanlar o'z navbatida jami 322 getariy (kvartal)ga bo'lingan edi.

Konstantinopol bilan birga bir qancha boshqa shaharlар ham rivoj topdi. Ular qatorida Suriyadagi Oront daryo yoqasidagi Antioxiya shahri ham bor. Bu shahardan Eron, Hindiston va Xitoyga boriladigan yo'l o'tgan edi.

VII–VIII asrlarda Vizantiya kuchsizlangan davrda shaharlар aholisi nufuzi keskin kamaydi. Ba'zi shaharlarning aholisi tarqab ketdi yoki Efes va Korinf shaharlari aholisiga o'xshab xavfsizroq, boshqa joyga ko'chib ketdi. Shaharlarda tashqi qo'rg'onlar devorlaridan bo'lak, alohida «*kastron*» (qal'a)lar barpo etildi. Ayni vaqtida shaharlarda dehqonlar nufuzi oshdi, qishloqlar ko'paydi.

Vizantiya shaharsozligi bu hududdagi keyingi davr shaharlarga birinchi navbatda Sharqiy Yevropada o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Dastlabki manzilgohlar neolit va eneolit (mil. av. IV–III mingyilliklar) davrlarida paydo bo'ldi. Karpat tog'lari bilan Dnepr oraliqlarida qaror topgan Tripoli madaniyatiga oid manzilgohlar doira shakllarida bo'lgan. Yarimyerto'la shaklidagi turar uylar doiraning chetlarida joylashgan. O'rtadagi bo'sh joy esa yig'inlar, g'aramxonalar va qo'ton vazifasini bajar-gan. Mil. av. II mingyillikda birinj davrining rivoj topgan pallasi bo'lib, saxalib (slavyan)larining ajdodlari (praslavyan)-lar qishloqsimon, devor bilan o'ralmagan manzilgohlarda istiqomat etishgan. Dneprdagi Pustinka *selo* (qishlog')si oldida vujudga kelgan manzilgoh betartib joylashgan yarimyerto'la turar uylardan iborat. Ularning oralig'ida muqaddas joylar — chayla shaklidagi ibodatxonalar bo'lgan deb taxmin qilinadi.

Taxminan, mil. av. I mingyillikning birinchi yarmidan (mil. av. VII asrdan) temir davri qaror topadi. Aynan shu davrda Yevropada iqlim o'zgarishi natijasida xavo sovuqlashadi. Buning oqibatida qit'aning shimolida o'rmonlar paydo bo'ladi. Mil. av. IX–VIII asrlarda manzilgohlar muhofazali qilib qurila boshlanadi. Chamasi, bu zamonalarda saxalib ajdodlari janubiy chegaralarda bir qancha kilometrlarga cho'zilgan «Ilon izi to'siqlar» («Zmievye vali») barpo etildi.

Mil. av. I mingyillik o'rtalarida ko'plab muhofazalangan qabila — urug' manzilgohlari paydo bo'lgan. Smolensk yaqinidagi **Tushemlya** (156-rasm) nomli bunday manzilgoh tepalikda joylashgan bo'lib, bir tomonida besh qator devor mavjud bo'lgan.

Mil. av. I—V asrlarda ilk saxaliblarning manzilgohlari aksari daryo bir-bir yarim kilometrga cho'zilgan ochiq qishloqlardan iborat bo'lgan. Diniy markazi va mozori ularga yaqin joylarda vujudga kelgan. Mil. av. I mingyillikning 2-yarmida g'arbiy va sharqiyy saxaliblar o'zaro bog'lana bordi. O'z yetakchi (knyaz)lari boshchiligidan alohida, mustaqil qabilalar ittifoqlari paydo bo'ldi. Bunday ittifoqlar eni 40–60 km ga cho'zilgan hududni egallagan. Hududning bosh manzilgohi — «**grad**»da majlis (veche), ibodat, savdo-sotiq qilingan, sud o'tkazilgan. Markaziy manzilgohlar bilan bir qatorda muhofazalangan urug' manzilgohlari ham bo'lgan. Bularidan tashqari, tepaliklardagi sanamlar o'rnatilib atrofi devor bilan o'ralgan diniy manzilgohlar barpo etilgan. Ularda qurbanliklar keltirishgan, marosimlar o'tkazishgan.

Davlatchilik shakllanmasdan oldingi davr uchun xarakterli manzilgohlardan Ekimausk, Raykovets va boshqalarni keltirish joiz.

Ekimausk (157-rasm) Dnestrda IX—XI asrlarga oid shaharcha bo'lib atrofi nafaqat yog'och va tuproqli devor bilan, balki xandaq bilan ham o'ralgan edi. Shaharcha o'rtasida hovuz bo'lgan.

Saxaliblarning ibridoiy shaharchalari aksari ikki daryoning qo'shilish joyida, yarim orolda, orolda va hatto botqoqlikda yer to'la, ayrim hollarda yerustki qurilma tariqasida bo'lgan. Ular urug' uchun mo'ljallangan kompakt uylar guruhni yoki yaxlit tom ostidagi ketma-ket bloklangan uylardan tashkil topgan. Bunday shaharchalar aksari atigi bir darvozali bo'lgan, ularda me'moriy jihatdan yaqqol ko'zga tashlanadigan markaz yo'q edi.

Qadimgi saxaliblarning manzilgohlar qurish an'analari keyingi Kiyev davlati shaharsozligiga ta'sir etdi.

Sharqiy Yevropada VIII–IX asrda Vizantiya orqali nasoriy (xristian) dini keng tarqala boshlandi. Daryo bo'ylarida Kiyev, Chernigov, Polotsk, Novgorod kabi shaharlar vujudga keldi. Aksari shaharlar *detinets* (qal'a) va *posad* (shaharning asosiy qismi)dan iborat bo'lgan. Savdo-sotiq markazi «*torg*» deb atalgan.

Kiyev shahari Qora dengizni Boltiq dengizi bilan birlash-tiruvchi «varyaglardan greklargacha» bo'lgan suv yo'lida, Dnepr qirg'og'ida vujudga keldi. Dastlab milodiy I-ming yillikning o'rtalaridayoq bu yerda bir necha saxalib qaror-gohlari mavjud bo'lgan. Ular arxeologik qoldiqlarga: III–IV asrlarda zarb etilgan Rim tangalari, VI–VIII asrlarga oid Turon va Eronda yasalgan turli buyumlarga ko'ra xalqaro savdo-sotiqqa jalb etilgan edi. Afsonalarga ko'ra Kiyev, Shek va Xoriv ismili aka-ukalar bu joylarda uch shaharcha qurishgan. Katta akaning shaharchasi – Kiyev bo'lib, u taxminlarga ko'ra V asr oxirida barpo etilgan va keyinchalik – IX asrdan poytaxt shaharga aylandi. Shahar polyan qabilasi yerlarida vujudga kelgan. U boshqa – severyan, drevlyan kabi qabilalar bilan ittifoq tuzgan. Ittifoqqa ros qabilasi ham kirgan. Ros qabilasi shu nomdagi cho'l chegarasidan oqib o'tadigan daryo vohasida istiqomat qilishgan edi. Tahminlarga ko'ra qabila nomi «Rus erlari» iborasiga sababchi bo'lgan.

Qadimgi Kiyevning rivojlanishida asosan uch davrdagi shaharlarni ajratish mumkin: eng qadimgi shahar (IX–X a.), Vladimir shahari (X asr oxiri – XI asr boshi), Yaroslav shahari (XI–XII a.).

Eng qadimgi shahar Ko'hna Kiyev tog'ida, Dneprdan 113 m balandlikda joylashgan edi. Maydoni kichik – 0,7 ga bo'lgan. Shaharni g'arbdan afsonaviy og'a-inilarning singlisi Libed nomi bilan atalgan Dnepr irmog'i muhofaza qilgan. Shaharni chor tomonida o'tilishi juda qiyin bo'lgan o'rmonlar o'sgan. *Grad* (shahar)ning o'rtaida sanamlar o'rnatilgan ibodatgoh va knyaginiya (ayol knyaz) Olga *teremi* (saroy)i bo'lgan.

Knyaz Vladimir taxt egallagandan so'ng, yog'ochdan ma'bud Perun va boshqa ma'budlar haykallarini o'rnatdi.

Keyin, nasoriy dinini qabul qilgandan so'ng toshdan ishlangan Disyatinnaya cherkovini qurdirdi. Uning oldida shaharning bosh maydoni bo'lgan. Vladimir shahrining maydoni 10 hektar joyni egallagan edi.

Yaroslov shahri Vladimir shahrining janubida bo'lib, 70 hektar erda joylashgan edi. 1037 yilda yangi shahar o'rtaida 13 gumbazlik Sofiya sobori qurildi. Bosh – Oltin darvozadan shaharning asosiy ko'chasi Sofiya soboriga va undan keyin *detinets* (qal'a)ga olib borgan. Shaharning pastki qismi – *podolda* ham oddiy fuqarolar hunarmand va savdogorlar yashashgan. Keyinchalik podvolda ko'plab diniy majmualar vujudga keldi.

Qadimgi Novgorod shahari Volxov daryosi bo'yida qurildi. Novgorod shahri aholisi turli elatlardan tashkil topgan shahar sifatida vujudga keldi. Volxovning bevosita daryosi bo'yida Detines joylashgan edi. Uning ichida Sofiya sobori qurildi. Volxovning tomonlari – «storona» deb atalgan. Detines joylashgan daryoning chap qirg'og'i Sofiyskaya storona deb nomlangan. Savdo markazi – Torg joylashgan Volxovning o'ng tomoni – «Torgovaya storona» deb nomlangan. Shahar aholisi istiqomat qilgan joylar o'ziga xos qismlar (*kones*) larga ajralgan, masalan, Gorcharniy kones, Plotnitsskiy kones va boshqalar. Shahar tarxida ko'chalar asosan daryoga perpendikulyar ekanligi ko'zga tashlanadi. Bu xol Volxovning Novgorod uchun qanday katta ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ko'rsatadi.


Pskov shahri Velikaya daryosiga uning irmog'i Pskova qo'shilayotgan oraliq joyda, asosan XII asrda vujudga keldi. Shu tariqa shahar *detinetsi* – Krom suv bilan ikki tomonidan muhofazasi ta'minlandi. Kromga dastlab – XIII asrda janubdan Dovmont shahari biriktirildi. Keyingi, XIV–XV asrlarda ham janubi-sharq tomonidan kengayish davom etdi. Torg maydoni barpo bo'ldi. Shahar aholisi istiqomat qiladigan qismi – *posad* Ko'hna devororti, Yangi devororti, Tevarak shahar (Okolniy gorod) hisobiga kengaydi. Tevarak shaharining qo'rg'on devori Pskovaortini ham qamrab olgan edi.

Novgorod kabi Pskov shahri ham koneslarga bo'lingan edi. Pskovda olti kones bo'lib, har biri o'zining bosh ibodatxonasi va ma'muriyati (*veche*)ga ega bo'lgan.


Moskva shahri sołnomada qal'a sifatida birinchi bor 1147-yilda zikr etilgan. Vladimir knyazligining chekkasi hisoblangan. Moskva daryosiga uning irmog'i Neglinnaya quyladigan joyda Bor (Borovitsskoe) tepaligida paydo bo'ldi. Cherkovi yog'ochdan edi. Maydoni (posadsiz) 1 ga atrofida bo'lgan. 1156-yilda Yurii Dolgorukiy farmoniga ko'ra shahar kengaytirildi. Maydoni 10 ga bo'ldi. Moskvaning bunday ikki qismiligi Kiyevdag'i Vladimir va Yaroslav shaharlaridan tashkil topganligini eslatadi. XIV asrdagi yong'indan keyin yog'och qo'rg'on devorlari o'rniga oq toshdan yangi chidamli devor qurildi. XV asrga kelib radial ko'chalar tizimi asosan shakllanib bo'ldi. Shahar tevaragida o'ndan ortiq qo'riqchilar vazifasini o'tagan rohibgoh (monastir)lar halqasi vujud-ga keldi. Shaharning tez rivojlanib ketishiga Moskva knyazlarining kuchayishi sabab bo'lgan edi.



151-rasm. Konstantinopol sh., VI a.; Konstantin devori punktir bilan ko'rsatilgan. Feodosiy davrida shahar kengaygan (6-ad., 136-b.).




152-rasm. Konstantinopolning Oltin darvozasi rekonstruksiyasi
(6-ad., 137-b.).



153-rasm. Konstantinopol shaharining markazi (6-ad., 139-b.).




154-rasm. Konstantinopolning XIV asrdagi holati (6-ad., 143-b.).



155-rasm. Pustinka selosi oldidagi manzilgoh, mil. av. XV–XII a., tarh (6-ad., 215-b.).




156-rasm. Tushemlya manzilgohi, devor rekonstruksiyasi, mil.
av. I mingyillik o'qtasi (6-ad., 216-b.).




157-rasm. Ekimautsk manzilgohi, IX–XI a., G. Fyodorov
va G. Shchukin rekonstruksiyasi chizmasi (6-ad., 218-b.).




158-rasm. Kiyev sh., X-XI a., shimolda — Vladimir shahari (10 ga). ichida — Desyatinnaya cherkovi (4); janubda — Yaroslav shahari (70 ga), o'rtasida Sofiya sobori (12); atrofida pastlik — Podol bo'lgan (6-ad., 223-b.).




159-rasm. Mamlakat shaharlaring ierarxiyasi — mavqe darajasi:
1 — Kiyev; 2 — Pereyaslavl; 3 — Ovruch; 4 — Chernigov; 5 — Lukomlya; 6 — Vshchija (6-ad., 222-b.).




160-rasm. Novgorod sh., XV a., Volxovning chap tomoni – Sofiya tarifi; o'ng tomoni – Torg tarifi (6-ad., 232-b.).



161-rasm. Pskov sh., XV a., qal'a – Krom ikki daryo: Pskova va Volxov tutashgan joyida vujudga kelgan; shahar asosan shimoli – sharq tomonga qarab kengaygan (6-ad., 235-b.).



162-rasm. Moskva sh., XV a., shahar qal'asi – Kreml; Neglinkaning Moskva daryosiga qo'shilishida vujudga kelgan; shimoli – sharqida asosan aholi joylashgan – Kitay gorod; atrofidagi mavzelar daryolarning nomlariga nisbat qilib atalgan (6-ad., 247-b.).



163-rasm. Moskva sh., Kreml., Sobor maydonining dastlabki ko'rinishi (6-ad., 246-b.).

III. XVI—XVII ASRLAR SHAHARSOZLIGI

Yevropa mamlakatlarida, xususan, Fransiyada o'rta asr uslubiyati-gotika davom etayotgan XV asrning boshlaridan e'tiboran boshqa Yevropa mamlakatida-Italiya me'morligida yangi uslubiyat qaror topa boshladi. Inson ruhiyatiga asoslangan o'rta asr uslubiyatidan farqli o'laroq yangi uslubiyat insonning ruhiy va jismoniy jihatlarining birligiga, ya'ni o'tgan antik davrdagi g'oyalarga asoslangan edi. Uzoq o'tmishda qolib ketgan uslubiyat XV—XVII asrlardagi yangi, gumanistik g'oyalarni ifoda etishga qo'l keldi. Shunga ko'ra, yangi uslubiyat Uyg'onish (o'rta asrchilik uyqusidan uyg'onish) nomini olgan.

Uyg'onish madaniyati antik madaniyatni o'ziga namuna qilib oldi, uni har taraflama o'rgandi, unga taqlid qildi.

Uyg'onish davrida ko'proq me'morchilik rivoj topdi. qator yutuqlarga ega bo'lindi. Shaharsozlikdagi yutuq, asosan nazariya bilan cheklandi. Italiyada keyingi barokko uslubiyati qaror topganda yutuqlar, aksincha, ko'proq shaharsozlikka tegishli bo'ldi. Italiyada vujudga kelgan Uyg'onish va barokko uslublari boshqa Yevropa mamlakatlariha ham yoyildi. Davlat miqiyosdagi g'oyalalar asosida Fransiyada vujudga kelgan klassitsizm uslubi oldingi ikki uslublar yutug'ini o'ziga singdirib olgan bo'lsada, yirik saroy majmularida, shaharlarning eng ahamiyatli qismlari bo'lmish maydonlarda, ulkan xiyobnlarda namoyon bo'ldi. Klassitsizm shaharsozligi tamoyillari, asosan Fransiyada shakllanib boshqa Yevropa mamlakatlariha ham, xususan, Rusyaning XVIII va XIX asrlar shaharsozligiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

III.1. Yaqin va O'rta Sharqning XVI–XVII asrlardagi shaharsozligi

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida XVI–XVII asrlarda muayyan iqtisodiy – siyosiy, madaniy va boshqa omillarga ko'ra, shaharlar xilma-xil bo'lgan. Ularning umumiy jihatlarini hozir yetarli darajada o'rganilmaganligi vajidan yaqqol ko'rsatish birmuncha qiyin. Ayni vaqtida e'tirof etish mumkinki, bu davrdagi mintaqaga shaharsozligiga oldingi, ilk o'rta asrlardagi shaharsozlik ta'sir ko'rsatgan.

Yaman poytaxti **Sanan**ing qadimgi davrda vujudga kelgan Eski shahari sharqidagi qal'a va g'arbidagi asosiy shahar qismidan iborat. Qal'ada bir vaqtlar afsonaviy qasri bo'lgan edi. Eski shaharga XVI–XVII asrlarda barpo bo'lgan yangi-Bog' shahar tutashgan. Yangi shaharning bir qismi butun shahar kabi alohida qo'rg'on devor bilan o'ralgan.

Mag'rib mamlakatlaridan bo'l mish Marokash poytaxti-**Rabot** shahari Atlantika okeani bo'yida bino bo'ldi. Shahar XII asr o'rtaida xalifa Abdal-Mo'min tarafidan qurdirilgan. Maydoni 5,5 ga bo'lgan Rabot al-Fath (hozirgi Udayya qasabasi)dan boshlangan. XII asrning oxiriga kelib, xalifa Mansur shahar hududini 419 gektarga yetkazdi. Rabotning qo'rg'on devorlari (XII, XVII va XVIII asrlarda qurilgan) shaharni g'arb va janub tarafidan himoya qilib turgan. Shimol tarafidan okean, sharq tarafidan daryo muhofoza qilgan. Shaharda besh darvoza («bob») bo'lgan.

Usmonli turklar davlatini birinchi poytaxti **Bursa** edi. Uning g'arbiy qismida qo'rg'on devor bilan o'ralgan qal'a-hisor mavjud. Hisordan sharqda savdo-sotiq hududi joylashgan. Hududda jomelar, hammomlar, xon (savdo bino)lari boziston (tim)lar kabi inshootlar paydo bo'lgan. Ayrim taxminlarga ko'ra, Bursa atrofini o'zluksiz o'rab turgan devor bo'l magan. Faqat hisor va shaharning ayrim joylari qo'rg'on devorlarga ega edi.


Istambul (Konstantinopol) shahari XV–XVII asrlarda maydoni jihatidan ko'pda kengaygan emas. Tarhi, asosan avvalgi rejaviy tizimdan iborat edi. Ushbu o'zak shahar atrofida XV asr o'rtaida Rumeli hisor, Anadoli hisor, Edi qal'a (Edi-Kule) kabilar qisqa-qisqa muddatlarda barpo bo'lgan. XVI–XIX asrlar davomida To'p qapu saroy majmuasi shakllandi. Majmua, asosan uch hovli va haramdan tashkil topgan. Majmuada devonlar (eski va yangi binolari), shifoxona, kutubxona, masjid, xazinaxona kabi binolar mavjud.

Eronning XVI–XVII asrlar shaharsozligida **Isfahon** shahari alohida o'rinni egaylaydi. Uning eng rivoj topgan davri Safoviylar sulolasidan bo'lgan shoh Abbos I davriga to'g'ri keldi. Shahar aholisi o'sha davrda oldindagiga qaraganda ikki barobar o'sdi va 600 ming kishiga yetdi. Shaharda ko'plab mahobatli binolar paydo bo'ldi. Uning janubiy qismi deyarlik tubdan qayta tashkil etildi. Markazda Maydoni shoh majmuasi qurildi. Maydon katta (510×165 m) o'lchamlarda bo'lib, to'rt tarasidan do'konlar bilan o'ralsan edi. Maydondan shimolda Bozori qadim yaqinida savdo-sotiq va boshqa maqsadlarda foydalilaniladigan binolar (karvon saroylar, timlar, hammomlar, masjidlar kabilar) bir-biriga tutashib ketgan edi. Maydon janubida Masjidi shoh, sharqida Lutfulla masjidlari mavjud. G'arbiy tarafda Ali Kanu saroy majmualari joylashgan. Uning o'rtaida Chiheli sutun saroyi qurilgan. Saroy atrofida ko'plab muntazam tarxli bog'lar tuzilgan edi. Bosh xiyobon «Chorbog» nomi bilan atalgan.


Umuman olganda miqyos, hasham jihatlari bo'yicha Isfahondagi shaharsozlik ishlari o'sha davrdagi G'arbiy Yevropada bajarilayotgan ishlarga o'xshab ketadi. Biroq bu amallar G'arbiy Yevropaga nisbatan qadimgi an'analar bilan mustah-kamroq bog'langan edi.




164-rasm. Yaman. Sana shahari., Eski shahar va g'arbiy darvoza oldidagi bog' – shahardan iborat (14-ad., 50-b.).




165-rasm. Eron. Mashhad sh., Imom Rizo majmuasi:
 1 – Eski hovli; 2 – Alisher Novoyi ayvoni; 3 – Yangi hovli;
 4 – qabr; 5 – Gavharshod masjidi; 6 – madrasa;
 7 – karvon saroy (14-ad., 167-b.).



166-rasm. Eron. Isfahon sh. Markaz – Ko'hnha maydon Abbas I (XVI a.) davrida janubga ko'chirilgan – Maydoni shoh; uning va xiyobon (Chorbog') ralig'ida saroy majmuasi barpo bo'lgan (14-ad., 170-b.).



167-rasm. Isfahon sh., Maydoni shoh., shimolda – bozor, janubda – Shoh masjidi joylashgan (14-ad., 171-b.).



168-rasm. Buxoro sh., Labi hovuz me'moriy ansamblı, XVI–XVII a., Ko'kaldosh va Nodir Devonbegining qurilmalari (hovuz, honaqoh, madrasa) dan tashqari ansambliga Ernazar elchi majmuasi (XIX a.) ham kirgan (14-ad., 234-b.).

III.2. Markaziy Osiyoning XVI–XVII asrlardagi shaharsozligi

XVII asrga kelib **Buxoro** tarixiy shahar sifatida, asosan shakllanib bo'ldi. XVI asrda Juybor shayxlariga tegishli bo'l-gan shaharning janubi-g'arbidagi hudud ham qo'rg'on devor bilan o'ralib, shahar tarkibiga kiritiladi. Bu bilan shaharning so'nggi, eng kengaygan holatdagi ko'rinishini oldi. Shaharda o'n bir darvoza bo'lgan. Ulardan biri — Shayx Jalol darvozasi nisbatan yaxshi saqlanib qolgan. Shahar tarxida uning oldingi tizimi o'z izini qoldirgan. Buxoroning tarixiy qiyofasini qiyofasini ko'p jihatidan bir qancha shahar ichidagi va tashqaridagi majmualar belgilaydi.

Buxoro markazi yaxlit, ulkan majmua ko'rinishiga ega. U asosan, ilk o'rta asrlardagi shahristonning g'arbiy va janubiy ko'chalarini egallagan. Markaz g'arb tarafidan Poyi Kalon majmuasidan boshlangan. Toqi zargaron chorsusi shahristonning markazini ifodalaydi. Undan sharqda, ko'chaning ikki tarafidan Ulug'bek va Abdulazizzon madrasalari o'rinn olgan. Zargarlar chorsusining janubida Abdullaxon timi joylashgan. XX ast boshlarida bu yerlarda karvonsaroylar va do'konlar bir-birlariga tutashtib, zich turishgan edi. Ular bizgacha yetib kelmagan. Shahristonni ilk o'rta asrlardagi darvoza, keyinchalik darvoza o'mida hosil bo'lgan nursimon ko'chalar tugunini Toqi telpakfurushon mustahkamlaydi.


Zargarlar chorsusini chorrahani shaharsozlik jihatidan mustahkamlash masalasini hal etgan bo'lsa, Telpakfurushlar toqisida ancha murakkab muammo — olti ko'cha tarqatadigan bino barpo etilgan. Telpakfurushlar toqidan shimolda Sarrofon hammomi mavjud. Uning tarxida murakkab shaharsozlik holati aks etgan.

Buxoro shaharining markazi tarkibidagi majmualardan tashqari o'rta asrlarda shahar ichida Labi hovuz va Qo'sh madrasa majmualari ham shakllangan.


Labi hovuz majmuasida sakkiz qirralik hovuz atrofida Ko'kaldosh madrasasi va qo'sh tizimida xonaqoh va madrasa joylashgan.

Samarqand hisorining geometrik markazida uning jamoat markazi — Registon maydoni vujudga kelgan. Maydonning hayotida ikki: Ulug'bek (XV a.) va Yalangto'sh Bahodir (XVII a.) davrlaridagi holatlarni ajratish joiz. Registonning XV asrdagi qiyofasi «Boburnoma»da bayon etilgan. O'sha vaqtida maydonni uch tomondan Ulug'bek inshootlari: g'arbdacha madrasa, uning qarshisida maydon o'tib qurilgan xonaqoh va shimolda karvon saroy qurshab turgan edi. Bulardan tashqari, maydonning janubiy tarafida Ko'kaldosh va Muqatta masjidlari qurilgan edi. Mazkur tarafda Ulug'bekning yana bir qurilmasi — Mirzoi hammomi ham bo'lgan. «Boburnoma» quyidagilarni ma'lum qiladi: «Ulug'bek Mirzoning imoratlaridin Samarqand qal'asining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gumbazi bisyor ulug' gumbazdur, olamda oncha ulug' gumbaz yo'q deb nishon berurlar. Yana ushbu madrasa va xonaqohga yovuq bir yaxshi hammom solibdur. Mirzo hammomiga mashhurdir, har nav' toshlardin farshlar qilibdur. Xuroson va Samarqandta oncha hammom ma'lum emaskim, bo'lgay. Yana bu madrasaning janubida bir masjid solibtur, masjidi Muqatta' derlar. Bu jihattin Muqatta' derlarkim, qit'a-qit'a yirochlarni tarosh qilib, islimiy va xitoiy naqshlar solibturlar, tamom devorlari va saxfi ushbu yusunluqtur. Bu masjidning qiblesi bila madrasa qiblasining orasida bisyor tasfovuttur. G'olibo bu masjid qiblasining samti munajjim tariixi bila amal qilibturlar». Maydondan shimoli-sharqda, shaharning asosiy ko'chalari taraladigan nuqtada Qo'loxfurushlar timi bo'lgan edi.


XVII asrda Registonda qayta qurish ishlari olib borildi. O'sha davrda Ulug'bek inshootlaridan faqat madrasagini qoldi. Xonaqoh o'rniда Sher dor madrasasi, karvonsaroy o'rniда Tillakori jome madrasasi barpo bo'ldi. Qo'loxfurushlar timi joyida keyinchalik Chorsu binosi qurildi.




169-rasm. Samarqand sh., Registon maydoni: 1 – Ulug'bek madrasasi, XV a.; 2 – Sherdor madrasasi, XVII a.; 3 – Tillakoriy madrasasi, XVII a.; 4 – Chorsu, XVIII a. (14-ad., 329-b.).



170-rasm. Samarqand sh., Registon maydoni, tepada – bo'ylama qirqim, pastda – ko'ndalang qirqim (14-ad., 328-b.).



171-rasm. Toshkent sh. Chorsu majmuasi, XX a. o'rtasidagi holati;
g'arbda – Ko'kaldosh madrasasi, sharqda – Xo'ja Ahror Valiy
qurilmalari – jome (qayta qurilgan) va madrasa (saqlanmagan);
shimoliy – sharqiy chekkada – Gulbozor mahalla masjidi
(*muallif chizmasi).



172-rasm. Toshkent sh., Zangi ota majmuasi.
XV–XX asr boshi, o'rtadagi hovlida maqbara,
madrasa, namozgoh minora jamlangan; shimoliy
– sharqda – Ambar bibi maqbarasi; janubda –
kiraverish xiyoboni (*muallif chizmasi).


III.3. Hindistonning XVI—XVII asrlardagi shaharsozligi

Boburiylar imperiyasi XVI—XVIII asrlarda Shimoliy va Markaziy Hindistonda tashkil topdi. Katta ahamiyatga ega bo'lgan Dehli, Agra, Fatixpur-Sikri va Laxor kabi shaharlar bunyod etildi.


Dehli shahri dastlab Indrapraxstra nomi bilan taxminan mil. av. 2-chi mingyillikdan mavjud bo'lgan. Ganganing tar-mog'i Jampaning o'ng qirg'og'ida, Aravali tepaliklarning pastida, xushmanzarali joyda, 736-yilda o'sha qadimgi manzil-goh yonida Dxillika qurildi. Dehli sultanati davrida ketma-ket bir necha shaharning o'zagi (yadroshi) qarorgohlari qurildi. Ular: La'l-Kot, Siri, Jahonpanoh, Tug'lukobod, Feruz-oboddir. Ulardan 20 km narida Boburiylar davrida (XVII asr) Jahonobod bunyod etildi; XX asr boshlarida Yangi Dehli qurildi.

La'l-Kotdagagi Quvvatul islom masjidi (XII asr) Hindistondagi dastlabki masjiddir. U Hind qal'asi ichida qurilgan. Minorasi — Qutb minor (XII asr) dastlab o'n bo'g'inli, keyin 5 bo'g'inli bo'lgan. Minora Qutbiddin Oybekning Hind rojputining ustidan qilgan g'alabasi nishonasi sifatida qurilgan, balandligi 72,5 m, pastdagi diametri 16 m, tepada diametri 3 m ni tashkil qilgan. XIV sar boshida uning yaqinida yana minora qurila boshladi, lekin tugatilmadi.

Dastlabki Hindistondagi maqbara Eltutmish (XIV asr boshi) maqbarasidir. Sirida Alavuddin qurdirgan katta saroyi (1000 ustunli) va katta hovuzi bo'lgan. La'l-Kot va Siri oraliq'ida Jahonpanoh (XIV asr) tuzildi. Keyingi qarorgoh To'g'-likobodning qal'asi Odiloboddir. 5-chi qarorgoh-shahar — Feruzobod (XIV asr oxiri) Jamna qirg'og'ida joylashdi. Ulardan faqat qal'a-saroy Kotlagina saqlangan. U Agra, Fatixpur-Sikri, keyingi Dehli qal'a-saroylar uchun namuna bo'ldi. Muntazam tarxli, hovli va bog'larni o'zaro bog'lagan kompleks edi. O'rta da deyarlik 10 ming kishi sig'adigan masjid



171-rasm. Toshkent sh. Chorsu majmuasi, XX a. o'rtasidagi holati; g'arbda – Ko'kaldosh madrasasi, sharqda – Xo'ja Ahror Valiy qurilmalari – jome (qayta qurilgan) va madrasa (saqlanmagan); shimoliy – sharqiy chekkada – Gulbozor mahalla masjidi (*muallif chizmasi).



172-rasm. Toshkent sh., Zangi ota majmuasi. XV–XX asr boshi, o'rtadagi hovlida maqbara, madrasa, namozgoh minora jamlangan; shimoliy – sharqda – Ambar bibi maqbarasi; janubda – kiraverish xiyoboni (*muallif chizmasi).

III.3. Hindistonning XVI—XVII asrlardagi shaharsozligi

Boburiylar imperiyasi XVI—XVIII asrlarda Shimoliy va Markaziy Hindistonda tashkil topdi. Katta ahamiyatga ega bo'lgan Dehli, Agra, Fatixpur-Sikri va Laxor kabi shaharlar bunyod etildi.

Dehli shahri dastlab Indrapraxstra nomi bilan taxminan mil. av. 2-chi mingyillikdan mavjud bo'lgan. Ganganing tar-mog'i Jampaning o'ng qirg'og'ida, Aravali tepaliklarning pastida, xushmanzarali joyda, 736-yilda o'sha qadimgi manzil-goh yonida Dxillika qurildi. Dehli sultanati davrida ketma-kebet bir necha shaharning o'zagi (yadrozi) qarorgohlari qurildi. Ular: La'l-Kot, Siri, Jahonpanoh, Tug'lukobod, Feruz-oboddir. Ulardan 20 km narida Boburiylar davrida (XVII asr) Jahonobod bunyod etildi; XX asr boshlarida Yangi Dehli qurildi.

La'l-Kotdag'i Quvvatul islam masjidi (XII asr) Hindistondagi dastlabki masjiddir. U Hind qal'asi ichida qurilgan. Minorasi — Qutb minor (XII asr) dastlab o'n bo'g'inli, keyin 5 bo'g'inli bo'lgan. Minora Qutbiddin Oybekning Hind rojputining ustidan qilgan g'alabasi nishonasi sifatida qurilgan, balandligi 72,5 m, pastdagi diametri 16 m, tepada dia-metri 3 m ni tashkil qilgan. XIV sar boshida uning yaqinida yana minora qurila boshladi, lekin tugatilmadi.

Dastlabki Hindistondagi maqbara Eltutmish (XIV asr boshi) maqbarasidir. Sirida Alavuddin qurdirgan katta saroyi (1000 ustunli) va katta hovuzi bo'lgan. La'l-Kot va Siri oraliq'ida Jahonpanoh (XIV asr) tuzildi. Keyingi qarorgoh To'g'-likobodning qal'asi Odiloboddir. 5-chi qarorgoh-shahar — Feruzobod (XIV asr oxiri) Jamna qirg'og'ida joylashdi. Ular-dan faqat qal'a-saroy Kotlagina saqlangan. U Agra, Fatixpur-Sikri, keyingi Dehli qal'a-saroylar uchun namuna bo'ldi. Muntazam tarxli, hovli va bog'larni o'zaro bog'lagan kompleks edi. O'rta da deyarlik 10 ming kishi sig'adigan masjid

bo'lgan. Dehlini 1398-yilda Temur, 1525 yilda Bobur fatx etdi. Boburning qarorgohi Agra edi. O'g'li Humoyun Dehlida yana bir shahar – Dinpanoh barpo qildirdi. Biroq qurilish oxirigacha yetkaza olinmadi. Shoh Akbar davrida (1556–1605-yil) Panjob, Gujorot, Kashmir, Sind, Orissa va boshqa viloyatlar fatx etilib, keng shaharsozlik ishlari olib borildi. Qizil qumtosh va oq marmardan bunday yirik ansamblar qurilishini bir asr keyin Fransiyadagi ishlar bilangina taqqos qilsa bo'ladi. Akbar Fatxpur-Sikri, Ollohobod, Laxorda saroy – qal'alar qurdirdi. Asosiy qarorgohi Agra bo'ldi. Dehlida biron yirik narsa qurdirmadi. XVII asr o'rtaasida Feruzoboddan shimolda Dehlidagi so'ngi qarorgoh – Shohjahonobod qurildi. U «Manasara» risolasidagi «karmuka» ni eslatadi. Jamna qirg'og'idagi La'l qal'a (Qizil fort) ga tutash bo'lgan. O'Ichamlari, taxminan, 1000x500 m. Undagi saroy Rang mahal nomlidir. G'arb darvozasi Laxorga, janubdagisi Dehliga olib borgan. La'l qal'a qarshisida katta masjid qurilgan.

Agra shahri Jamna daryosining bosh savdo yo'li bo'yida qurilgan. Qal'a chap qirg'og'ida XV asrda qurildi. O'ng qirg'oqda esa avval ham shahar bor edi. XVI asrda uni Bobur o'z qarorgohiga aylantirdi. Akbar davrida qayta qurdirilib, u La'l qal'a nomini oldi. Dehli va Amar Singx darvozalari bor. Akbar va Shohjahon Agraning asosiy qurilishini olib borishgan. Shohjahon 1632–1654-yillar davomida jahon shoh asarlidan bo'lmish Toj mahal maqbarasini qurdiradi. Platformasi 104x104x7 m, bo'lib, minorasining balandligi – 43 m ni tashkil etadi. Sarv daraxtlari qatori maqbarani qurshab olgan. Agradagi boshqa inshootlardan Marvarid va Jome masjidlarini ajratish joizdir.


Sikandrada Akbar o'ziga maqbara qurdira boshlangan, uni o'g'li Jahongir tugatdi.

Fatxpur-Sikri (ma'nosi – «g'alaba shahri») 1569-yilda Akbar o'g'li Jahongir tug'ilishi munosabati bilan barpo bo'lidi. Bu yerda 1527-yilda bobosi Bobur Sikri qishlog'i rojput begi (knyazi) Rana Sanga ustidan qilgan g'alabasi sharafiga qurildi. Qurilish 10 yil davom etdi. Keyinchalik Akbar va

poytaxtning aholisi Laxorga ko'chdilar. Fatxpur-Sikrining jome masjidi hovlisi 135x110 m o'lchamlarga ega. Darvozasi juda baland bo'lib, vertikal kompozitsion urg'u vazifasini o'taydi. Shaharda Salim Chishtiy va Islomxon maqbaralari ham mavjud. Asosiy qurilmalar geometrik jihatdan bog'langan (to'g'ri va teskari nisbatlar orqali).

Laxor shahari Panjobning markazidir. U Ravi daryosi yaqinida 1570-yilda qal'a (fort) tariqasida qurildi. Ichida saroy masjid, maqbara va bog'lar mavjud. Majmua Agra va Fatxpur-Sikri ansambligariga monanddir.

XVIII asr boshlarida Boburiylar davlati tanazzulga uch-raydi. Shimoliy Hindiston markazi Rojputanada uning maharojlari muntazam asosga ega bo'lgan shaharlar qurishdi. 1728-yilda poytaxt **Joypur** barpo etildi. U muntazam tarxlidir. V asr Hind poytaxti Ayodxiyaga o'xshash qilindi. Asosiy ko'cha g'arbdan sharqqa ketgan ko'cha bo'ldi. Aholi kastalar bo'yicha joylashtirildi. Joypur o'rta asr Hind shaharsozligining yakunidir.



173-rasm. Hindiston. Dehli sh., XII–XX a. 1 — yarmidagi shahar hududlari: 1 — La'l Kot; 2 — Siri; 3 — Jahonpanoh; 4 — Tug'ilqobod; 5 — Odilobod; 6 — Kotla; 7 — Shohjahonobod; 8 — qal'a — Qizil fort; 9 — Yangi Dehli (6-ad., 201-b.).

bo'lgan. Dehlini 1398-yilda Temur, 1525 yilda Bobur fatx etdi. Boburning qarorgohi Agra edi. O'g'li Humoyun Dehlida yana bir shahar — Dinpanoh barpo qildirdi. Biroq qurilish oxirigacha yetkaza olinmadi. Shoh Akbar davrida (1556–1605-yil) Panjob, Gujorot, Kashmir, Sind, Orissa va boshqa viloyatlar fatx etilib, keng shaharsozlik ishlari olib borildi. Qizil qumtosh va oq marmardan bunday yirik ansambllar qurilishini bir asr keyin Fransiyadagi ishlar bilangina taqqos qilsa bo'ladi. Akbar Fatxpur-Sikri, Ollohobod, Laxorda saroy — qal'alar qurdirdi. Asosiy qarorgohi Agra bo'ldi. Dehlida biron yirik narsa qurdirmadi. XVII asr o'tasida Feruzoboddan shimolda Dehlidagi so'ngi qarorgoh — Shohjahonobod qurildi. U «Manasara» risolasidagi «karmuka» ni eslatadi. Jamna qirg'og'idagi La'l qal'a (Qizil fort) ga tutash bo'lgan. O'lchamlari, taxminan, 1000x500 m. Undagi saroy Rang mahal nomlidir. G'arb darvozasi Laxorga, janubdagisi Dehliga olib borgan. La'l qal'a qarshisida katta masjid qurilgan.

Agra shahri Jamna daryosining bosh savdo yo'li bo'yida qurilgan. Qal'a chap qirg'og'ida XV asrda qurildi. O'ng qirg'og'da esa avval ham shahar bor edi. XVI asrda uni Bobur o'z qarorgohiga aylantirdi. Akbar davrida qayta qurdirilib, u La'l qal'a nominni oldi. Dehli va Amar Singx darvozalari bor. Akbar va Shohjahon Agraning asosiy qurilishini olib borishgan. Shohjahon 1632–1654-yillar davomida jahon shoh asarlidan bo'lmish Toj mahal maqbarasini qurdiradi. Platformasi 104x104x7 m, bo'lib, minorasining balandligi — 43 m ni tashkil etadi. Sarv daraxtlari qatori maqbarani qurshab olgan. Agradagi boshqa inshootlardan Marvarid va Jome masjidlarini ajratish joizdir.


Sikandrada Akbar o'ziga maqbara qurdira boshlangan, uni o'g'li Jahongir tugatdi.

Fatxpur-Sikri (ma'nosi — «g'alaba shahri») 1569-yilda Akbar o'g'li Jahongir tug'ilishi munosabati bilan barpo bo'ldi. Bu yerda 1527-yilda bobosi Bobur Sikri qishlog'i rojput begi (knyazi) Rana Sanga ustidan qilgan g'alabasi sharafiga qurildi. Qurilish 10 yil davom etdi. Keyinchalik Akbar va


poytaxtning aholisi Laxorga ko'chdilar. Fatxpur-Sikrining jome masjidi hovlisi 135x110 m o'lchamlarga ega. Darvozasi juda baland bo'lib, vertikal kompozitsion urg'u vazifasini o'taydi. Shaharda Salim Chishtiy va Islomxon maqbaralari ham mavjud. Asosiy qurilmalar geometrik jihatdan bog'langan (to'g'ri va teskari nisbatlar orqali).

Laxor shahari Panjobning markazidir. U Ravi daryosi yaqinida 1570-yilda qal'a (fort) tariqasida qurildi. Ichida saroy masjid, maqbara va bog'lar mavjud. Majmua Agra va Fatxpur-Sikri ansambllariga monanddir.


XVIII asr boshlarida Boburiylar davlati tanazzulga uch-raydi. Shimoliy Hindiston markazi Rojputanada uning maharoljari muntazam asosga ega bo'lgan shaharlar qurishdi. 1728-yilda poytaxt Joypur barpo etildi. U muntazam tarxlidir. V asr Hind poytaxti Ayodxiyaga o'xshash qilindi. Asosiy ko'cha g'arbdan sharqqa ketgan ko'cha bo'ldi. Aholi kastalar bo'yicha joylashtirildi. Joypur o'rta asr Hind shaharsozligining yakunidir.



173-rasm. Hindiston. Dehli sh., XII—XX a. 1 — yarmidagi shahar hududlari: 1 — La'l Kot; 2 — Siri; 3 — Jahonpanoh; 4 — Tug'luqobod; 5 — Odilobod; 6 — Kotla; 7 — Shohjahonobod; 8 — qal'a — Qizil fort; 9 — Yangi Dehli (6-ad., 201-b.).




174-rasm. Dehli sh., La'l Kot, Quvvatul Islom majmuasi
(6-ad., 205-b.).



175-rasm. Dehli sh.
Shoxjanobod qal'asi —
Qizil fort; qal'aning
kompozitsion negizini
Laxor darvozasi (1) —
Devorni Omm (7)
yo'nalishi tashkil qiladi;
shimolda chor — bog'lar
joylashgan (6-ad., 201-b.)

176-rasm. Hindiston, Agra
shahari qal'asi — Qizil fort;
Gangning bosh irmog'i
Jamna bo'yida tashkil
topgan; XVI asrning
2-yarmi, qora rang bilan
Akbarshoh, shtrixlar bilan
Shohjahon qurdirgan
binolar ajratilgan
(6-ad., 203-b.).





177- rasm. Agra sh., Toj Mahal majmuasi. XVII a., Shohjaxon o'z rafiqasi uchun qurdirgan; majmuuaning o'rtasida — chorborg' tashkil etilgan (15-ad., 317-b.).

III.4. Italiyaning Uyg'onish va Barokko davridagi shaharsozligi

Italiya Uyg'onish davridagi shaharsozlik bo'yicha izlanishlar, yangi g'oyalar «ideal shahar» (g'oyaviy shahar) loyi-halarida o'z aksini topgan. Bu qurishga mo'ljallanmagan konkret shahar emas, balki shahar konsepsiyasidir. Binolar shahar asosan rejalanib bo'lingandan keyin qurilishi kerak deb hisoblanar edi. Shaharga turli: iqtisodiy, gigienik, mudofaa va estetik nuqtai nazarlardan yondoshishgan.

«Ideal shahar»larda antropoformizm, ya'ni inson jussasi bilan qiyoslash mavjud bo'lgan. Masalan, Martini «ideal shahar»ning tarxida odam gavdasining surati joylashtirilgan. Boshda — qal'a, ko'krakda-bazilikda chizilgan. Kataneo «ideal shahar»ining qal'asida quloch yoygan odam tasvir etilgan. Bular antropoformizmning deduktiv ko'rinishi: katta odam shaklidan shaharning kichik elementlariga o'tiladi. Boshqa, induktiv ko'rinishida: odamning real o'lchamlaridan shahar hajmlariga o'tish namoyon bo'ladi.

Antik davr nazariyotchisi Vitruviy «Arxitektura xususida 10 kitob» nomli asar yaratgan. Uni gumanist Brachchiolini Sant Gallen abbatligidan topgan. Uyg'onish arxitektorlari ning fikricha, Vitruviyning eng asosiy hissasi Yunon va Rim shaharsozliklarni birlashtirishga harakat qilganidan iborat.

Shaharsozlik nazariyasining *ikki* davri bor.

1-davr XV asr 2-yarmi — XVI asr boshiga to'g'ri keladi. Unda shaharlarning optimal, tabiiy hamda sanitariyagigienik shartlari to'g'risida izlanishlar bo'lgan (Alberti, Filarete, Leonardo da Vinchi).

2-davr XVI asr 2-yarmiga to'g'ri kelib, unda shaharning mudofaa qurilmalari, savdo va boshqarish binolari to'g'risida izlanishlar olib borilgan (Kataneo, Vazari, Skomatstsi).

Badiiy jihatlar esa ikkala davrda ham ko'rilib edi.

Albertining «Arxitektura to'g'risida 10 kitob» asaridagi to'rt kitob shaharsozlikka taaluqlidir.

4-kitobda joy tanlash, shahar konfiguratsiyasi, shahar va dala yo'llari, daryo, kanal va ko'rfazlar to'g'risida gap yuri tiladi.

5-kitobda saroy, qal'a, sud mahkamalari, qamoqxona, dala joylar xususidagi fikrlar bayon etiladi.

8-kitobda jamoat binolari, ko'cha, maydon, ularning konfiguratsiyasi, binoning oldidagi joy bilan nisbatiga bag'ishlangan.

6-kitob «Bezak to'g'risida» deb nomlangan; unda estetika masalalari kompozitsiya nazariyasi deb ko'rib chiqilgan. Shu yerda Alberti bunday degan: «Go'zallik-hamma qismlar o'l-chamlarining o'zaro aniq uyg'unligidir. Bu shunday mutanosiblikki, qismlarga biror narsa qo'shilsa, olinsa yoxud ularni qo'zg'atilsa putur yetkazilgan bo'ladi».

Muhandis olim Antonio Averlino (Filarete) Milenda Sforsa gersogi xizmatida bo'lган. Shaharsozlikka bag'ishlangan «Sforsinda» traktatini yozgan. Filere bo'yicha Sforsinda — «Ideal shahar» tarxi 8 qirralik yulduzzan iborat. Yulduz tomonlari 3,5 km bo'lган ikki kvadratning 45° burchakda kesishishi natijasida hosil bo'ladi. Har qirrasida burj, har ichga kirgan joyida (cho'ntakda) darvoza, ko'chalar radial yo'nalishda o'tkazilgan. Markaz balandroq, u yerda maydon joylashgan. Maydon tomonlarida hokim saroyi, sobor (qisqa tomonida), sud mahkamasi, shahar mahkamasi (uzun tomonida) bor. Maydon o'rtasida suv havzasi shaharni suv bilan ta'minlaydi. Radial ko'chalarning aylanma ko'chalar bilan kesishgan joylarda kichikroq maydonlar bor, ulardan sakkiztasi savdo uchun, qolganlari mahalla markazlari va cherkovlar uchun ajratilgan.

Mutafakkir Leonardo da Vinci hayoti davomida Milandagi Lodoviko Sfortsa saroyida Vitruviy va Filarete asarlarini o'rgandi. Fortifikatsiya va gidrotexnika muammolari ustida ishladi. Milan va Florensiya shaharlari loyihalarni yaratdi. Florensiya kelajak shahari loyihasi ustida ishladi. Milanning eskiz rejasida suv taqsimotini yaxshilash hamda 5 ming oilani Lombardiyaning boshqa shaharlariga ko'chirishni taklif qildi.

Shaharning bosh binosini markaziy kompozitsiyali bino tarzida hal etadi. Florensiya bo'yicha Arno daryosi o'zanini to'g'rilash, shahar maydonini kengaytirish hamda shahar tarxini muntazam ko'pburchakli shaklga keltirishni taklif qiladi.

Florensiyada Leonardo da Vinci kelajak shahar loyihasini ip yigirish charxi tarzida taklif qiladi. Mahallalarda alohida hunarmandlar va savdogarlar istiqomat qiladigan qism-larga bo'linadi.

Leonardo da Vinci kelajak (futurologik) shaharlar loyihasida ikki sathi ajratiladi. Ular: pastki (ot-ulov va kanallar orqali yuk tashilib uylarning yerto'lalariga olib kelish) uchun va ustki (piyoda harakati uchun) sathlardir.

Andrea Palladio ham Uyg'onish davrining taniqli me'morlaridan biri. U «Arxitektura xususida» to'rt risolasida shahar katta bir uyning o'zginasi va aksincha, uy kichkinagini shashdir, deydi. Boshqa joyda «go'zallik-chirolyi shakl hamda butunning ushoqlariga, ushoqlarning o'zaro va ushoqlarning butuniga bo'lgan mutanosibligidir» degan. Palladio to'g'ri chiziqli ko'chalarni afzal ko'radi. Lekin unda Albertiga o'xshab egri ko'chalarning ham qadriga yetiladi. Turlilik va yangilik hammaga ham maqbul bo'lsa-da, hech qachon san'at qoidalariga hamda farosat aytib turgan narsalarga zid amal qilish kerak emas. Hamon boshqa san'atlar kabi arxitektura tabiatga taqlid qilar ekan, u o'zining biron-bir qismi tabiatga begona va xususiyatidan yiroq bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Palladio binolarni va maydonlarni proporsionallashtirish bo'yicha ishladi. Niyati, bularni shaharga ham tatbiq etish edi. Boshqacha qilib aytganda, u handasiy o'chovlarga bo'y-sunish lozim deb hisoblagan. Lekin Palladio asarlari ba'zi hollarda erkinlikka yo'l qo'yadi.

Serlino va Skamotstsi risolalarida (traktak)larida shahar-sozlik muammolari ko'tariladi.

Sebastiano Serlino traktatida arxitekturaviy perspektivalarga katta e'tibor berilgan. Tashqi fazo — makonni interyer va hovli bilan bog'lashga harakat qilinadi. Traktatning 9-bobi darvoza, peshtoq, deraza va eshiklarga bag'ishlangan.

Vichenso Skamotsii traktati (1615-yilda chop etilgan) «Universal arxitektura g'oyasi to'g'risida» degan nomda bitilgan. Uning ideal shahar tarxida 12 bastion, 4 darvoza bor, o'ttada — maydon. Uni saroy, sobor, sud binosi, bojxona, diniy boshqaruvin binosi va universitet tashkil qiladi. Atrofida yana 4 maydon, 8 prirod cherkovlari joylashgan.

Uyg'onish davridagi shaharlarda me'moriy ansambllar katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Florensiyada ikki markazi: Sobor va Sin'oriya maydonlari ajralib turadi. Boy oilalar monastir va cherkovlarda qurilishlar olib borishgan. Masalan, Madichilar San Larenso cherkovining qurilishida faol qatnashishgan.

Sobor maydonida Arnolfo di Kambio qurilish boshlanganda sobor shahar chetida edi. XV asrda shahar juda kengaydi. Brupelleski qo'rg'on gumbaz qizil cherepitsali edi. Uning balandligi fonussiz 91 m, fonusi bilan — 114 m, diametri 50 m atrofidadir. Maydondagi baptisteriy roman davrida, qo'ng'iroqxona gotik uslubda (XIV asr o'rtasida) qurilgan. Joto surati bo'yicha qurilgan.

Florensiyaning Annuniata (Tarbiya uyi) maydonida asosiy uslub (motiv) ravoqlarga asoslangan. Bino yaqin joydan ko'rishga mo'ljallangan. Yondosh binolar ham shunday ravodor bo'lishi taqozo etilgan. Tarbiya uyining qarshisida uning to'rt balandligidagi masofada (yoki ravoqlarning olti balandligi masofasida ravoqlari) shunga o'xshash galereya qurildi (me'mori Antonio da Sangallo Katta).

Anunsiata maydonining tashkil bo'lishida muhim shahar quyidagicha:

1419-1424-yillar — Bruppeleskoning Tarbiya uyi ustida ishlashi;

1425-1445-yillar — Tarbiya uyi qurilishining davomi etishi;

1518-yil — Antonio de Sangallo Katta Tarbiya uyi binosi qarshisida galereya qurishi;

1601-yil Santissima Annuniata cherkovining old tarzi Jovanni Kachini tomonidan qayta qurilishi hamda Pietro Takka haykaliy bezaklarni bajarishi.

Florensiyada Sobor, Sin'oriya maydonlari o'zaro bog'-langan. U bog'liqlikni Uffitsiy ko'chasi davom ettiradi.

Uffitsiy ko'chasi asosan Jorjo Vazari rejasi bo'yicha barpo bo'lgan. Uning «Buyuk rassom, haykaltarosh, me'morlar hayotining bayoni» nomli kitobi mashhurdir. Ko'cha Kozimo buyrug'i bilan mahkama, arxiv, kutubxona, san'at asarlari ning saqlash xonasi sifatida foydalanish uchun qurilgan binolardan tashkil topgan. Ko'chaning uzunligi 130 m, eni 18 m keladi.

Ko'cha orqali Kozimo saroyi bo'lmish Pitti palatssosini Ponte Vekkio (ko'prikdir galereya) va Ufftsiy galereyasi orqali qabulxona vazifasini o'tovchi Vekkio palatssosi bilan birlashtirildi.

Uyg'onish davri **Venetsiya** shaharining qiyofasida o'z aksini topdi. Qadimda shahar yumshoq tuproqli bo'lgan. Yerdan suv chiqaver gach kanallar qurildi. Shahardagi qirg'oqlar mustahkamlandi. Ikki asosiy orol Rialto va Olivalo Katta kanal bilan ajraladi. Jami shaharda 118 orol, 134 kanal, 30 ko'rik bo'lgan. Olivaloning sharqida arsenal joylashgan. Deyarlik har bir kvartalda monastir yoki cherkov, bir yoki bir qancha maydoncha (kampo)lar bo'lib, odatda, ularning o'rtaida quduq bor edi. Piyodalar yurishi uchun ko'chalar kam bo'lgan. Asosiy ko'cha Mercheriya deb nomlanib, u Avliyo Mark maydonini savdo markazi bilan bog'lagan edi. Zodagonlar saroylari, asosan Katta kanal bo'yida edi. Shaharda bir necha monastir, soborlar va 90 dan ortiq cherkov bor edi. XIII asrdan boshlab ko'plab maktab (skuola)lar paydo bo'ldi.

Venetsiyaning asosiy markazi Avliyo Mark maydonidir. Uning Uyg'onishgacha bo'lgan 3 davri mavjud:

1. X-XI asrlar; shahar Vizantiyadan mustaqillikka erishganda Avliyo Fyodor bazilikasi oldida Avliyo Mark bazilikasi, keyinroq Dojlar saroyi, qo'ng'iroqxona quriladi.

2. XII asr o'rtasi; ikki bazilika o'rnida Avliyo Mark sobori Pyaisetta maydonida ikki granit ustun, qo'ng'iroqxona tepasi quriladi.

3. XIII asr; yangi Dojlar saroyi quriladi.

Keyingi davr Uyg'onishga tegishlidir. U hozirgi qiyofasini belgilagan edi. Undagi qurilishlar hajman juda katta hamda me'moriy jihatdan oldingi davrlarga qaraganda muhimroq bo'lgan.

Uyg'onish davridagi Venetsiya markaziy maydonida olib borilgan ishlarni quyidagilar bilan tavsiflash mumkin:

XV asr oxirida qayta qurish rejalandi. Maydonda Katta va Kichik sovetlar, Senat hamda Dojlar palatssosi joylashgan edi. Hokimiyat xodimlari – arxivarius va proskurator (savdo va sud ishlaridagi ishonchli shaxs)lar uchun Avliyo Mark maydonining shimoliy tomonida uch qavatli bino qurildi (Ko'hna prosturatsiyi). Keyin minoraga tutash zarbxona, kutubxonani Yakopo Sonsovino, Yangi proskuratsiyani Vitsentso Skamotstsi qurdilar. Venetsiyaning markaziy maydoni ikki: Avliyo Mark va Pyatsetta maydonlaridan iborat. Pyatsetta Ko'hna proskuratsiyadagi soatli minoraga qaratilgan. Soat minorasining pastidagi darvoza Mercheriy ko'chasining boshlanishini belgilaydi.

Pyatsetta Avliyo Mark kanaliga pa San Jorjo Majore orolidagi monastiriga ochiladi, ular bilan o'zaro bog'lanadi.

Markaziy maydonning kompozitsiyasi o'tkir tiynatga ega.

Kalorit alohida ahamiyatlidir. Sobor tarzi turli rangda: marmar, tillarang mozaika bilan qoplangan. Dojlar saroyining galereyasi fil suyagi rangida, binosi pushti rangga ega. Qo'ng'iroqxonada qizil g'isht rang yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Tepasi mis bilan yopilgan bo'lib u sobor gumbaziga hamohangdir. Maydon sathi ham rang-barang gilamsimon ko'rinishga ega.

Rim shahari Uyg'onish davrida antik zamondagi mavqeini yo'qotib Italiyaning boshqa shaharlari qatoriga tushib qolgan edi. Rim-Papa viloyatining markazigina bo'lib, Venetsiya, Florensiya, Genuya, Milan kabi shaharlardan kichikroq shahar edi. Aholisi bir necha o'n ming kishi bo'lgan. Vaholanki, milod boshida aholi deyarlik million kishi edi.

«Abadiy shahar»ni, ya’ni Rimni grafik tarzda ideal modelini ishlab chiqishga harakatlar qilindi. Ularda shaharning markazi sifatida Kapitoliy maydoni ko’rsatilar edi.

Avliyo Pyotr sobori qurilishi ustidagi ishlar shaharning xayotida katta voqeа bo’ldi. Pirovard natijada sobor Mikelanjello loyihasi bo'yicha qurildi. Mikelanjello boshqa markaz – Kapitoliy maydonini ham barpo etdi. Shaharni arxitekturaviy jihatdan uyuştirishda Domeniko Fontana tomonidan qurilgan favvora, obelisk kabi inshootlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu davrda Rimda a Tibrning ikki tomonidagi Ripetta, Korsو, Babuino ko'chalari to'g'rilandi. Ko'cha to'g'rilashda uy egalari qarshilik ko'rsatsa, ma'muriy choralar ko'rilgan. Xatto qamoq jazosi ham qo'llanilgan. Rimning bo'm-bo'sh bo'lib yotgan sharqiy erlarga xonadonlarni ko'chib borilishi rag'batlantirilgan.

Papa Sikst V (1585–1590 y.) davrida Rim aholisi 100 mingga etdi. Shaharning janubiy va sharqiy qismlarini yana o'zlashtirish uchun D. Fontana taklif etildi. U yangi, Akva Feliche akvedukini qurdi. Avvalgilari tuzatildi. Nafaqat ichish uchun suv, balki xavza va favvoralar uchun ham suv etarli bo'ldi. Rimning shimolidagi Pyatstsa del Popolo maydonidan uch radial ko'chalar tarqalgan edi. U yerda Fontana qo'ydirgan obeliskalar ham bor. Ular Katta sirk vayronalaridan olinib muhim shaharsozlik nuqtalarga qo'yilgan edi. Fontana ko'chalarga faqat kammutkatsiya sifatida qaramay, ularning muhim badiiy – fazoviy jihatlarini ham ko'ra bilgan shaharsoz edi.

Uyg'onish g'oyalari barbod bo'lishining va ayni vaqtida barokko uslubiyatining dastlabki belgilari Mikelanjello ijodining keyingi, ikkinchi pallasidayoq paydo bo'ldi. Ilmiy kashfiyotlar (Galilyeo Gallileyning quyosh va sayyoralar inson maskani bo'lgan yer atrofida aylanmay, balki yer boshqa sayyoralar qatori quyosh atrofida aylanishini, Kolumbning Amerikani kashf etishi kabilar), siyosiy-iqtisodiy tanazulliklar (Italiyaning ko'p qismini ispanlar tomonidan bosib olinishi

va hokazo) Uyg'onish davridagi insonparvarlik (gumanistik) g'oyalarining yemirilishiga, barokko uslubiyatini qaror topishiga olib keldi. Bu omillar inson imkoniyati cheklanganligini, inson olamni tugal bila olmasligini, olam to'g'risidagi bilim o'zgaruvchanligini namayon etdi. O'zgarishlar me'morlikda ham sohaga xos ravishda o'z aksini topdi. Oldingi ravshanlik, aniqlik kabi sifatlar o'rnini dabdaba, mavhumlik egalladi. Arxitekturada Uyg'onish davrida hajm, turg'unlik (statika) yetakchilik qilgan bo'lsa, barokko davrida ulardan ko'ra fazo (fazoviy muhit), harakat (dinamika) ahamiyatlairoq bo'lib qoldi.

XVII asrda Italiyada maydon mavzusi asosiy arxitekturaviy mavzulardan biriga aylandi. Dastlabki barpo etilgan maydon Mikelanjelloning Kanitoliy maydoni edi. Rimda maydonlarning ko'pchiligini mayda cherkov maydonlari tashkil qilgan edi. Nemis tadqiqotchisi, me'mor Kamillo Zitts o'sha vaqtida Rimda 225 cherkov maydonlari mavjudligini qayd etgan. Bulardan tashqari, turli saroy majmularining maydonlari va ko'cha harakatini tartibga soluvchi maydonlari ham mavjud edi. Santa Mariya dellya Pache cherkovi oldidagi kichikkina trapetsiya shaklidagi maydoncha ochiq havodagi zal tariqasi tavqin etilgan. Unda maydoncha tomonlarini tashkil etuvchi devorlar pilyastr (devoriy ustun)lar bilan bezatilgan. Katta-kiechik maydonlarning ko'pligi XVIII asrda Nolli tomonidan chizilgan Rimning tarxida ham aks etdirilgan. Barokko davrida maydonlarni tashkil etishda ko'plab favvora va obelisklardan foydalanishgan.



Rimdag'i maydonsozlik bo'yicha ishlarning eng yirigi Avliyo Pyotr sobori oldida tuzilgan maydonda amalga oshirilgan. Mikelanjelloning sobori Bramante loyihasidagi kabi o'ta markaziy kompozitsiyada bo'lmasa-da, uning umumiy hajmi baribir markaziy ko'rinishga ega edi. Unda kiraverish tomonigina boshqa tomonlaridan biroz ajratilgan edi. Bu tomonga Moderna qo'rg'on qo'shimcha binoning bu kiravirish tarafini tamoman ajratib qo'ydi. Sobor oldidagi maydon-

ni Lorenzo Bernini tashkil etdi. Maydon o‘zaro tutashgan trapetsiya va oval shakklardagi qismlardan iborat. Maydon juda ulkan bo‘lib, umumiyligi o‘lchamlari hayratlanarlidir: oldidan soborgacha 255 metrni va eni (ovalning katta diametri)da 200 metrni tashkil etgan. Soborga bevosita tutashgan maydonning qismi trapetsiya shaklida ekanligi, bino oldidagi masofani yanada uzoqroq qilib ko‘rsatadi. Sobor o‘z oldidagi maydonni «quchoqlab» olganday bo‘lib tuyuladi. Maydonda to‘rt qatorli ustunlar-kolonada, obelisklar, favvoralar turli nuqtalardan har xil, takrorlanmas ko‘rinishlar hosil qiladi. Bularni tashkil etuvchi unsurlarning qiyoslanishi («masshtablar o‘yini») katta ahamiyatga ega. Keynichalik Karlo Fontana Sobor maydonini qayta qurish bo‘yicha loyiha ishlab chiqdi. Amalga oshirilmagan bu loyihada maydon oldiga yanada davom etdirilib, kirish qismi bilan maydonni chegaralab qo‘yish hamda Tibr daryosigacha bo‘lgan joyda, bir o‘qli ochiq oldmaydon (avanmaydon) barpo qilish taklif qilingan edi.




Rimda yana ikki majmua alohida e’tiborga loyiq. Shaharning shimoliy darvozasi oldidagi trapetsiya shaklidagi Popolo maydonidan shahar tomon nur kabi ketgan uch asosiy ko‘cha katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ko‘chalarning darvoza oldidagi boshlanish joylarida ikki bir xil ko‘rinishli cherkovlar qurilgan.

Ispaniya pillanoyasi majmuasining shakilanishi ikki yangi ko‘cha o‘tkazish jarayonida vujudga kelgan. Dastlab «Bar-kachcha» nomli favvora qurilgan edi. Undan 25 m balandlikdan o‘tkazilgan boshqa ko‘cha bilan bog‘lanish uchun XVIII asr boshida me’mor Sanktis rassom Spekki ishlagan rasmlardan foydalanib, hashamatli zina (pillanova) quradi.

Italiyaning barokko davridagi shaharsozligi yangi ko‘chalalar o‘tkazish, majmualar yaratish, maydonlar tashkil qilish bo‘yicha ancha yutuqlarga ega bo‘ldi. Yutulkardan keynichalik boshqa Yevropa mamlakatlarida ham foydalanildi.




178-rasm. XVI a. boshidagi risolada keltirilgan sxemalar; Vitruviy ta'riflagan sakkiz tomonlik shaharning to'rt tomonlik lager tipidagi Qadimgi Rim shahar sxemasi bilan birlashtirishga hamakat qilingan. Chapda: АС – kardo ko'chasi, ВД – Dekumanus Maksimus ko'chasi. O'ngda: 1 – 8 raqamlar Vitruviy bo'yicha shamollar (har biri o'z nomiga ega) yo'nalishlarini ifoda etadi (6-ad., 251-b.).



179-rasm. Jorjo Vazarining g'oyaviy shahari. XVI a., chapda – shahar, o'rtada – bosh maydon, o'ngda – tim tarhlari (6-ad., 258-b.).



180-rasm. Florensiya sh. Arno daryosining shimolida, shahar o'rtasida — kvadrat tarxli antik davrga mansub shahar qismi. Uning burchagida — Santa Mariya della Fiore sobori (6-ad., 258-b.).



181-rasm. Leonardo da Vinciining Florensiya shaharini qayta qurish loyihasi musavvadasi (6-ad., 253-b.).




182-rasm. Florensiya shaharining markaziy qismi:
9 — sobor maydoni; 8 — Sin'oriya maydoni; 4 — Vekkio palassosi (oldida — Ringiero — tepa maydoncha); 5 — dei Lansi-lodjiyasi; 6 — Uffitsi ko'chasi; 7 — ko'prik — ponte Vekkio (6-ad., 262-b.).

183-rasm. Florensiya sh., Uffitsi ko'chasi, o'rtadagi ravoq ortida — Arno daryosi (6-ad., 262-b.).







184-rasm. Venesiya shaharining o'rta qismi; Katta kanal bo'yida Avliyo Mark maydoni (1) shakllangan (6-ad., 269-b.).




185-rasm. Venesiya sh., eng yirik: Olivolo va Rialto orollari o'rtaqidagi suv – Katta kanal deb atalgan (6-ad.).

186-rasm. Venesiya, shahar markazi; maydon — Piyasetta va Avliyo Mark maydonining shakllanish bosqichlari. 1 - bosqich, XII a., Pelland bo'yicha (6-ad., 266-b.).




187-rasm. Venesiya, shahar markazining shakllanishi; 2 — bosqich, XVI a. boshi, A. Bunin bo'yicha (6-ad., 266-b.).



188-rasm. Venesiya, shahar markazi. 3 – bosqich, hozirgi holat. Avliyo Mark maydonining ikki tomonida vakolatxonalar (chapda – Eski prokuratsiya, o'ng – Yangi prokuratsiya) joylashgan (6-ad., 268-b.).




189-rasm. Rim sh., XV a. oxiri, Fra Yakopo Filippo tasviri; oldda – Avreliy devori (6-ad., 273-b.).




190-rasm. Antik davrdagi Rimning tasviri. Uyg'onish davrida (XVI a. boshi) Marko Fabio Kalvo tomonidan bajarilgan (6-ad., 273-b.).




191-rasm. Rim sh., XVI – XVII asrlarda o'tkazilgan ko'chalar yo'g'on chiziqlar bilan ajratilgan. 1 – del Popolo maydoni; 16–17 – Avliyo Pyotr sobori maydoni va Vatikan; 11 – Kapitoliy; 9 – Lateran maydoni; 2 – Ispaniya pillapoyasi (6-ad., 279-b.).




192-rasm. Rim. Del Popolo maydoni: 1 — Popolo darvozasi; 2 — obelisk; 3—4 — cherkovlar (6-ad., 286-b.).



193-rasm. Rim. Kapitoliy maydoni. Mikelanjelo loyihasi bo'yicha bajarilgan. 1 — Senatorlar saroyi; 2 — Kapitoliy muzeyi; 3 — Konservatori saroyi (osori atiqalar muzeyi); o'rtaida — Mark Avreliy haykali (6-ad., 276-b.).




194-rasm. Rimdag'i Avliyo Pyotr sobori maydonini qayta qurish loyihasi. Karlo Fontana taklif etgan, XVII a. oxiri (6-ad., 282-b.).




195-rasm. Rimdagı Kapitoliy muzeyi, o'rtaga qismining tarzi
(6-ad., 276-b.).



196-rasm. Rimdagı Santa Mariya della Pache cherkovi.
Piero da Kortona XVII a. o'rtasi (6-ad., 280-b.).



197-rasm. Rimdagi Santa Mariya della Pache cherkovi oldidagi maydon.
Ochiq osmon ostidagi zal sifatida talqin etilgan (6-ad., 280-b.).



198-rasm. Rim. Ispaniya pillapoyasi; Babuino ko'chasini (pastda)
25 m balandlikdagi Sisteina ko'chasi bilan birlashtiradi;
1 — cherkov; 2 — Barkachcha favorasi (6-ad., 282-b.).



199-rasm. Rimdagi Avlonye Pyotr sobori maydoni tasviri.
J. Piranezi gravyurasi (6-ad., 281-b.).



200-rasm. Rim. XVIII a. Nollı bajargan bosh tarhdan lavha; cherkovlarning ko'pligi va kichik maydonlarning xilma – xilligi ko'zga tashlanadi (6-ad., 281-b.).

III.5. Fransiyaning klassitsizm davridagi shaharsozligi

XV–XVII asrlardagi Fransiyaning shaharsozligi mammalakatda yagona davlat–qirol hokimiyati o'matilishi va uning o'ta ko'chayishi-absolyutlashuvi sharoitda rivoj topdi. XIV asr boshi – XV asr o'rtaida sodir bo'lgan yuz yillik urush natijasida fransuz (sarang) yerlari inglizlar hukmonligidan ozod bo'ldi. XV asr ohariga kelib Fransiyaning siyosiy birlashuvi yakunlandi. Qirol hokimiyati iqtisod, madaniyat, qurilish sohalarida to'la urnatildi. Qurilishda qirollar asosiy e'tiborlari ko'shk (zamok) larga va shahar saroyi (otel)lariga qaratishgan edi. Ularning me'morligida oldindan qaror topgan gotika uslubidan farqli uslubiy jihatlar paydo bo'ldi. Bunda Italiya Uygonish madaniyatining ta'siri katta edi.

Fransuzlar XVI asrning 1-yarmida Italiyada olib bo'rishgan urushlar davomida Uygonish madaniyati bilan yaqindan tanishdilar. Fransuz qirollari o'z saroylariga italyan ziyolilarni jalb qilishga harakat qillardilar. Jumladan, Fransisk I o'z

saroyiga Leonardo da Vinchini taklif etgan edi. O‘z navbatida fransuzlar Italiyaga safarga borib, antik va joriy Uyg‘onish san’atlarini o‘rganishgan. Bunga me’mor Pyer Lesko va haykaltarosh Jan Gujon misol bo‘la oladilar.

XVI asrning 2-yarmida san’atda yangi uslub jihatlari ancha sezilarli darajaga yetdi. Yangi uslub ruhiyatidagi risolalarda (Delorm va Dyusersoning me’morlik bo‘yicha, Pererening shaharsozlik bo‘yicha) yangi nazariy tamoyillar ishlab chiqildi. Pere o‘z kitobida asosiy diqqatini shaharlarning mufodaa qurilmalariga qaratdi.

Uning nazariy karashlari amalda ham o‘z aksini topdi (Sharlevil va Anrishmon shaharlari). Umuman olganda, shaharsozlikda muhandislik masalariga alohida e’tibor berilgan. Shuning uchun ham Parijga avvalo ko‘priksozlikda dong taratgan Shimoliy Italiyalik me’morlar ishga taklif qilinar edi.

Katta miqyosdagi ishlar saroy majmularini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan. Fransisk I Site orolidagi nurab ketgan saroydan o‘z qarorgohini ko‘chirish jarayonida Luvr kal’asining bir qismini saroy qiyofasiga keltirtiradi. Buni me’mor P. Lesko amalga oshirdi. Bir ozdan so‘ng Luvrning g‘arb tomonida, Karl V qurdirgan shahar qo‘rg‘on devoridan tashqarida dala saroyi Tyuilri qurildi. Ayni vaqtida oldida istirohat bog‘i (park) tashkil etildi. XVI asrning oxiriga kelib Luvr bilan Tyuilri saroylarini birlashtiruvchi yo‘lak qismi (gallereya) ham bitkazildi. Bu ishlar natijasida uzoq masofoga cho‘zilgan ulkan Luvr-Tyuilri majmuasi vujudga keldi.

Fransiya shaharsozligi tarixida tantanaviy maydonlar alohida o‘rinni egallaydi. Ular aniq geometrik shaklda bo‘lib atrofi 3–4 qavatli bir xil ko‘rinishdagi binolar bilan qurshab olingan bo‘ladi. O‘rtasiga otliq qirol haykali o‘rnatalidi. Dastlabkilari Vogezlar va Dofin maydonlari bo‘lib, ular XVI asr oxiri – XVII asr boshida qurilgan.

Vogezlar maydoni Parijning shardiy qismida Turnel zamogi o‘rnida barpo bo‘ldi. Tarxdagi o‘lchamlari 139x139 m bo‘lib, qizil g‘ishtdan qurilgan. Ayrim qismlari oq tom bilan

qoplangan. Tomi ko'k tusli shifer bilan yopilgan. Dastlabki davrda maydon o'rtasi bo'sh bo'lib unda turnirlar va zodagonlarning sayrlari bo'lib o'tgan. Keyinchalik maydon o'rtasiga Lyudovik XIII oqliq haykali o'rnatilib, atrofi ko'kalam-zorlashtirilgan va panjara bilan to'silgan edi.

Dofin maydoni Site orolining eng g'arbiy qismida, ko'priklar qurilishi bilan bog'liq holda vujudga keldi. Ko'priknning eni 23 m, uzunligi 328 m edi. Inshootning tubdan yangiligi unda ikki chetda hech qanday qurilmalar (do'konlar, ustaxonalar kabi) bo'limgaganligidan, usti ochiq bo'lganligidan iborat edi. Ko'prikh shaharliliklarning faqat sayr qilishlariga mo'l-jallangan edi. Bu yerdagi orolning burni me'moriy jihatdan yangicha talqin etilib, u yerga Genrix IV qirolining otlik haykali o'rnatilgan edi. Ko'priknning boshqa tomonida qirobog'lari o'rnida tarxi trapersiya shaklida Dofin maydoni barpo etildi. Maydon chetlaridagi binolar Vogezlar maydonida-gi binolar singari ko'rinishda qurildi. Farqi maydon o'rtasidan uning o'qi bo'ylab yo'l qoldirilgan.

Qurilishlarning qattiq-nazoratga olinishi XVII asrning boshidanoq boshlandi. O'sha vaqtidagi Genrix IV tomonidan chiqarilgan qonun bo'yicha Parij markazidagi ko'chalar tomonlariga «burchakdan — burchakkacha» bir xildagi binolar qurish shart edi.

Absolyutizmning to'la o'matilishi Lyudovig XIII qirolligi davriga to'g'ri keldi. Uning masifikasi Dekartning (XVII asrning 1-yarmi) falsafasida o'z aksini topdi. Dekart riyosat (matematika)ni, chunonchi xandasasi (geometriya)ni har sohada jumladan, shaharsozlikda qo'llanishi mumkin va lozim deb hisoblagan. Uning ta'biriha har narsa (obyekt)ni deduktiv: umumiydan — xususiyga, butundan — qismlarga yo'naliishida talqin qilish zarur. Har qanday unsurni ham sodda xandasiy shakl (murabba-kvadrat, doira va boshqalar)ga keltilish mumkin. Qiyoslash uchun maxsus o'ichov (modul) belgilash lozim.

Absolyutizm olib borilgan tinimsiz urushlar negizida qaror topdi. Qal'alar qurilishi yuksaldi. Lyudovig XIV davrida qal'asozlikda maxsus ta'lif olgan qator mutaxassislar yetishib chiqdi. Ularning ichida eng mashhuri qal'asozlikning nazarriyясини ham, amaliyotini ham mukammal egallagan muhandis-shaharsoz S.Voban edi. Uning faoliyati o'laroq 100 dan ortiq shaharlar qayta qurilib, mustahkam mudofaga ega bo'ldi; 50 dan ortiq shahar-qal'alar va juda ko'p kichik qal'alar yangidan qurildi. Voban qo'rg'on shahar-qal'alar muntazam tarxga ega bo'lgan. O'rtalarida unda yashab turgan qo'shinni sig'dira oladigan keng maydon tashkil etilgan. Bastionlarning soni va tuzilishi muayyan talablar va sharoitga, joyiga mos ravishda ishlangan. Ba'zan bastionlar bir necha qator qilingan. Askarlarning yotoq bino (kazarma)lari va qaznoq (sklad)lar bastion yaqinida joylashtirilgan. Voban tuzgan Nef Brisak nomli shahar-qal'a aynan ana shundaylardan. U sakkiz qirrali tarxga ega bo'lib, har burchagi bastion bilan mustahkamlangan. To'rt tarafida to'rt darvozasi mavjud. Barcha ko'chalarning eni bir xil bo'lib 10 m ga teng. O'rtadagi asosiy maydon tomonlari 150 m ni tashkil qiladi. Urush qilinmagan tinch vaqtida asosiy maydondan savdo-sotiq uchun foydalaniqgan. Voban o'zining tajribalarini «Shaharlar mustahkamlanishining haqiqiy uslubi» nomli risolada bayon etgan. Risola ko'pgina Yevropa tillariga tarjima qilingan.

XVII asrning 2-yarmida klassitsizm yetakchi uslubga aylandi. Ta'lif tizimi ham bu uslubga xizmat qildi. 1671-yilda Arxitektura akademiyasi tashkil etildi. Uning rahbari sifatida me'mor, matematik va harbiy muhandis F.Blondel tayinlandi. Akademiya qirol hokimiyatini ulug'lashi lozim edi. Uning oldiga «Go'zallik qonuniyatlarini doimiy, ideal qonunlari» ni aniqlash va ularni joriy etish vazifasi qo'yilgan. Mazkur qonunlarni ishlab chiqish harakatida antik va Uyg'onish davrlardagi me'moriy nisbatlarni qo'llash tajribasiga tayanildi. 1661-yilda Lyudovig XIV Fransiyaning amaldagi qiroliga aylandi. Uning dastlabki bajargan ishlaridan biri dala

saroyi – Versalni qurish bo'ldi. **Versal** Parijning janubi-g'arbidagi qishloqlardan biri bo'lib, unda qirolning otasi Lyudovig XIII oldin qurdirgan «Ovchilik ko'shki» nomli mo'jaz dala saroyi mavjud edi. Lyudovig XIV ishga jalb etgan me'mor L.Levo va parksoz A.Lenotr oldilariga ulug'vor va hashamatli saroy qurish vazifasini qo'yadi. Bu vazifa mu-kammal bajarildi. Katta kenglikda yastanib yotgan ikki qanotli saroy binosi (uning markazida qirol yotoqxonasi – «Oynavand gallereya») orqasida 3 km ga cho'zilgan muntazam tarxli parkni o'ziga bo'ysindirgan. Park saroydan nariga kengayib ketgan uch: parter, bosket va o'rmon-bog' qismlaridan iborat. Parterda simmetrik tarzda ikki suv havzalari bor. Havzalardan keyin asosiy kompozitsion o'qda «Yashil gilam» va «Katta kanal» joylashtirilgan. Yo'naliш oxiri «Qirol yulduzi» bilan tugallangan. «Qirol yulduzi» doira shaklidagi maydon – kenglik bo'lib, undan atrofga radial yo'naliшda yo'llar tarqaladi. Asosiy yo'l farqlari keskin bo'limgan past-balndliliklardan o'tadi. Bu optik illyo'ziyalardan foydalanish imkoniyatini bergen. Natijada, yo'ldan ketilayotganda ketma-ke turli, ajoyib manzaralar ochiladi. Saroy oldi ham uch, bir-biriga tutashib va kengayib boradigan maydonlar tizmasidan iborat. Maydonlar tizmasidan uch keng xiyobon boshlanadi. O'rtadagi xiyobon shaharga – Parijga, chekkadagilari esa So va Sen-Klu qishloqlariga olib boradi. Bu qishlokarda ham Lenotr tomonidan muntazam tizimli parklar barpo etilgan edi.


Versaldagi bir maydonidan radial yo'naliшda uch ko'cha tashkil qilish usuli vaqt jihatidan sal oldinroq Rimdag'i Popolo maydonida ham qo'llanilgan edi. Tadqiqotchilar (A.Bunin, T.Savarenskaya) Popolo maydonidagi, Versaldagi va Luvtuylri saroylar majmuasidagi kompozitsiyalarida bir necha umumiylklarni aniqlashgan. Jumladan, uchchala holda ham majmualar kishi ko'zi ilg'ashi mumkin bo'lgan eng uzoq masofaga – uch kilometrga cho'zilgan.

Lyudovig XIV Luvr saroyidagi qayta qurish ishlarini ham Levoga topshirdi. Saroyning sharqiy tarasini ishlab chiqishga esa italiyalik L. Bernini taklif qilindi. Barokkochi L. Bernini loyihasi klassitsizm uslubiyatiga yot bo'lib chiqdi. Shu sababdan saroyning sharqiy tarasi fransuz K. Perroning klassitsizm ruhiyatiga mos loyihasi bilan qurildi. Ayni vaqtida Parijda shaharning qo'rg'on devorlari o'rnilarida hosil bo'lgan bo'shilqlarda ot-arava ulovida sayr qilish uchun mo'ljallangan bulvarlar (xiyobonlar) tizmasi barpo etildi. Bastiliyadan boshlanib to Elisey dalalarigacha davom etgan bu xiyobonlar keyinchalik «Katta bulvar» nomini olgan. Klassitsizmning yorqin namoyondalaridan Jyul Arduen Mansar tantanaviy maydonlar qurish an'analarini yangi sharoitda davom etirdi (sakkiz qirra tarxli Vandom va aylana tarxli G'alaba maydonlari). J.A. Mansar qo'rg'on Nogironlar uyi majmuasidagi ulug'vor gumbazli Rotonda ham katta badiiy shaharsozlik vazifasini ado etadi. Rotondaning umumiy balandligi 107 m bo'lib, u butun bo'yi-basti bilan Parijning janubiy-g'arbiy qismida dominanta-urg'u bo'lib ajralib turadi.


XVII asrning 2-yarmida bajarilgan yirik ishlar asosan zodagonlar (aristokratlar) istiqomat qiladigan Parijning g'arbiy qismida olib borildi. Sharqiy qismi (Mare tumani bundan istisno) ancha vayron holda, obardonlashtirilmay qolaberdi.

Fransiyaning XV–XVII asrlar shaharsozligining ahamiyati katta.

1. Klassitsizm Uyg'onish davri shaharsozligi tajribasini o'zida mujassamlashtirdi.
2. Fransuz milliy shaharsozligiga xos bo'lgan badiiy jihatlar (viqorli ritm, nafis nisbatlar) ishlab chiqildi.
3. Muntazam tarxli parksozlik, tantanaviy maydonlar, shahar-qal'alar qurish uslublari ishlab chiqildi.
4. Shaharga yagona hududiy va badiiy-kompozitsion birlik sifatida qarash qaror topdi.
5. Yevropa XVII asr shaharsozligida klassitsizmning keng yoyilishiga zamin yaratdi.



201-rasm. Shenonso zamogi — ko'shki, XV—XVI asrlar
(6-ad., 289-b.).




202-rasm. Perre bajargan g'oyaviy shahar (6-ad., 290-b.).




203-rasm. Parij sh., gravyura, chap tomonda Site orolidagi Dofin maydoni (6-ad., 291-b.).




204-rasm. Parij sh., Vogezlar maydoni, XVII a. (6-ad., 291-b.).




205-rasm. Parijning sxematik tarxi, XVII a. boshi (6-ad., 293-b.).




206-rasm. Parij sh., Luvr — Tyuilri majmuasining rivojlanishi bosqichlari: 1 — XIV a; 2 — XVI a; 3 — XVII a; 4 — hozirgi xolati (6-ad., 301-b.).



207-rasm. Parijning janubi-g'arbiy rabodi (6-ad., 296-b.).




208-rasm. Versal saroyi majmuasi (6-ad., 297-b.).



209-rasm. Rim, Versal va Luvr – Tyuilri majmularini rejaviy o'qlarini qiyosiy chizmasi (6-ad., 300-b.).



210-rasm. London markaziy qismining 1666-yil yong'inidan keyingi holati (6-ad., 308-b.).



211-rasm. Londonning markaziy qismini qayta qurish loyihasi
(6-ad., 308-b.).

III.6. Rossianing XVI–XVII asrlardagi shaharsozligi

XVI asrlarda Moskva boshchiligidida Rossiya davlatining markazlashuvi davom etdi. 1547-yilda kniyazlardan bo‘lgan Ivan IV Grozniy chor (tsar) unvoniga egalik qila boshladi. Moskva davlati sharq yo‘nalishida avval Qozon, keyin Sibir xonliklari zabit etdi. U yelarda ko‘plab qal’alar va yog‘och ostrog (shahar)lar qurdi. G‘arb yo‘nalishida esa Smolensk shahariga alohida e’tibor berildi. XVI–XVII asrlar chegarasida Smolensk shaharini Moskvaning Oq shahar qo‘rg‘on devorini barpo etgan me’mor Fyodor Kon tomonidan Smolensk shahrida ham toshdan yangi qo‘rg‘on devor va burjlar bilan mustahkamladi. Janub yo‘nalishida «chegara chiziqdari» («zasechniye cherti») barpo etildi. Chegara tuproq tepaliklar; o‘rmonlardagi ag‘anatilgan daraxt uyumlari, daryo va boshqa tabiiy to‘sqliar tizmasidan iborat bo‘lgan. Chegaraning muhum nuqtalarida qal’alar va ostrog (shahar)lar qu‘rildi.

Bu davrda Rossiyada qo‘rg‘on me’morligi takomillashdi. Shahar devorlarida «qo‘yi jang» uchun ambrazura va mashikulalar qilina boshlandi.

XVI asrda **Moskva** shahriga yangi posad (mavze)lar qo‘shildi. G‘arb tomondagи Neglinka orti (Zaneglimente),

janub tomondag'i Moskva daryosi orti (Zamoskvorechye) shular jumlasidandir. Kitay-gorod tarkibida avval Pojar, keyin Qizil nomli bosh maydon shakllandi. XVI asr o'rtasida Qozon shahrining olingenligi sharafiga Pokrov (Vasiliy Blajenniy) sobori qurildi. Tadqiqotchilar uning tuzilishida Moskva kremlili bilan o'xshashlik mavjudligini qayd etadilar.

XVI asr oxiriga kelib, Moskvada to'rt qator: Kreml, Kitay-gorod, Oq shahar va Skorodum qo'rg'on devorlari mavjud edi.


XVII asrda Rossiyada shaharlarning soni, iqtisodiy qudrati va mavqeyi o'sdi. XVI asrning o'rtasida 160 ga yaqin shahar bo'lsa, XVII asrning o'rtasiga kelib, soni (Ukraina va Sibirsiz) 226 ga etdi. XVII asrning 2-choragida ko'pgina shaharlarning aholisi taxminan oltmush foizga oshdi. Moskva-ning aholisi XVII asr oxirida 200 ning kishini tashkil etgan edi.

Shaharlarning umumiyligi qiyofalarida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Kremlar va qal'alar yangicha, oldingi davrlarga qiyosan ko'riniqliroq talqin etila boshlandi. Burj va muhimurg'u inshootlarning vertikalligi o'sdi. Moskva Kreml burjalining va darvozalarining tepalariga dekorativ chodirsimon qismilar qo'shildi. Ularning qatorida soatli Spas minorasi asosiy hisoblanadi. Boshqa mihim darvozalardan XVII asr oxirida qurilgan Suxarev minorasini qayd etish lozim. U Tuproq shahar (Skorodum)ning darvozasi bo'lib, Meshchanlar mavze (sloboda)si qurilmalari o'rtasida alohida ajralib turgan. Suxarev minorasiga ham soat o'matilgan edi. Minoralar bozor bo'lgan. Bu bozordan shahar markazi tomon yo'nalishda Oq shaharning Streten darvozasi joylashgan edi. Undan o'tib Kitay-gorodga chiqilgan.


XVII asr rohibgohlari qurilishda ancha muntazamlikka erishildi. Chunonchi Novodevichiy va ayniqsa, Donskoy rohibgohlarining tarxlarida ikki kompozitsion o'qni ajratish mumkin. Ularning uzaro kesishgan nuqtalarida soborlar joylashgan.

Kolomenskoyedagi chor saroyi majmuasi avvalgi an'alar bo'yicha-erkin tarxda barpo bo'lgan. Unda to'rt (chor, ma-


lika, shahzoda va chor qizlari uchun qurilgan) xorom-saroylar va cherkov pastqam tosh devorlar bilan o'rab olingan.



212-rasm. Moskva shaharining XVI asr mobaynidagi hududi kengayishi (6-ad., 325-b.).




213-rasm. Moskva sh., Kitay-gorod qo'rg'on devorining burji, me'mor Petrok Maliy (6-ad., 324-b.).



214-rasm. Moskvaning qo'riqchi - qal'alar vazifasini o'tagan monastirlar tarhlari; a – Novodevichiy; b – Donskoy; d – Danilov; e – Spas-Andronnikov; f – Novospasskiy; g – Simonov (6-ad.).



215-rasm. Moskva shahri tasviri, XVI a. «Pyotr chizmasi»dan lavha (6-ad., 331-b.).



216-rasm. Moskva Kremlı. Sobor va Ivan maydonlari bo'yicha qirqim; o'rtada — qo'ng'iroqxonalar (6-ad., 330-b.).



217-rasm. Moskva Kremlı, XVII a. oxiri; tarh (6-ad., 354-b.).

IV. XVIII—XIX ASR I YARMIDAGI SHAHARSOZLIK

Oldingi bo‘limda ko‘rib chiqilgan XVII asrdan keyingi XVIII-XIX asr 1-yarmida jahon shaharsozligidagi hodisalar turli mintaqalarda har xil, notekis kechgan bo‘lsada, bu zamон davriy chegaralanish nuqtayi nazardan ancha umumiylikka ega. Mazkur bir yarim asr davomida Yevropada, Shimoliy Amerikada va qisman Rossiyada texnika, ishlab chiqarish tezkorlik bilan rivojlana boshlandi. Tabiiy fanlarning, texnikaning yuksalishi ishlab chiqishda yangi ashylardan foydalanish, iqtisodiyotni oxir-oqibat «sanoat inqilobi» nomi bilan atalgan bosqichga olib keldi. Yevropa mamlakatlariда qishloq aholisini ham ishlab chiqarishga jalb etilishi natijasida shaharlar ichidagi turli qurilmalar (bino va inshootlar) zinchlashib ketdi. Shaharlar aholisi ko‘paydi, hududlari kengaydi.

Sanoat inqilobini dastlab Angliya boshidan kechirgan xolda Yevropa madaniyatida Fransiya yetakchilik qildi. XVII asrda shakllangan klassitsizm keng quloch eydi. Bu davrda kolonialistlar (birinchi navbatda Ispaniya, Angliya, Fransiya kolonialistlari) o‘z mamlakatlardan ketib, uzoqdagi Amerika qit’asining o‘zlashtirish jarayoni tezlashtirdilar. Bu qit’ada shaharlar tarxida o‘ta soda katakli sxema tarqaldi. Rossiyada Pyotr I reformalari orqali taraqqiyotda Yevropadan orqada qolmaslikka harakat qilindi. Rus madaniyatida, xususan, me’morligida, avvalo, barokko jihatlari paydo bo‘ldi. Klassitsizmning yoyilishiga etarli darajada sharoit hosil qilindi. Sharq mamlakatlarda iqtisodiy-siyosiy ahvol Yevropanadan farqlangan o‘ziga xosliklar mavjud edi. Qadimiy shaharning tuzilishlarida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘limgan xolda, ularning yonlarida yangi qismlari paydo bo‘ldi.



218-rasm. Ozarbayjon. Ganja, 1797-yil, tarh (14-ad., 409-b.).



219-rasm. Ozarbayjon. Boku, XVIII – XIX a., Ichkari shahar:
1 – Shervanshohlar saroyi; 2 – Qiz qal'asi; 3 – Boku xonlari saroyi;
6 – Buxoro karvon saroyi; 8 – Juma masjidi (14-ad., 371-b.).

IV.1. G‘arbiy Yevropaning XVIII—XIX asr I yarmidagi shaharsozligi

Mazkur davrning shaharsozligida Angliya, Fransiya Avstriya, mamlakatlari shaharsozliklari katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Bu mamlakatlar uchun shaharlarning rivojlanib borishi, xashamatli me’moriy majmualarning buniyod etilishi xarakterli bo‘lgan.

Italiyaning, ayniqsa Rimning me’morlik va shaharsozlik merosi boshqa Yevropa mamlakatlari uchun taqlid qilishga manbaligicha qoldi.

Angliyada grafik va arxeolog J.B.Piranezi neoklassitsizm asoschilaridan deb hisoblanadi. U gravyuralarida antik Rim vayronalarni o‘z zamonasidagi shahar muhitida tasvirlangan. Ota-bola Nollilar kartografiyani rivojiga o‘z xissalarini qo‘shegan. Ota 1748-yilda bajargan Rim tarxi katta e’tiborga sababchi bo‘ldi. Shahar tarxida maydasigacha har ko‘chani va xandonlarning ichki hovlilarigacha aniq ko‘rsatilishi shahar yaxlit muhit sifatida tushunilganidan darak beradi.

Palladnoning «shahar-uyning o‘zginasidir» degan so‘zlariga bejiz emasligi ayon bo‘ladi.

Fransiya shaharsozligidagi ham yangi qarashlar grafik va nashriy ishlarda o‘zini namoyon etdi. Chunonchi, 1739-yilga oid Tyурго-Bretez tarxida Parijning aksonomerik ko‘rinishi juda aniqlik bilan ifoda etgan. Pyer Patt o‘zining 1769-yilda chiqqan. «Arxitekturaning eng muhim jihatlari to‘g‘risidagi qaydlar» kitobida «Shaharda aksari toshdan bino bo‘lgan inshootlarni ko‘radilar, vaholanki unda chuqur falsafiy asarni ko‘rish lozim» degan so‘zları alohida diqqatga sazovor.

Fransiyada 1789-yildagi inqilob natijasida absolyut monarxiya ag‘darilgan bo‘lsa-da, klassitsizm yo‘qolib ketmadi, balki uning so‘nggi bosqichi — imperiya uslubi (ampir) vujudga keldi. Tantanaviy maydonlar qurish an’anasi davom etdi. Nansi shahri markazidagi Qirol maydonlari majmuasi me’-

mor Jak Gabriel tomonidan bajarildi. Maydonlar majmuasi vositasida ikki Nansi (o'rta asrga oid va unga tutashtirib XVII asrda barpo etilgan muntazam tarxli shaharlar) birlashtirildi. Majmua eski shahar chekkasida ratusha binosi va uning oldida Lyudovig XV haykali qo'yilgan. Qirol maydonidan, Saroy binosi oldidan oval shaklli boshqa maydondan hamda ularni ulab turuvchi xiyobon tarzida hal etilgan La Karer uchinchi maydonlaridan tashkil topgan. Nansi shaharidagi maydonlar majmuasi kompozitsiyasi yopiq avvalgi qirol maydonlaridan farqli o'laroq, atrofdagi qurilmalar va tabiat manzarali bilan bog'lanib ketgan, ya'ni kompozitsiyasi ochiq qilib uyushtirilgan.

O'ziga xos ijodiy uslubda ishlagan me'mor Ledu tuz chiqaradigan Sho shahri loyihasini 1770-yillarda ishlab chiqdi. Shahar doiraga yaqin shaklda rejalandi, atrofida bozor, cherkov, hammom va burchaklari piramida hajmnga ega bo'lган zambarak kuyuvchi zavod va boshqa binolarni joylashtirish mo'ljallandi. Loyiha qisman amalga oshirildi.

Parijdagi ishlar ko'p jihatdan Lyudovig XV uchun atalgan maydonga joy tanlash muammozi bilan bog'liq bo'ldi. Pirovardida qirolning o'zi shaxsan Tyuilri parki va Yelisel dalalari oralig'idagi joyni ko'rsatdi. U maydon (keyingi nomi – Hamjihatlik maydoni) yangicha-ochiq muhitli maydon tariqasida barpo bo'ldi. Maydon me'mori J.A.Gabriel faqat bir tomonni bir xil tarzli ikki bino bilangina bezab qo'ydi.

Inqilobdan keyingi davrda Parijda ko'payib ketgan muammolarni hal etish maqsadida Rassomlar hay'ati rejasidishlab chiqildi. Reja amalga oshmay qolgan bo'lsa hamki, u keyingi XIX asrdagi ishlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Shahardagi ishlar qatoriga shahar chegarasida kerak bo'lган bojxona (zastava)larni kiritish mumkin. Bojxonalar va undan oldingi Filipp-Avgust tomonidan qurdirilgan va undan keyingi shahar devorlari va bu vaqtdagi bojxonalari chiziqlari Parijning hududiy jihatdan kengayishini yaqqol ko'rsatadi.

Shaharda Napoleon Bonapart buyrug'i bilan Saroy me'morlari Persye va Fonten hamda boshqa me'morlar tomonidan qator ishlar bajarildi: Rivoli ko'chasi, Yulduz maydonidagi Zafar ravog'i, Vandom maydonidagi Zafar ustuni va boshqalar. Amalga oshmay qolgan ulkan qayta qurish ishlari sirasiga Parijning janubi-g'arbiy hududi rejalarini ta'kidlash zarur. Hududning o'rtasiga Harbiy maktab, uning oldida Mars maydoni, Sena daryosining narigi tomonida esa Rim saroyini qurish mo'ljallangan edi.

Loyihaviy shaharsozlik ishlari nafaqat Fransiyaning o'zida, balki zabit etilgan boshqa mamlakatlarda ham ishlab chiqildi: Italiyada Komakkio shahar-portini qurish loyihasi va boshqalar.

Avstriyada ham XVIII asrdagi absolyutizmning mustax-kamlanishi Fransiya klassitsizminikiga o'xshash shaharsozlikni vujudga keltirdi. 1715–1719-yillarda Baden markgraflari uchun Karlsruhe qarorgohi loyihasi ishlab chiqildi (me'morlar Bettendorf, Bagietti, Retti). Qarorgohning handasiy markazida saroyning minorasi mon qismi joylashgan. Undan shahar tomonga 9 ko'cha, park tomonga 23 hiyobon tarqalgan.

Saksoniya poytaxti Drezden shahri boshqa ko'pchilik tarixiy shaharlar kabi daryo bilan bog'liq bo'lib u Elbaning ikki qirg'og'ida joylashgan. Shaharning o'rtasidagi qismi yirik bastionlardan tashkil topgan. Daryoga ulanish natijasida devor bo'ylab ketgan suv to'sig'i shaharning muhofazasiga alohida e'tibor berilganligidan darak beradi. XVIII asr boshiba Drezdenda klassitsizm ruhiyatiga monand Svinger nomli saroy majmuasi qurildi.

Prussiyaning Brandenburg viloyatida Shpre daryosi hosil qilgan orolda qadimda Berlin va Kyoln manzilgohlari vujudga kelgan edi. Manzilgohlari XIV asrdayoq birlashib ketgan bo'lishiga qaramay har biri XIX asrgacha o'ziga xos ko'rinishni saqlab qolgan edi. XVIII asrda Berlinning asosiy rejaviy tizimi shakllanib bo'ldi. Markaziy qismi do'nglik (val) va xandaq bilan o'rab olindi. Ular harbiy vazifasini emas, balki bojxona chizig'i vazifasini o'tagan edi. Prussiya sha-

harsozligiga me'mor Shinkel katta hissa qo'shgan. U tomonidan ishlab chiqilgan Afina akronolining qayta qurish loyihasida klassitsizmning ortiqcha cheklovlar majmuaga xos bo'lgan erkinlikka zid kelgan.

Angliyada sanoat inqilobi XVIII asrning 60-yillaridan boshlandi. Mamlakatda Palladioning dala saroylari, ularning afzalliklari to'g'risidagi fikrlari yuqori baholangan.


1688–1689-yildagi «Sharafli inqilob» deb nom olgan siyosiy o'zgarishlar natijasida qirol absolyutizmi yo'q qilindi. XVIII asr boshida dehqonlarning yerdan ajralib qolishlari natijasida shaharlar aholisi keskin o'sdi.

XIX asr boshiga kelib Londonning markaziy qismi Vest-End shahar-sozlik jihatidan asosan shakllanib bo'ldi. Uayt-xoll ko'chasi Temzaning chap tomonidagi Westminster abbatligini va qirg'og'dagi Parlament binolarini Trafalgar skveri bilan bog'lanadi. Maydonning bir tarafidagi Bukengem saroyi va ikkinchi tarafdan tadbirkorlik (kommersiya) markazi bo'lган Kommerset-hauz majmuasi ham o'zaro bog'landi. Londonda ko'kalamzorlashtirishga katta e'tibor qaratilgan. Unda parklar katta hududlarni egallaydi. Ularning tarxlarida fransuzlarnikidan farqi bo'lgan erkinlik mavjudkim, bu inglizlarning tabiatni e'zozlashlaridan, unga ehtiyotkorlik bilan yondoshganlardan dalolat beradi. Ayni vaqtida Londonning g'arbi Vest-Enddan farqi o'laroq shaharning sharqi Ist-End va ayniqsa Temzaning janubiy qirg'og'idagi tuman ahvoli juda ayanchli bo'lgan.


Angliyada XVIII asrning 60-yillaridan boshlangan sanoat inqilobi natijasida shaharlardagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish harakatida qator g'oyalalar ilgari surildi. R.Ouening shaharlaridagi ijobjiy jihatlarini qishloqlardagi ijobjiy sifatlar bilan birlashtirish g'oyasi me'mor Uaytvell tomonidan grafik tarzda amalga oshirilgan. R.Onen g'oyalari asosida D.Bekingem g'oyaviy shahar loyihasini ishlab chiqdi. O'ziga xos g'oyaviy shahar tamoyillari yozuvchi va sayyoh Bekingem tomonidan ham ishlab chiqilgan.




220-rasm. Vest – Endning markaziy qismi: 1 - Vestminster abbatligi; 2 - Parlament; 3 - Trafalgar maydoni; 4 - Bukengem saroyi; 5 - Kommerset – hauz. Nuqtalar bilan Viktoria suv bo'yи ko'rsatilgan (7-ad., 32-b.).



221-rasm. London sh., Vest – End, XIX a. boshi; Temzaning chap qirg'og'ida – Uaytxoll va qal'a (Tauer); o'ng qirg'og'ida – Vaterloo vokzali (7-ad., 26-b.).




222-rasm. R. Ouenning utopik shahari: o'rtada – fabrika, burchaklarda – kollejlар, chetlarida – turar uylar (7-ad., 33-b.).




223-rasm. D. Bekingemning g'oyaviy shahari: 1-maydon; 2-jamoat binolari; 3-hiyobonlar; 4-korxonalar; 5-turar uylar (7-ad., 34-b.).

224-rasm. Parij qo'rg'onlari: 1-Filipp Avgust devori, 1180 – 1210-y; 2-Karl V devori, 1370-y; 3-Lyudovig XIII devori, XVII a. boshi; 4-bojxona chegarasi, 1784 – 1791-y; 5-qo'rg'on devorlar, 1841 – 1845-y.
(7-ad., 46-b.).




225-rasm. Nansi sh., markaziy maydonlar; 1-Qirol maydoni; 2-La Karyer maydoni va Zafar ravog'i; 3-Saroy maydoni; 4-Saroy (7-ad., 39-b.).




226-rasm. Nansi sh., Qirol maydonidagi bino; arx. E. de Korni
(7-ad., 39-b.).




227-rasm. To'z ishlab chiqaruvchi Sho shahari; loyiha
(7-ad., 48-b.).




228-rasm. Sho shahari, «qush ko'rishi» (7-ad., 49-b.).




229-rasm. Adriatika dengizi bo'yidagi Komakkio shahari loyihasi; arx. L. Bryuyer (7-ad., 60-b.).




230-rasm. Komakkio shaharida qurishga mo'ljallangan bino turlari (1-15), tarhlar (7-ad., 61-b.).




231-rasm. Karlsruhe shahari; arx. Bettendorf, XVIII a. (7-ad., 72-b.).



232-rasm. Karlsruhe sh., saroy, umumiy ko'rinish (7-ad., 73-b.).



233-rasm. Drezden sh., 1758-y. tarxi; Shahar Elba daryosining ikkala tomonida ham bastionli qo'rg'onlar bilan mudofaa qilingan (7-ad., 74-b.).




234-rasm. Drezden sh., XVIII a. oxiri — XIX a. o'tasidagi tarh:
1-Eski shahar; 5-saroy va «Katta bog'lar»; 6-Yangi shahar
(7-ad., 76-b.).



235-rasm. Berlin, uning rabodlari va Potsdam. A – Berlin sh.;
B – D – rabodlari; E – Unter – den – linden (7-ad., 79-b.).




236-rasm. Potsdam; 1 – Potsdam shahri; 2 – San – Susi saroyi;
3 – Yangi San – Susi saroyi (7-ad., 79-b.).




237-rasm. Afina sh., Akropolning qayta qurish loyihasi;
tarx, 1834-y., arx. K. Shinkel (7-ad., 82-b.).



238-rasm. Parij sh., 1870-yillar; 1–8-vokzallar; A-M-shaharning
muhim tugunlari (7-ad., 223-b.).




239-rasm. Parij; muhim ko'cha va shaharsozlik tugunlarining sxemasi.
XVII—XIX asrlar. E. Enaru bo'yicha (7-ad., 223-b.).



240-rasm. Parij, Bulon o'rmoni; chapda: 1840-yillardagi holati;
o'ngda — XIX asrning 2-yarmidagi qayta rejalgandandan keyingi holat
(7-ad., 227-b.).



241-rasm. Rimni qayta qurish loyihasi, 1873-y., D. Micheletti rahbarligidagi hay'at ishlab chiqqan; 1-14-shaharning e'tiborli joylari (7-ad., 229-b.).



242-rasm. Venanining rivojlanish sxemasi; I — Vindobon - Rim harbiy istehkomi (lageri), mil. av. I asr; II — bastionli qo'rg'on devorlar bilan mudofaa qilingan «Ichki shahar», 1857 yilgacha bo'lgan holat. Punktir chiziqlar bilan Ringsstrasse ko'rsatilgan (7-ad., 231-b.).



243-rasm. Vena sh., 1857-yildan keyingi holat, 1–20 – Ringshtarsse
atrosidagi muhim binolar (7-ad., 230-b.).

IV.2. Shimoliy Amerikada XVIII–XIX asr I yarmidagi shaharsozlik


Yevropaliklarning kolonizatsiyasi tub aholi – hindularning joylashuv an’analariini buzub yubordi. Shimoliy Amerikadagi vujudga kelgan dastlabki noan’anaviy shaharlar bosh funksiyasi jihatidan Yevropanikidan farq qilgan. Yevropada shaharlari, avvalo, hunarmandlik va ishlab chiqarish markazlari sifatida paydo bo’lgan. Bu qit’ada shaharlar ko’proq qishloq xo’jalik va savdo markazlari sifatida vujudga keldi. Qo’shma Shtatlarning 1783-yilda mustaqillikka erishishi hamda fuqarolik urushlarning 1865-yilda tugashi qit’ada shaharlashuvning misli ko’rilmagan tezlik bilan o’tishiga olib keldi.

Qit'adagi dastlabki shaharlarga kolonial davlatlarning an'analari o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ispanlar shaharlarni davlatning maxsus qonunlariga muvofiq tashkil etishar edilar. Harbiy shaharlar sirasiga kirgan San-Fransisko va Los-Anjeles shu zayilda tashkil etildi.

Fransuzlarning ilk forpost shaharlari zamoklarni eslatar edi. Keyinchalik turli binolar qurilishi bunday shaharlarga o'rta asrlardagi shaharlar qiyofasini berdi. Misol tariqasida XVIII asr o'rtalaridagi Kvebek shahari qiyofasini ko'rsatish mumkin.

AQSHdagi XVIII–XIX asr 1-yarmida shaharsozlik ko'p jihatdan ingilizlar tomonidan ishlab chiqilgan tizim bilan belgilandi. Tizimga ko'ra, yangi yerlardagi manzilgohlar aniq va bir xil zichlik bilan taqsimlashga harakat qilinar edi. Ogayoning hududiy taqsimlash loyihasi bunga yaxshi misoldir. Ma'muriy markaz shaharlar uchun Filadelfiya shahari ko'p hollarda namuna vazifasini o'tagan. Sodda tarxga ega bo'lган bunday shaharlar oldiga birinchi navbatda qulaylik talabi qo'yilar edi. Lekin poytaxt **Washington** shahariga badiylik talabi ham quyildi. Fransuz me'mori va muhandisi L.Anfan tomonidan bajarilgan shahar loyihasida shaharning salobatli va ko'rinishli bo'lishiga alohida e'tibor berilganligini sezish mumkin. Unda ikki asosiy markazdan, Prezident saroyi (keyinchalik – «Oq uy») va Kongress binosi (Kantoliy)dan o'tgan asosiy kompozitsion o'qlar Potomak qirg'o-g'ida uchrashib, markaziy muhit hosil qilgan. Umuman, katklardan iborat ko'chalar sxemasini diagonal yo'nalishdagi ko'chalar jonlantirib turadi. Boshqa yirik shaharlardan bo'lган San-Frantsiskoda ikki yirik hududlar bir-biriga nisbatan o'tkir burchak ostida joylashgan.

AQSHning bu davrdagi shaharsozligi badiiy jihatdan bo'sh bo'lsada qisqa vaqt mobaynida hayratomo'z ko'p shaharlar yaratdi.



244-rasm. Filadelfiya sh., XVIII a. boshi (7-ad., 89-b.).




245-rasm. Kvebek. 1759-y. Shahar ko'rinishi; Yevropaning o'rtalari
Asrlardagi ko'rinishni eslatadi (7-ad., 87-b.).



246-rasm. Yangi Orlean sh., 1764-y., bu shahar Luizianada fransuzlar tomonidan tashkil etilgan (7-ad., 87-b.).



247-rasm. Vashington sh., L. Anfan loyihasi, 1793-y.
1-Kapitoliy binosi; 2-Oq uy (7-ad., 92-b.).



248-rasm. Ogayo, hududiy rejalash loyihasi, 1796-y. Yer tomonlari 6 mil bo'lgan yirik kvadratlarga va tomonlari 1 mil bo'lgan mayda kvadratlarga bo'lib chiqilgan. Mayda kvadrat shakldagi yerlar fermerlarga va boshqa shaxslarga sotish uchun mo'ljallangan edi (7-ad., 91-b.).



249-rasm. San Fransisko sh., 1856-y. rejasi. Tarx atigi ikki yo'nalihsdan to'g'ri to'rtburchaklardan iborat (7-ad., 93-b.).

IV.3. Rossiyaning XVIII–XIX asr I yarmidagi shaharsozligi

Rossiyaning «Yevropaga darcha» ochish harakati XVIII asrning boshida Boltiq dengizi bo'yida tayanch shaharlar tashkil etishga olib keldi.

Yevropa bilan mustahkam aloqa bog'lash maqsadida Pyotr I **Sankt-Peterburg** shahariga asos soldi. Dastlab 1703-yilda Neva daryosining uch tarmoqqa ajralgan joyida keng orolida Petropavel qal'asiga qurildi. U yangicha, bastinon tipida tashkil topdi. Nevaning Fin ko'rfaziga chiqish joyida orolda harbiy – dengiz baza (keyinchalik – Kronshtat) qurildi. Petropavel qal'asining qarshisida kemasozlik verfi-Admiralteystvo barpo etildi. Shaharda qurish uchun namu-naviy turar uylar loyihalari ishlab chiqildi. Mazkur uylar kambag'jal, o'rtahol va boylar uchun mo'ljallangan edi. Dastlabki qurilgan saroylardan biri Yozgi saroydir (axr. D.Trezini).

XVIII 1–3 o'n yilliklarda shaharda ko'cha bo'ylab hamshamli saroylar paydo bo'ldi. 1715-yillarda Vasiliy orolini rejlash tarxi tuzildi (D.Trezini). O'sha yili fransiyalik arxitektor Leblon ham oval shaklidagi shahar rejasini tuzgan. Bu formal loyiha rad etildi. Real reja Eropkin tomonidan ishlab chiqildi. Shahar qurilishi davomida, asosan uning loyihasi bo'yicha ishlar olib borildi.

XVIII asr o'rtaida barokko qaror topdi. Smolniy monastirini, Qishki saroyning (to'rtinch) Rastrelli qo'rg'oni 1780–1800-yillarda «sipo klassitsizm» qaror topdi. Provinsiya (viloyati) shaharlarining bosh tarxlari klasitsizm qoidalariiga binoan tuzildi (masalan: Tver, Kastroma). Alohida e'tibor – shahar markazlariga berildi.


Moskvadagi ishlardan, avvalo, V.Bajenovning Katta Kreml saroysi loyihasi ustida olib borgan ishni ajratish zarur. Bajenov tarixiy yodgorliklarga ehtiyyotkorlik bilan yondashib zarurligini alohida ta'kidlagan edi. Moskva daryosi tomonidan to'rt qa-

vatli, Kreml tomonidan ikki qavatli qilishni mo'ljallangan edi. 1773-yilda ishlar tantana bilan boshlandi. Biroq ikki yildan keyin ishlar mutloq to'xtatib qo'yildi.


V.Bajenov Moskvadagi Pashkov uyida o'zini relyefdan juda ustalik bilan foydalanadigan ijodkor sifatida namoyon etdi.

1800—1840-yillarda «yuqori klassitsizm» hukm surdi. Bu davr mobaynida yetuk me'morlar tomonidan yaratilgan **Sankt-Peterburgda** bir qancha mahobatli binolar qurildi. Chunonchi Vasiliy oroli o'qini A.Zaxarov ishlab chiqdi. Toma de Tomoni Birjaning kompazitsion o'qini mustahkamlandi. Rossi Teatr majmuasini yaratdi. Neva prospektiga qaratilgan maydon to'rida Aleksandr teatri joylashgan. Teatr orqasida bir xil tarzli ikki ma'muriy binolar qurilgan (Rossi ko'chasi) binolarining birinchi qavatlari savdo do'konlariga berilgan. Ko'cha Fontanka daryosi bo'yicha ko'pqirrali maydonga chiqdi. Admiralteystvoning ikki biqinlarida Saroy va Senat maydonlari tuzildi.


Bunday binolar vositasida shaharning muhim qismlari kompozitsion jihatdan belgilab qo'yildi.




250-rasm. Sankt-Peterburg.
J. Leblon loyihasi, 1717 y.:
1—Pyotr I saroyi; 2—maydon-
lar; 3—portlar; 4—Petropavel
qal'asi; 5—Admiralteystvo
(7-ad., 108-b.).



251-rasm. Sankt-Peterburgda qo'llash uchun ishlab chiqilgan namunaviy uylar; tepada – kambag‘allar uchun; o‘rtada – o‘rtahollar uchun; pastda – boylar uchun (7-ad., 106-b.).



252-rasm. Ekaterinburg – zavod – qal’asi: 1–ishchilar uylari; 2–komandirlar uylari; 3–9–korxona bino va inshootlari; 10–qo‘rg‘on (7-ad., 136-b.).



253-rasm. Xarbiy namoyishlari
(paradlar) o'tkaziladigan
maydonlarning qiyosiy
chizmasi (bir mashtabda);
tepada — Sankt-Peterburgdagι
Saroy, Admiralteystvo va
Senat maydonlari, majmuasi;
o'rtada — Yaroslavl shaharining
XIX asr o'rtaсидagi markaziy
maydonlari; pastda —
Parijning 1775—1791-yillar
oralig'идаги Mars sayxonligi —
dalasi (7-ad., 187-b.).



254-rasm. V.F. Odoevskiyning tasavvuridagi Sankt-Peterburg shaharinining
kelajagi. Arx. I.G. Ivanov chizmasi (7-ad., 212-b.).




255-rasm. Moskva shahar qurilishi hay'ati tomonidan tuzilgan reja,
1817-y., V. Lavrov bo'yicha (7-ad., 201-b.).



256-rasm. Moskva shaharning markaziy qismining tarxi, 1775-y.,
A. Bunin bo'yicha (7-ad., 188-b.).



257-rasm. Moskva Kremlining qayta qurish loyihasi;
ark. B. Bajenov, 1767–1775-yillar (7-ad., 190-b.).



258-rasm. Moskva Kremlining qayta qurish loyihasi;
ark. M. Kazakov, 1797-y. (7-ad., 193-b.).



259-rasm. Yaroslavl sh.; tarixan shakllan tarx ustiga 1778-y. rejasi tushirilgan (7-ad., 146-b.).

IV.4. O'rta Osiyoning XVIII–XIX asr o'rta sidagi shaharsozligi

XVIII asrda Turkiston yerlarida davlatning yaxlitligi yo'qoldi. Bunga siyosiy beqarorlik va o'zaro urushlar asosiy sabab bo'lgan edi. Yagona davlat o'rniga birnecha davlat va davlatchalar vujudga keldi. Hatto bir shaharning o'zida ham yagona hokimiyati bo'lмаган hollar ham uchragan. Bunga misol – Toshkentning chorhokimlik davri. Vaziyat, ayniqsa, XVIII asrning birinchi yarmida va o'rta sidaga og'ir edi. Ba'zi shaharlik oilalar chekka joylarga ko'chib ketdi. Shunday payt ham keldiki, bir vaqtlar savdoyu, tijoratu, qurilishlar kechayu-kunduz tinmagan Samarqandda tarixchilarining yozi shicha, bir necha o'n oilalargina qoldi. Burun salobatli, lekin bu vaqtida qarovsiz qolgan madrasa, masjid kabi jamoat binolari to'kilayozdi. Ayrim hollarda jamoat binolari o'z funksiyasida foydalanilmadi: masalan, Toshkentdag'i Ko'-

kaldosh madrasasi bir qancha vaqtgacha molxona sifatida foydalanilgan.

XVIII asming oxirgiga kelib siyosiy ahvol nisbatan yaxshilanadi. Turkistonda uch asosiy davlatlar: Xiva va Qo'qon xonliklari hamda Buxoro amirligi vujudga keldi. Vaqt — vaqt bilan boshqa davlatlar ham paydo bo'ldi. Bunga misol tariqasida Toshkentda chorhokimlikka barham bergan Yunusxon hokimlik qilgan davlatini keltirsa bo'ladi. O'sha vaqtda Toshkent davlatiga Chirchiq va Angren vohasidan boshqa janubiy Qozoriston Yerlari ham kirgan edi. XIX asr boshlarida Toshkent davlati Qo'qon xonligi tarkibiga kirgan. Bu davlatlar orasida nizolar davom etib turgan. Umuman olganda, bu davrlar Abdulla Qodiriy ta'biri bilan aytganda, tariximizning «qora kunlari» edi.

O'tgan davrdagi kabi bu davrda ham istiqomat manzilgohlarining ikki asosiy xili: shahar va qishloq bo'lgan. Adabiyotda va og'zaki nutqda muzofot, qasaba, kent, mahalla (alohida olingan manzilgoh sifatida), yozloq, ovul kabi iboralar ham uchraydi. Biroq ularning ilmiy shaharsozlik ta'riflari ishlab chiqilmagan. Shahar va qishloqlarning mavqeyi, qiyofasi va boshqa jihatlari ularning Turkiston hududidagi karvon yo'llar tizimida joylashganligidan kelib chiqadi.

Odatda, biror sug'oresh tizimida bo'lgan shahar va qishloqlar o'zaro bog'langan yaxlit vohani tashkil qilgan. Masa-lan, Chirchiq daryosi tevaragidagi, shimoli-sharqda joylashgan Niyozbek qal'a (hozirgi Chirchiq shahari o'mida) va janubi-g'arbda Eski Qovunchi qishlog'i (hozirgi Yangiyo'l shahari) bilan chegaralangan hudud Toshkent shaharining dehqonchilik qilinadigan yerlari deb hisoblangan. Antik va undan keyingi davrlarda, odatda, bunday dehqonchilik vohalari uzun devorlar bilan o'ralgan.

Ko'pgina shaharlar bo'lib o'tgan siyosiy-iqtisodiy inqirozdan keyin o'zlarini tiklab oladilar. Yangi shaharlar ham barpo etiladi. Jumladan, Shahrixon XIX asrda vujudga kelgan shaharlardandir. Ba'zi shaharlar o'zlarini kichikroq miq-

yosda o'nglab oladilar. Ariqlar qazilib (masalan, Toshkent tevaragidagi Xonariq) yangi manzilgohlar barpo etiladi. Chunonchi Rossiyaning bosqinchiligiga qarshi tadbir sifatida Sirdaryo bo'ylarida Qo'qon xonligi tomonidan qal'alar tizimi barpo etiladi. Ularning ichida eng mashhuri — Oq masjid qal'asi bo'lgan.

Aholi joylarda hududiy-ma'muriy bo'linish katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shaharlар, odatda, yirik va mayda, qishloqlar esa faqat mayda shaharsozlik birlklarga bo'lingan. Bu shaharsozlik bo'linmalar turli nom bilan yuritilgan. Buxoro 12 *jarib* yoki mahalla, Samarqand 4 *qit'a*, Qo'qon, Marg'ilon, Toshkent shaharlari 4 *daha* deb nomlangan yirik bo'linmalarga taqsimlangan edi. Yirik bo'linmalar, o'z navbatida maydalariga bo'lingan. Bular ham turli joylarda turlichaligiga nomlangan. Mayda bo'linmalar Buxoro, Samarqand, Qarshi kabi shaharlarda — *guzar*, Qo'qon, Marg'ilon, Toshkent kabi shaharlarda — *mahalla*, Xorazmda esa — *masjid* (*masjidkavm*) deb atalgan. Demak, «mahalla» iborasi qo'llanish joyiga qarab ikki ma'noni bildiradi: Buxoroda — bu yirik bo'linmani, boshqa hollarda esa mayda bo'linmani anglatadi.

Shaharlarning asosiy qismlari aksari mahallalardan (mayda bo'linmalardan) iborat bo'lgan. Mahalla umumiy yerda joylashib kundalik hayotda o'zaro yordam berish tamoyili asosida tashkil topgan ijtimoiy birlikdir. Mahalla ko'pincha ko'cha yoki bir necha ko'cha yonlaridagi xonadonlarni birlashtirgan. Ularning markazida — guzarda hovuz, masjid (aksari maktabi, ba'zan madrasasi bilan), choyxona, novvoyxona va boshqa kundalik ehtiyoj uchun qurilmalar bo'lgan. Mahalla ishini oqsoqol, imom, dasturxonchi va qorovul kabi lavozimlardagi shaxslar olib borgan. To'y — ma'raka uchun mahallaning mulki: qozon, idish-tovoq, tobut va boshqa uskunalari bo'lgan.

Mahallalar o'zlarining qurilmalari zichligi, funksional tuslanishi jihatidan bir xil bo'limgan. Shaharlarning geomet-

rik markazlaridagi mahallalarda qurilmalar zich bo'lgan. Shahar aholining asosiy qismi savdo va hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'lgan. Shaharning chetlaridagi mahallalar dala-sifat: qurilmalari siyrakroq, hovlilari kengroq, serdaraxt bo'l-gan.

Keyingi vaqtida me'morlik tarixi fanida shu narsa ma'lum bo'ldiki, ba'zi tarixiy shaharlarda zikr etilgan yirik va mayda bo'linmalardan yana boshqa, o'rtacha bo'linmalar mavjud ekan. Ular bir qancha mayda bo'linmalardan tashkil topgan o'rtacha bo'linmalar bo'lib, Marg'ilonda — *o'ram*, Xo-jandda — *roat* deb atalgan. Demak, oldin qayd etilganlarni nazarga olsak, Marg'ilonda ikki bosqichli shaharsozlik bo'linishi emas, balki uch bosqichli: daxa — *o'ram* — mahalla bo'linishi qaror topgan deb xulosa chiqarishimiz mumkin. Undan tashqari, mayda bo'linmalar ham bir necha qismlarga — *ko'chalarga* ajratilishi mumkin. Masalan, XX asr boshlarida Toshkentdagи Mergancha mahallasi birnecha *ko'chalarga* bo'linganligi ma'lum.

Shaharlar o'tmishda o'zlarining atroflaridan qo'rg'on devor bilan chegaralanib turgan. Ular shaharlarni mudofaa qilish va shartli ravishda ma'muriy chiziq vazifasini o'tagan. Shartlilik shundan iboratki, yuqorida aytib o'tilganidek ko'pgina shaharlar qo'rg'on devoridan tashqaridagi tevarak bilan funksional jixatdan chambarchas bog'liq bo'lgan. Qo'rgon devorlari ko'proq paxsa va xom gishtdan qurilgan bo'lib, qalinligi tepaga qarab ingichkalashib borgan. Odatda, devorlarning tepa sathi shunday bo'lganki, uning ustida navkar, hatto ba'zan ikki otliq yonma-yon yura olgan. Devorning tashqi tomonida kunguralari bo'lgan. Kunguralar birinchidan, shaharning qamal vaqtlarida himoyachilarni dushman o'qidan to'sib turish vazifasini o'tasa (funksiyasi), ikkin-chidan, uning ko'rinishida ritm hosil qilib, tarzini jonlantirib turgan (estetikasi). Devor sirtidan tashqariga chiqqan burjlar ham funksional — devor tagiga kelib qolgan dushmanga o'q uzish, ham badiiy-me'moriy jihatdan devor tekisligining plas-

tikasini boyitish vazifalarini o'tagan. Muhammad Solih Toshkandiyning «Jadidayi tarixi Toshkand» asarida shahar devorining boshqa unsuri — *baru* tilga olinadi.

Shaharda darvozalar aholini tashqi dunyo bilan bog'lab turgan. Ular shahar markazidan tarqalib tevarakdag'i yo'llarga aylanib ketadigan ko'chalar nilg qo'rg'on kesishgan joylarda qurilgan. Odatda, darvozaning ikki yonida burjlar bo'lган. Darvozaning o'zi esa ikki tabaqali bo'lган. U aksari ravoq shaklining ichida joylashtirilgan. Darvozalar kechasi yopilib, kunduzlari ochilgan. Darvozabonlarning xonalari ko'proq ko'chaning ikki tomonida joylashgan. Nisbatan yaxshi saqlangan darvozalardan biri Buxoroning Shayx Jalol darvozasidir. Unda darvozabonlarning xonalari bo'lib, tarkibida ayvon ham mavjud. Xivaning rabod (Dishan qal'a) devorida Ko'sh darvoza nomli darvoza bo'lib, u odatdagilardan ikki yonma-yon o'rnatilgan darvozlar bilan ajraladi. Ko'sh darvoza o'zining originalligi, ko'rkmagli bilan ham farqlanadi.

Oshkora, diqqat tortadigan darvozalardan tashqari, devorlarda ko'zga tashlanmaydigan eshiklar ham bo'lган. Toshkentda ular *qopqa* nomi bilan atalgan. Shunga ko'ra, Toshkentninig 12 darvozasi bo'lishiga qaramay, uni «32 qopqali» shahar deyishgan.

Ko'p hollarda shahar devorlari bo'y lab tashqi tarafdan suvg'a to'ldirilgan zovur — *handaq* ham bo'lган. Handaq ham devor kabi shaharning muhofazasini ta'minlovchi qo'r'g'on me'morchiliqning bir tarmog'i sifatida qadimdan ma'lum. Masalan, Xorazmdagi antik davrga mansub Jonbozqal'a, Tuproqal'a shaharlarda ham handaqlar bo'lган. Aniqroq aytilsa, handaqlar antik davrdan ham qadimiyoqdir.

Yirik shaharlarda hokim qarorgohlari — qal'alar (ark-o'rda) bo'lib, ular shaharning boshqa qismalaridan ajralib turgan. Joylashushi turlicha bo'lган. Buxoro kabi shaharlarda dastlabki qal'a bu vaqtga kelib ham tarixiy o'mini saqlab qolgan. Boshqalarida esa qal'a ko'chib yurgan. Ular sirasiga Samarqand, Toshkent kabi shaharlarning qal'alari kiradi.

Aksariyat qal'alar shaharning qo'rg'on devorlariga tutashgan. Xivada qal'a shahriston (Ichan qal'a) devoriga g'arbdan tutash bo'lган. Olloqulixon tomonidan Ichan qal'aning shargida, Polvon darvoza yonida birnecha tutash imoratlar solingandan keyin (ular ichida saroy — Tosh hovli ham bor) qadimgi qal'a Ko'hna ark nomi bilan atala boshlandi.

Turli shaharlarning qal'alari tarkiblarida umumiylit mavjud. Aksari ularda nog'oraxona, jilovxona, haram, arzxona (rasmiy qabullar uchun), zarbxona (tanga zorb etish uchun), masjid kabi binolar, sarbozlarning mashqlari uchun maydon bo'lган. Binolar funksiyalariga qarab ratsional holatlarda, hajmiy — fazoviy jihatdan yahlit holda o'zaro biriktirilgan.

O'rta Osiyodek iqlimi issiq mintaqada suvning ahamiyati beqiyosdir. Shaharning suv tarmog'i boshida bir yoki ikki bosh ariq turadi: Buxoroda — Shohrud, Samarqandda — Siyob, Xivada — Polvon yob, Marg'ilonda — Marg'ilonsoy, O'rtepada — Kattasoy, Toshkentda — Bo'zsuv. Xo'jand esa Sirdaryoning o'zidan suv ichadi. Daryo va bosh ariqlardan yon ariqchalar ajraladi. Ulardan ham maydalanib borgan ariq deyarli har hovligacha etib borgan va shahardan chiqib ketgan. Har xonardon o'z hovlisiga iloj bo'limganda qo'shnining hovlisi orqali o'tkazishga haqli bo'lган. Bu rioxay qilinishi shart bo'lган odad *obraha haqi* nomi bilan ma'lum. Ariqlarning yo'nalishi yerning past-balandoliga bog'liq bo'lган va shaharning ba'zi qismlarida ko'cha bo'ylab o'tgan. Iste'mol uchun suvni aholi aksar katta va kichik hovuz va hovuzchallardan olgan. Oqar suvdan tashqari buloq va quduqdan ham foydalanilgan. Xivaning Bog'cha darvozasi oldidagi quduq, Toshkentda Chorsuda bo'lган Dukkoshsha bulori ma'lum va mashhurdir. Suv inshootlarining yaxshi holatda saqlanishiga alohida e'tibor berilgan.

Turkiston shaharining ko'rkaligini ko'p jihatdan bog'lar ta'minlagan edi. Bog'larga, asosan mevali daraxtlar ekilgan. Ular ko'proq shahar chekkalarida va qo'rg'on devor tashqa risida barpo etilgan. Yuqorida zikr etilgan *mavzu* va *bog'ot-*

larning asosiy qismini bog'lar, polizlar tashkil etgan. Ularning orasida dala hovlilari (uylar) joylashar edi.

Shaharlarning qiyofasini undagi turli binolar me'morligi shakllantirgan. Qurilmalarning eng ko'p tarqalgan turi turar uy (hovli)lar edi. Shahar markazida uylar odatda zich, hovlilari torroq bo'lib, chekkasiga kelib uylar siyrakroq, xovlilari keng bo'lgan. Dala hovlilari esa tarqoq, bir-biri bilan tutash-tirilmagan holda vujudga kelgan.

Kadimgi shaharlarning tarxlarida *ko'chalar* yuzaki qara-ganda bir xildek betartib va tasodifiy holatda paydo bo'lgan-dek tuyuladi. Aslida esa *ko'chalar*ning tizimi shaharning joylashuviga, past-balandliklariga, irrigatsiyasiga va tarixiy sharoitga qarab shakllangan. Ularda mantiqiylik, ratsionallik, badiiylik mavjud.

Shaharlarning tarxiy tizimi aksari quyidagicha bo'lgan. O'rtada shaharning asosiy markazi bo'lmish bozor joylashgan. Registon ham shu yerda bo'lgan. Bosh, birinchi darajali *ko'chalar* markazdan radial yo'nalishda tarqalgan. Ular odatda shaharning qo'rg'on devoridagi darvozalar mavjudligi bilan ajraladi va devor ortida boshqa shahar va qishloqlarga olib boradigan yo'lga aylanib ketadi. Bosh *ko'chalar* bir muncha to'g'rili hamda biroz kengligi bilan xarakterlanadi.

Bosh *ko'chalar*ning ichida ham asosiyalarini ajratish darkan. Ular karvon yo'llari negizida tashkil topgan, yaxlit yo'nalishdagi bir yoki ikki juft bosh *ko'chalar*dan hosil bo'ladi. Bosh *ko'chalarga* ikkinchi va uchinchi darajali *ko'chalar* tutashtirilgan. Oraliqlarida mayda *ko'chalar* hosil bo'lган.

Ko'p hollarda shaharning qo'rg'on devorlari o'mida halqa yo'l shakllangan. Uning sodir bo'lishi shunday kechgan: turli davrlarga mansub bo'lgan qo'rg'on devorlar bo'ylab yo'l paydo bo'ladi, devor yo'q bo'lib ketgach yo'l *ko'chaga* aylanadi. Mavqeyi jihatidan bunday *ko'chalar* ikkinchi darajalidirlar. Odatda, ular bosh *ko'chalar* bilan bирgalikda shaharning radial — halqa sxemasini tashkil qilgan.

Shaharning asosiy funksional (va aksar hollarda geometrik ham) markazi *bozor* edi. Unda nafaqat turli savdo yoki xizmat (charxchiliq, chegachilik kabi) jarayonlar bajarilibgina qolmay, balki ba'zi hunarmandlar o'z mahsulotlarini ishlab chiqargan. Masalan, temirchilar tesha, bolta kabilarni bozorda ham tayyorlaganlar, ham sotganlar. Bunday maskanlarda qurilmalarning asosiy tipi — do'konlar bo'lgan. Hunarmandlik joylari, asosan *rasta*, ya'ni muayyan kasb-hunarga tegishli tartib qator asosida tashkil bo'lgan. Pichoqchi, baqqol, mahsido'z kabi hunarmandlar o'z rastalariga ega bo'lishgan. Rastalar, odatda, oddiy do'konlardan iborat edi. Shu bilan birga, bozorda qurilmalarga hojat bo'limgan turli mahsulot bilan savdo qilish uchun ochiq maskanlar — maydonlar tayin qilingan edi. Masalan, un bozor, qo'y bozorlar ochiq joylarda uyuşhtirilgan.

Yirik bozorlarda asosiy rastalar joylashgan savdo ko'chalarining ustilari yopiladigan edi. Ular *tim* deb atalgan. Buxoro, Toshkent, Marg'ilon, Shahrixonda shunday timlar bo'lganligi ma'lum.

Bozor xordiq chiqaradigan joy vazifasini ham o'tagan. Maddoh, masharaboz, polvon, dorboz kabilar o'z san'atlarini namoyish etishar edilar. Bozor choyxonalarida xonandalar, sozandalar, shoirlar to'planishib turishgan, askiyabozlar hazil-mutoyiba qilishgan. Ramazon oylarida bozor kechalari ham davom etgan. Bunday bozor — *bozori sha'b* deb nomlangan.

Shaharlarning ijtimoiy-siyosiy mavqega ega maydonlari bo'lgan. Ular Registon nomi bilan ma'lum. Registon maydonlari, odatda, bozor bilan birga (tarkibida yoki yonmayyon) bo'lgan: Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qarshi kabi shaharlar bunga misol bo'lishi mumkin. Registonlarning me'moriy jihatidan eng mashhuri Samarqanddir.

Xiva shahari ikki qismidan: Ichan qal'a va Dishan qal'adan iborat. Xivaning shahristoni bo'lgan Ichan qal'a tarxda to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, shimol-janub yo'nalishida barpo bo'lgan.

Qal'aning shimolida Bog'cha darvozasi, janubda Tosh darvozasi mayjud. Ularni shimol-janub yo'nalishidagi ko'cha birlashtirib turadi. Asosiy ko'cha esa g'arb-sharq yo'nalishida o'tadi. Ko'cha mos ravishda Ota va Polvon darvozalaridan o'tadi. Ota darvoza oldida qal'a — Ko'hna ark joylashgan.

Dishan qal'a Xivaning rabodi bo'lib, Ichan qal'aning tevaragida, sharqdan g'arbg'a qarab cho'zilgan. Xorazm xoni Olloquluxon (XIX asr o'rtasi) aholini qo'shni qabilalar hujumidan saqlash maqsadida Dishan qal'ani uzunligi 6 km bo'lgan devor bilan o'rata di. Qurilishda Xorazm aholisining ko'p qismi qatnashib olti haftada bitqaziladi. Dishan qal'ada 10 ta darvoza bo'lgan. Bular: Xazorasp (yoki Quyi), Pishkanik, Bog'i shamol, Shayhlar, Tozabog', Shohimardon, Dosh oyoq, Ko'sh, Gadoylar va Gandumiyon darvozalaridir. Dishan qal'aning bosh ko'chalari Ichan qal'a ko'chalarini davom ettiradi. Shaharning bozor, tim va rastalari, asosan Dishan qal'ada bo'lgan.

Buxoro shahri Turkiston zaminidagi asosiy shahardan biri bo'lgan. XVI asrda shakllangan holati, asosan saqlangan. O'zgarish ko'proq qurilmalamning zichlanishi hisobiga bo'lgan. Shaharning qo'rg'on devori ichidagi hududi o'sha davrda, XVII asrda vujudga kelganicha qolgan. Tarxi umuman doiraga yaqin bo'lib shaharning avvalgi yerlariga g'arb tarafdan Jo'ybor yerlari qo'shilgach Buxoro cho'zinchoqroq shaklni oldi.

Buxoroning markazi shaharning katta qismini egallagan edi. Bir-biriga tutashib ketgan qadimgi monumental hamda keyinroq vujudga kelgan madrasa, masjid, savdo binolari, karvon saroy, do'kon va boshqa jamoat binolaridan, ko'cha va maydonlardan tashkil topgan. Binolarning katta-kichikligi, shakl-shamoyili bir-biriga mos kelib, uyrun kompozitsion yaxlitlikka ega bo'lgan. Hozirgi holatda markazning anchagina imoratlari, ayniqsa, do'kon va karvonsaroy kabi binolarning buzilishi natijasida avvalgi yaxlitligi yo'qolgan. Markazdagi asosiy ko'chalarning tugunlari (chorrahalar) gumbazli timlar bilan ajratilgan. Shahardagi ja'mi to'rtta timdan uch-

tasi – Sarrafon, Zargaron, Telpakfurushon toqlari saqlangan. Ko‘chalarning yo‘nalishi uzoq o‘tmish mobaynida shakllangan. Markazdagi Sarrafon hammomi bunga yaxshi misol bo‘la oladi. Nomuntazam shakldagi yerga me’mor ustalik ila imoratni (hammomni) joylashtira olgan. Umuman yer tanqisligi shahar uchun xarakterlidir. Shu sababdan ham shahar ichida daraxtlar oz edi. Oddiy ko‘chalardan arava o‘ta boshlaganda aravakash ko‘cha boshidan turib qarshidan boshqa arava kirmasini uchun ovoz bilan darak bergen.

Samarqand shaharining tarxida, asosan o‘rtalasrlar davridagi holat saqlanib qolgan. Shaharning badiyiligi o‘ziga xos asosga ega edi. Ommaviy, sodda qurilmalar ichidan onasonda ulug‘vor ko‘k (lojuvard) Temur va temuriylar davriga oid bino qoldiqlari yuksalib turgan.

Shaharning qo‘rg‘on devor ichidagi maydoni doiraga yaqin bo‘lgan. Uning geometrik markazi tarxda yaqqol ko‘zga tashlanadi. U Chorsu binosi bilan belgilangan. Bosh ko‘chalar Chorsu binosidan radial yo‘nalishda tarqaladi. Shaharning ma‘muriy markazi bo‘lmish qal’a tomon ketgan ko‘cha muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Uning mavqeyini bu ko‘chadagi Registon maydonining joylashuviga ham ko‘rsatib turadi. Shimolda Bibixonim me’moriy guruhiga, janubda Go‘ri Amirga olib boradigan ko‘chalarning ham ahamiyati baland bo‘lgan.

XVIII—XIX asrlarda **Shahrisabz** mustaqil beklikning markazi edi. 1870-yilda Buxoro amirligiga qo‘sildi. XIX asrda shahar qaytadan besh darvozali qo‘rg‘on devor bilan o‘rab chiqildi. Yangi darvoza Qalmoq darvoza deb nomlangan. Shahar tarxi hozirgacha, asosan o’sha davrdagi vaziyatni saqlab qolgan. Asosiy jamoat markazlari (ma‘muriy zona, bozor, memorial majmualar) orasini turli katta-kichik ko‘chalar kesib o‘tgani. Shahar aholisi qurilmalari zich bo‘lgan guzarlarda istiqomat qilgan. Shaharliklar kasbi-kori, urug‘-aymog‘iga ko‘ra guzar jamoasini tashkil qilishgan. Shahar organizmi arxitekturaviy birlikni tashkil qilib qaytariluvchan,

«tipik» unsurlardan iborat edi. Ulardan shahar qiyofasini belgilovchi turar uylar va jamoat binolari turli me'moriy kompozitsiyalar tuzilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida shaharda 30 ming aholi istiqomat qilgan. Unda to'rt mingga yaqin xonadon, oltmishto'rtta guzar masjidi, oltita madrasa, yetita karvon saroy, ikkita hammom mavjud edi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XVIII asrning 1-yarmida **Toshkent** ichki hamda tashqi qismlardan iborat bo'lib, ular qo'rg'on devorlar bilan o'rالgan edi. Qirqa yaqin juma va juda ko'p mahalla masjidlari bo'lган. Hokim qarorgohi o'sha vaqtida Ko'keha dahasida joylashgan edi. Chorsu bozorida shahar ombori (jo'vexona) qurilgan (Nurmuhammad ma'lumoti). Registon maydonida chetlariga harsang tosh yotqizilgan, tomonlari 20 metr hovuz qayd etilib, uning chekkalarida katta-katta daraxtlar o'sgan (Miller ma'lumoti). Chorhokimlikdan so'ng, 80-yillarda nurab qolgan qo'rg'on devor qayta tiklangan. Hokim Yunusxo'ja qarorgohi Qoratoshda bo'lган (Eski O'rda).

XIX asrning 1-yarmida Toshkent har tarafga, ayniqsa g'arbiy-sharqqa qarab kenggaygan. Aholi o'mashgan bu joylar ko'pinchalik «Yangi mahalla» yoki «Yangi shahar» deb atalib kelinadi. XIX asrning birinchi o'nyilligida Anxor arig'inining chap tarafida **O'rda** qurildi. O'rdaning janubi-harbiy burchagi turtib chiqqan to'rburchak shaklida (sharqiy devori — 540 m, janubiyisi — 490 m) bo'lган. O'rdaning ichida beklarbegi saroyi, sarbozlar maydoni, boshqa binolar joylashgan. O'rda Gadrgan arig'idan suv ichgan, unda talaygina hovuzlar bo'lган.

Aniqlanishicha, XIX asr o'tasida Toshkent qo'rg'on devorining balandligi 8 metrga yetgan; tepasida ikki otliq bemalol yonma-yon yura olgan; baru va burj kabi muhofaza elementlari bo'lган. Qo'rg'on devor shimoldan Kalkovuz arig'inining o'ng qirg'ogidan, janubi-sharzda Bo'rjar arig'inining yuqori qismi bo'ylab, janubda Zax arig'inining shimolidan o'tgan; Quyi Bo'zuvning boshlanish joyini kesib, janubi-shimol

yo'nalishida har tarafga ketgan. Qo'rg'on devor bo'ylab shahar tashqaridan suv bilan to'ldirilgan handaq bo'lган edi. Devor saqlanmagan.

Tashqi yerlar bilan bog'lanish uchun qo'rg'on devorda katta (darvoza) va kichikroq (qopqa) eshiklar bo'lган. Toshkentning o'n ikki darvozalari: Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Qorasaroj, Taxtapul, Labzak, Qashg'ar, Qo'qon, Qo'ymas, Beshyog'och, Kamolon, Samarqand darvozalari bo'lган. Qopqalar soni aniq emas. Biroq burun Toshkent (og'zaki va yonma manbalarga ko'ra) «32 qopqali» deb hisoblangan. Ba'zilarining nomlari aniqlangan: Teshik qopqa, Sarboz, Sherdor, Yangi mahalla, Hiyobon qopqalar.

Shaharda ko'chalar ko'proq qing'ir-qiyshiq, tor bo'lган. Muhim ko'chalar nisbatan to'g'ri bo'lib, darvozalarni shaharning asosiy markazi — Chorsu bozori bilan bog'lagan. Ba'zilari saqlanib qolgan. Ular hozirgi Uyg'ur, Forobiy, Sag'bon, Qorasaroj, Samarqand darvoza ko'chalaridir. Chorsuni O'rda bilan, nariroqda Qashg'ar darvozasi bilan ham birlashtiruvchi ko'cha alohida ahamiyatli bo'lib Katta ko'cha, keyinchalik Tosh ko'cha deb atalgan. Asosiy ko'chalar shahar tashqarisida ham boshqa shahar va qishloqlarga olib boruvchi yo'l sifatida davom etgan.

O'rta Osiyoda XVIII—XIX asr o'talaridagi shaharlarning bosh maydonlari bo'l mish **Registonlar** binolar qurshovi bilan ajratilgan.

Qarshi shaharining Registoni, asosan XVI asrda shakllangan bo'lib, u janubi-sharqdan shimoli-g'arbga yo'nalgan sahnga ega bo'lган. XIX asr oxiri — XX asr boshida maydonning tevaragida Abdullaxon madrasasi, ro'parasida majmuaning eng katta binosi — Odina masjidi joylashgan edi. Ular dan tashqari Registonda nomi atalmagan, 1329-yilda qurilgan madrasa, Chorivoy madrasasi, sardoba, Nur madrasasi, Oliy madrasasi, hammom hamda Chorsu binolari bo'lган.


Toshkent Registoni XX asrning 1-yarmigacha oqib o'tgan ariqning nomida saqlangan edi. Tarixiy, toponimik ma'lumotlarga qaraganda, Toshkent Registonida Mahkama masjidi, Xo-

naqoh (Buzruk xonaqohi), hovuz, atrosida tut daraxtlari ekilgan edi.


Qo'qon Registoni Chorsuning yaqinida joylashgan edi. Fa-zoviyl jihatidan u bozor muhitiga singib ketgan bo'lishi kerak.

Xivada bosh maydon Ko'hna Arkning sharq tomoniga tutash bo'lgan muhitdan iborat bo'lgan.

Registonlar ko'p hollarda ark yoki hokim saroyi yonida barpo bo'lgan (Buxoro, Shahrisabz, Xiva), ya'ni ular funksional jixatdan ma'muriy-siyosiy tiynatga ega bo'lgan. Toshkentdag'i Mahkama masjidining nomi ham maydonning ma'muriy jihatiga ishora qiladi. Registonlarning me'morligi vaqt o'tishi bilan, aksari davrma-davr rivojlaniib borgan, tobora hashamatli qiyofaga kirgan.



260-rasm. Shaharlarning qiyosiy jadvali (bir mashtabda), XIX asr I-yarmi;
chapda, tepada — Toshkent; pastda — Xiva; o'ngda: tepada — Buxoro, o'rtada
— Samarqand, pastda — Shahrisabz va burchakda — Qarshi (*muallif chizmasi).



261-rasm. Buxoro sh., Ark, bosh tarh (14-ad., 334-b.).




262-rasm. Buxoro shahar markazi (14-ad., 308-b.).




263-rasm. Samarqand sh., bosh tarh, shaharning shimoli-sharqiy tarafida – Bolohisor – Afrosiyob (6-ad., 188-b.).




264-rasm. Xiva shahar tarxi (14-ad., 336-b.).




265-rasm. Xivaning markaziy ko'chasi: 1-ota darvoza; 2-Ko'hna Ark; 3-12-mahobatli (monumental) binolar; 13-Polvon darvoza
(14-ad., 336-b.).




266-rasm. Xiva sh., Ko'hna Ark: 1-Ko'rinishxona; 2-masjid va zarbxona; 3-haram (14-ad., 340-b.).



267-rasm. Toshkent sh., XVIII a., tarh: 1-Registon; 2-Juvaxona;
3-Chorsu bozori; darvozalar: a-Samarqand; b- Beshyog'och; v-Tersariq;
g-Shayhontahur; d-Taxtapul; e-Tarsaxon; j-Qopqa; z-Ko'kcha
(*muallif chizmasi).



268-rasm. Toshkent sh., XIX a. 10 – yillar, tarh: 1-Chorsu bozori;
2-O'rda; A-A-Katta ko'cha; darvozalar: a-Samarqand; b- Kamolon; v-
Beshyog'och; g-Qo'ymas; d-Qo'qon; e-Labzak; j-Taxtapul; i-Qorasaroy;
k- Sag'bon; l- Chig'atoy; m-Ko'kcha (*muallif chizmasi).




269-rasm. Toshkent sh., XIX a. 60-yillar, tarh: 1-Chorsu bozori; 2-Qaymoq bozor; 3-O'rda; A-A-Katta ko'cha; a-m-darvozalar; punktir chiziqlar bilan dahalar chegarasi ko'rsatilgan (*muallif chizmasi).




270-rasm. Toshkent sh., XIX a. o'rtasi, darvozalar va qopqalar (kichik darvozalar). Darvozalar: 1-Ko'kcha; 2-Chig'atoy; 3-Sag'bon; 4-Qorasaroy; 5-Taxtapul; 6-Labzak; 7-Qashg'ar; 8-Qo'ymas; 9-Qo'qon; 10-Beshyog'och; 11-Kamolon; 12-Samarqand. Qopqalar: b-Hiyobon; d-Teshik; e-Sarboz; k-Qchi; l-Yangi mahalla; a,v,g,yo,j,z,m,n,o-nomsiz qopqalar (*muallif chizmasi).



271-rasm. Toshkent sh., O'rda, bosh tarh; XIX a. o'rtasi; qora bilan saroy imoratlari ajratilgan; sharq tarafda – Sarbozlar hovlisi - harbiy plats bo'lgan (*muallif chizmasi).



272-rasm. Toshkent sh., markaziy bozor – Chorsu atrofidagi mahalla – bozorlar (*muallif chizmasi).



273- rasm. Toshkent sh., mahalla va mahalla - mavzelari (*muallif chizmasi).



274-rasm. Qashqadaryodagi karvon yo'llar (34-ad., 77-b.).



275-rasm. Kitob sh., XIX (34-ad., 28-b.).



276-rasm. Sherobod qal'asi, foto (4-ad., 25-b.).



277-rasm. Xo'jand qo'rg'on devori, foto (4-ad., 45-b.).

V. XIX ASR II YARMI – XX ASR BOSHIDAGI SHAHARSOZLIK

Shaharsozlik tarixida XIX asr 2-yarmi – XX asr boshlari o'zining dinamikligi bilan ajraladi U davrda shaharsozlikning asosiy jihatlari oldingi XVIII–XIX asr 1-yarmidagi shaharsozlik bilan qiyoslanganda ko'rindi. Ikkala davrdagi shaharsozliklarning umumiy jihatlari ularga sanoat ishlab chiqarish qay darajada ta'sir etganligidan yoki ta'sir etmaganligidan kelib chiqadi.

O'tgan XVIII–XIX asr 1-yarmida sanoat ishlab chiqarish shaharlarga, agar ta'bir joiz bo'lsa-me'yordan ortiqcha, hazm qilina olinmaydigan darajada kirib kela bo'ladi. Natiжada, sanoat shaharning ichki ziddiyatlarini kuchaytirib yubordi.

XIX asr 2-yarmi – XX asr boshida sanoatning galдagi xuruji, birinchi navbatda, temir yo'llar orqali o'tdi. Shaharlarning ziddiyatlari keskinlashdi. Ulami bartaraf etish zaruriyati tug'ildi. Umumlashtirib aytganda, XIX asr 2-yarmi – XX asr boshi davridagi shaharsozlik avvalgi bir yarim asrlik shaharsozlikning o'zviy davomi, bosqichidir. Oldingi davr bilan bog'liqligi ham Yevropa, ham Sharq shaharlariga taalluqlidir.

Sanoat ishlab chiqarish yuqori pog'onaga mingan G'arbiy Yevropada ziddiyatlar keskinroq ravishda namoyon bo'ilgan. Mintaqada ziddiyatlarni bartaraf etish choralar ham ko'rildi (Osmani faoliyati, metropolitenni ishga tushirilishi va boqalar). Rossiyada ham shaharlarning ichki ziddiyatlarini bu davrda ko'paydi, ammo mamlakatda ularni bartaraf etish darajasiga etilmadi. Sharq mamlakatlardagi shaharlarda ham ahvol oldingi vaqtdagiday bir xilda emas edi. Masalan, Bo-

kuda neft (naft) chiqarish sanoati unga industrial shaharlarga xos ziddiyatlarni keltirdi (tabiy muhitning ifloslanishi, ko‘rimsiz ichki mavzelarning paydo bo‘lishi kabilar). O‘rtal Osiyo shaharlari dagi chor ma‘muriyati tomonidan bir qancha «Yangi shahar»lar qurildi. Ularning qadimgi shaharlari bilan bog‘liqligi yo‘q darajada edi.

V.1. G‘arbiy Yevropaning XIX asr II yarmida – XX asr boshidagi shaharsozligi

Sanoatning rivojlanishi shaharlashuv (urbanizatsiya)ning shiddat bilan taraqqiy etilishiga olib keldi. Eski sanoat shaharlari yana ham keskin o‘sdi. Ular jumlasida London, Glazgo, Birmingem (Angliya), Parij, Lion (Fransiya), Berlin, Gamburg, Kyoln (Olmoniya). Shaharlarning o‘sishi, asosan qishloq aholisini shaharlari va sanoat hududlariga oqib kelishi hisobiga sodir bo‘ladi.

Temir yo‘llar o‘tkazilishi esa shaharlarning mahalliy manbalarga bog‘liqligini bartaraf etdi. Temir yo‘llarning uzunligi G‘arbiy Yevropada 50 yil (1850–1900-y.) davomida sal kam yigirma barobar o‘sdi. Transport muammolarini hal etish zarurati, ayniqsa, Parijda keskin tus oldi. Londonda temir yo‘l shaharni nisbatan osonlik bilan kesib o‘tish imkoniyatini berdi. Undan tashqari 1860-yillarning oxirlarida metropoliten ishga tushurildi. Berlinda ham temir yo‘li shahardan o‘tib ketishi transport muammolari hal etishga yordam berdi:

Shaharlarda ishchilar va hunarmandlarning engil-elpi qurilgan uylardan tashkil topgan hudud (trushchoba)lar paydo bo‘ldi. Davlatlar yetarlicha yangi turar uylar qurib berish imkoniyatiga ega emas edi. Shaharlarning kengayishi, kommunikatsiyalarining uzayishi ulov (transport) tezligini oshirish zaruratini tug‘dirdi. Zero shu vaqtgacha ot ulovi etakchilik kilib kelayotgan edi.

Parijning aholisi XIX asr o‘rtasiga kelib, bir millionga etdi. Senya daryosiga paralel ketgan Sent-Onore, Sent-An-

tuan ko'chalari va Katta Bosh bozor atrofidagi joylarda aholining zichligi bir getktarga 850 kishiga yetgan. Uylar asosan eski edi. Ba'zi hovlilarning satxu 2 m² gacha tushib qolgandi. Vabo epidemiyasi (1832, 1847-yillar) ko'plab aholi yostig'ini qurutgan. Shaharning sogolomlashtirish bo'yicha harakat XVIII–XIX asrning 1-yarmidayoq boshlangan edi. Biroq sezilarli natija bo'limgan. Ko'chalar tobora ko'payib borayotgan ot ulovi (shaxsiy arava – *kareta, izvosh va omnibus*) ni sig'dira olmagan. 1841–1845-yillarda shahar atrofidagi 11 kommunada ko'shilganidan so'ng uning maydoni deyarli ikki barobar ko'paydi va 7800 getktarga etdi. Aholining soni esa 1800 mingni tashkil etdi.

Napoleon III (Napoleon I jiyani) 1852-yilda hokimiyat tepasiga kelgach, shaharni qayta qurish ishlarini boshlab yubordi. Uni Sena departamenti profekti (Parij shahari va vloyati hokimi J.-E.Osmonga topshirdi. Qayta qurish ishlari uchun chiqarilgan zayom hisobiga to'rt bosqichda olib borildi. 1850–1870-yillarda olib borilgan yangi ko'chalar natijasida Parij muntazam (regulyar) tarxga ega bo'ldi. Uning negizini ikki diametr, uch halqa (hiyobon halkalari) va Yulduz hamda Millat maydonlaridan radial (yulduzsimon) yo'nalishlarda boshlanadigan ko'chalar tashkil qildi. Ko'chalarning umumiy uzunligi ikki barobar o'sib 895 km ga etdi. Undan 165 km ko'cha yangidan qurilgan edi.

Osmoning qayta qurish ishlari primitiv (juda sodda) estetika tamoyillariga asoslangan edi. Keyinchalik u o'zining esdaliklarida uch maqsadga, ya'ni yangi ko'cha o'tqazish jarayonida ko'chaning to'g'ri bo'lishiga, simmetrik bo'lishiga va mo'ljal (orient)ga kiritilgan bo'lishiga harakat kilganligi to'g'risida yozadi. Qayta qurishdagi planimetrik (tarxiy) jihat hajmiy-fazoviy jihatdan ustun qo'yildi. Osmon mavjud ko'chalarни to'g'rilash va kengaytirishdan ko'ra yangitdan ko'cha o'tkazish arzonroqqa tushadi deb hisoblagan. Me'moriy yodgorliklarga bo'lgan qiziqish Osmonda ham iz qoldirdi. Notr Dam sobori oldiga to'g'ri to'rtburchak (150x200 m) shakli-

dagi maydon tashkil etishi, amalda yodgorlikni o'zining asriy muhitidan mahrum etdi. Luvr saroyining oldida maydon ochilishi ham shunday ayanchli oqibatga olib keldi. P.Merime bu uslub Fransiyaning o'rta asrlarini ommaviy ravishda qiribtashlashga o'xshaydi deb yozgan edi. Umuman olganda, qayta qurishdan keyin Parij o'z davri didiga mos keladigan, obod va ko'kalamzorlashtirilgan shaharga aylandi.

Muhandis A.Alfaning Bulon va Vensen o'rmonlarining, birnecha (Dyu-de-Shamon, Monso, Monsuri) istiroxat boglari (parklari)ning qayta rejalash bo'yicha ishlari, shaharda yigirmadan ortiq istirohat chorraha (skver)larni, hiyobonlarini, suv bo'yi yo'llarining ko'kalamzorlashtirish kabi ishlar Parijga yangi, shinam qiyofa baxsh etdi.

Osmanga bo'lgan tanqidlarga qaramay shaharlarda to'g'ri shoh ko'cha o'tkazish usuli Frantsianing boshqa shaharlarda (mas., Tuluza, Marselda) va chet elda (Italiya, Belgiya, Shvetsiya kabilarda) qo'llanildi.


1870-yilda Italiya yagona davlatga – qirollikka birlashish – poytaxt Rimning mavqeini ko'tardi. Deyarlik uch yuz yil o'tkandan so'ng bu shaharda yana yirik ishlarga qo'l urildi. 1873-yilda me'mor J.Mecheletti rahbarligida Rimni qayta qurish rejasi ishlab chiqarildi. Reja bo'yicha barokko davridagi uch asosiy ko'cha saqlangan holda Rimning sharqiy tomonida va Tibr daryosi bo'ylab g'arb tomonida muntazam tarxli tumanlar mo'ljallagan edi. Rejani amalga oshirish uzoq (birnecha o'nyilliklarga) cho'zilib ketdi.

Avstriya poytaxti Vena ham XIX asr o'rtalariga kelib kengayib ketdi. Bastionlar shaklidagi ichki qo'rg'on devor bilan 1704-yilda barpo bo'lgan bojxona qo'rg'on oraligidagi ichki mavze (okrug)larda qurilmalar nihoyatda zichlashib ketgan edi. Shaharda bir necha temir yo'l vokzallari bo'lib, ulardan shahar markaziga o'tish juda qiyinlashib ketgan edi. 1857-yilda Avstriya imperatori eski Vena atrofini o'rab olgan bastion (qo'rg'on) devorlarini buzib o'mniga hiyobonlar yarimhalqasini barpo etish to'g'risida farmon berdi. Hiyobonlar


yarimhalqasi Ringshtrasse nomini oldi. Ring-shtrasse bo'ylab yirik jamoat binolari vujudga keldi. Ular ichida imperator saroyi – Xosburg alohida hashamga ega bo'-lishi kerak edi. Yangi Xosburg loyihasini ishlab chiqish me'mor G.Zemperga topshirilgan edi. G.Zimper Xosburgning eski qismlarida qo'llanilgan barokko uslubini yangi qismlariga ham tafbiq etdi. Ayni vaqtida Xosburgning kompazitsion o'qini Venanining qadimgi Rim davridagi qismi – Vindobonga to'g'rilab oldi. Bu bilan G.Zimper Avstriya imperiyasini Qadimgi Rim imperiyasi davomchisi ekanlik goyasini ilgari surgan edi.

Ringshtrasse tomonlaridasi binolarni Renessans, neoklassitsizm va neogotika uslublarida ijod etgan me'morlar qatnashgan edi. Natijada, Parlament antik shakillarda va Universitet Renessans shakillarda barpo etildi. Ratusha binosi minorasining balandligi 100 metrga yaqin bo'lib u Venanining tarixiy vertikal dominantasiga ega bo'lgan Avliyo Stefan sobori bilan hamohanglikda qurilishi yangi binolarni qadimgilariga bog'lashga yordam beradi. Lekin kompazitsion jihatdan bularga qaramasdan o'rta asr va barokko uslublarida talkin etilgan eski shaharning mo'jaz muhitlari yangi tashkil etilgan hiyobonning haybatli muhitlariga zid edi. Bu jihatni K.Zitte o'zining «Shaharsozlikka uning badiiy tamoillari nuqtai nazaridan qarash» («Градостроительство с точки зрения его художественных принципов») nomli kitobida (1889-y.) tanqid qilgan edi. U Yunon, Qadimgi Rim, o'rta asrlar, Uyg'onish va barokko davrlarida yaratilgan maydonlarni tashkil etish tajribalarini umumlashtirgan edi. U binolar ichi (intery er)dagi nisbatlarini shahar miqyosida ko'llash mumkinligini e'tirof etadi. K.Zitte turli davirlarda emas, balki yaxlit tizim sifatida paydo bo'lgan barokko maydonlarni ustun qo'yadi. Munaqqid (tanqidchi)ning «yozishicha, ko'p hollarda maydonning go'zalligi bino va yodgorliklarning badiyiligidan ancha afzallikka ega bo'ladi». K.Zittas Ringshtrasse bo'yicha tavsiyalar berib, ulardan to'rt afzallik mavjudligi ta'kidlagan. Birinchidan – turli stillar orasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etish, ikkinchidan-mahobatli (monu-


mental) binolar ta'sirini kuchaytirish, uchunchidan — o'ziga xos maydonlar guruhini tuzish va to'rtinchidan (bu juda muhim) katta, o'rtacha va kichik xajmlardagi yodgorlik qoldirish (joylashtirish) va ularni o'zaro boglash imkoniyatlarini bergen. K.Zitte yangi shaharsozlik nazariyasini tuzmagan bo'lsa ham, shaharlarni loyihalashda muhandislar bilan bir qatorda rassom-arxitektor ishtirok etish lozimligini yaqqol ko'rsatib beraolgan.



278-rasm. Boku Ichkari shahar atrofida loyihalangan halqa yo'l (7-ad., 306 b.).




283-rasm. London sh., XIX a. oxiri, yo'g'on punktir chiziq bilan shahar hududi, ingichka punktir chiziq bilan Katta London hududi ko'rsatilgan (7-ad., 237 b.).



284-rasm. Londonning muhim ko'cha va bo'g'inlari sxemasi (7-ad., 238 b.).



1150



1300



1350




1914


285-rasm. Londonning 1750-1914-y. mobaynida kengayishi
(7-ad., 239-b.).



286-rasm. Londonning shimolidagi Xemisted nomli «rabob bog»,
1903-y., arx. R. Envin (7-ad., 245-b.).



287-rasm. Angliyada aholini joylashtirish g'oyasi, R. Envin bo'yicha (7-ad., 245-b.).



288-rasm. Markazi shahar atrofidagi shahar — bog'lar xalqasi, sxema, E.Govard bo'yicha (7-ad., 243-b.).

289-rasm. «Shahar — bog'» loyihasi, lavha, E.Govard g'oyasi (7-ad., 243-b.).



290-rasm. «Shahar - bog'», E.Govard g'oyasi, umumiy ko'rinish (7-ad., 243-b.).



291-rasm. Lechuort nomli «shahar - bog'», 1903-y., E.Govard g'oyasi,
axr. R.Envik va B.Parker (7-ad., 248-b.).

V.2. Amerika Qo'shma Shtatlarining XIX asr II yarmi – XX asr boshidagi shaharsozligi

1861–1865-yillardagi Amerikaning Shimoli bilan Janubi o'rtaqidagi fuqarolar urushidan keyin qullik bekor qilindi. AQSH rivojlangan industrial mamlakatga aylandi. XX asrning oxirida u jahonda sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha birinchi o'ringa chikib oldi.

Istiqomat uchun yangi joylar Shimoliy Amerikada, umuman olganda, sharqdan-g'arbga yo'nalish bo'yicha o'zlashdirildi. Juda ko'p yangi shaharlar qurilishi bu davrning asosiy jihatlaridandir. Masalan, Kaliforniyada bирgina 1887 yilning tuzilishi, ko'rinishi jihatdan bir-biriga juda o'xshash 40 ta yangi shahar qurildi. Aksari shaharlar temir yo'llar bilan birgalikda qurilar edi. Temir yo'l etib borgan joyda darrov

oldindan tayyorlab qo'yilgan reja bo'yicha shahar qurilar edi. Shahardagi uylar ham yig'ma konstruksiyadan ishlanar edi. Bunday «temir yo'l shahar»lari, odatda, atrofda qaror topdan qishloq xo'jaligiga bog'liq emasdi.

XIX asr 2-yarmida mashinasozlik, metallurgiya kabi sohalar bilan shug'ullanuvchi yirik firmalar shaharlarni yangi zavodlar bilan bir vaqtida kurishni afzal deb topganlar.


Masalan, 1880—1890-yillarda temir yo'l vagonlarni chiqarishga ixtisoslashgan fabrikant Pullman Chikagoning yaqinida, ko'l bo'yida sanoat korxonasi majmuasini va shahar tashkil etdi. Pullman shahriga o'xshash korxonasi bilan Ogayoda Barberton, Alabamda Ferfield, Michiganda Garri shaharlari buniyod etilgan.

Oldingi asrlarda tashkil bo'lgan N'yu-York, Chikago, Filadelfiya, San-Fransisko kabi shaharlarning savdo va sanoat markazlar me'morligi sezilarli darajada murakkablashdi.


1900-yillarda Washington shahrining yuz yilligi munosabati bilan katta hajmdagi obodonlashtirish ishlari olib borildi. Potomak qirg'og'i hiyla o'zgartirildi. Bir qancha orolchalar paydo qilindi. Shahar o'rtaida ko'lning qismi ko'milgan joyda park hosil etildi. Kapitoliy va Oq uyning kompozitsion o'qlari kesishgan yerda J. Washington sharafiga obelisk o'rnatildi.

N'yu-York shaharining aholisi xayratomo'z tarzda o'sdi. 1850-yildan 1900-yillargacha aholi soni 100 barobar oshib, 4 mln. kishiga etdi. Kataksimon ko'chalar ichida Brodvey shoh ko'chasi o'z mavqeini saqlab qoldi. Manxettan orolining sathi ko'chalar bilan qoplandi. 1883-yilda qurilgan Bruklin ko'prigi shaharning dengiz panoramasini boyitdi. 1886-yilda kichik bir orolda balandligi 92 m bo'lgan Erkinlik haykali qad ko'tardi. Shaharning o'rtaida ulkan park barpo etilishi uning obodonlashuviga katta xissa bo'ldi.


Amerikaning XIX asr 2-yarmi — XX asr boshi shaharozligidagi yutuqlardan biri shundan iboratki, unda ayrim holarda kattasimon tarxiy sxemalar erkin tarxli park va bog'lar bilan uygunlashtirildi.




292-rasm. AQSH, namunaviy «temir yo'l shahari» sxemasi,
XIX asr 2-yarmi (7-ad., 253-b.).




293-rasm. AQSH. «Osmon o'par binolar», chapdan o'ngga:
Bank Trast, munisipalitet (hokimiyat), Zinger, hayotni sug'o'rtal qilish
jamiyati, Vuvord binolari (7-ad., 261-b.).



294-rasm. AQSH. Pullmanning «korxona - shahar»i, 1880–1890-y., shaharda temir yo'l vagonlari ishlb chiqilgan (7-ad., 255-b.).



295-rasm. Filadelfiya shahari markazi; asosiy ko'chalar chorrahasida ratusha binosi joylashgan, unda diagonal yo'nalishdagi ko'cha muzeyga olib boradi (7-ad., 259-b.).



296-rasm. AQSH, Vashington shahari markazi, XIX asr 2-yarmi; tarh:
1-Kapitoliy binosi, 2-Oq uy, 3-Vashington xotirasiga o'rnatilgan obelisk
(7-ad., 257-b.).



297-rasm. AQSH, Illinoys shtatidagi temir yo'li bo'ylab qurishga
mo'ljallangan manzilgohlarni joyashtirish haritasi (7-ad., 252-b.).

V.3. Rossianing XIX asr II yarmi – XX asr boshidagi shaharsozligi

Rossiyadagi sanoat to‘ntarilishi XIX asr 70-yillarning oxirida tugadi. Temir yo‘llar qurilishi Rossiya imperiyasining Yevropa qismida, asosan Volga daryosining o‘rtaligida g‘arbda olib borildi. Rossiyada mazkur davrda «shahar» deb asosan viloyat (guberniya) yoki tuman (uezd, okrug) markazlari hisoblangan. Iqtisodiy nuqtai nazardan olinganda ahvol boshqacha bo‘lgan — «shahar» deb hisoblangan aholi joylar amalda qishloq bo‘lgan, «qishloq» deb hisoblangan aholi joylari haqiqatda shahar bo‘lgan. XIX asrning oxirida Sankt-Peterburg va Moskva shahrining aholisini 1 millionidan ortiqroq edi. Shaharlarning aholisi asosan ish izlab kelgan dehqonlar hisobiga ko‘paydi. 1863-yilda chiqarilgan «Qishloq (selenie)larni shahar deb nomlash tartibi to‘g‘risida» qonun chiqqan bo‘lib, uni amalga oshirishga krepostnoychilik qoldiqlari to‘sinqinlik qildi. Bu davrlarda bajarilgan shaharlarning bosh tarxlarida shaharlarning atrofidagi 250 sajen (540 m)dan 1 verstgacha bo‘lgan hudud ham aniq ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan. Shaharlarda me’moriy jihatdan yangi turdagini binolar (banklar, mehmonxonalar, ijara uylari kabi) paydo bo‘ldi. Shaharlarda kommunal ishlari (ko‘chalarni tosh bilan qoplash, yoritish va boshqalar) boshlandi.

Umuman olganda, XIX asrning 2-yarmida shaharsozlik ishlarini tartibli olib boorish, uni boshqarish imkonini bo‘l-madi. Tuzilgan bosh rejalar nihoyatda samarasiz bo‘ldi.

XX asr boshida shaharlar soni ko‘paydi. 1913-yilda Rossianing shahar aholisi umuman aholiga nisbatan 17 %ni tashkil kildi. Sankt-Peterburgda 2,1 million kishi, Moskvada 1,8 million kishi yashar edi. Yangi tipdagagi qurilayotgan imoratlar tarkibida zavod, fabrika, universitet, kinematograf (kinoteatr) kabi binolar bor edi. Oldingi davrdagi traktirlari o‘rnini «xalq uylari» kabi madaniy-ma’rifiy binolar egalladi. Shaharlarda bir munkha obodonlashtirish davom etdi. Ayrim

44 shaharda suv uzatgich (vodoprovod) va hatto oqava (kanalizatsiya) tizimlari joriy etildi, gaz va kerosin lampalar o'r-nini elektr yoritgichlar, ko'nkalar o'mini tramvaylar egallay boshladi. Ko'chalarda dastlabki avtomobillar, osmonda aeroplannlar paydo bo'la boshladi. Shahar chetlarida ilk aerodromlar qurildi.

XX asr boshlaridan maxsus davriy jarida (jurnal)lar nashr etila boshlandi. Ular sirasiga «Городское дело» («Shahar ishlari»), «Зодчий» («Me'mor») kabilar kiradi.

Madaniy merosga bagishlangan kitoblar chop etildi. 1913-yilda I.Grabar «Русские города – писатели искусства» («Rus shaharlari – san'at o'choqlari») nomidagi rasmiy kitoblar chiqdi. Shaharsozlik muammolari 1911 va 1913-yillardagi me'morlar anjumanlarida ham ko'tarildi. Oliy texnik ta'lum yurtlarining o'quv dasturlariiga maxsus «Shaharlar me'morligi» fani kiritish taklif etildi (me'mor M.Peretyatkovich).

Yirik sanoat markazlari bo'lgan shaharlarda stixiyali ravishda ishchilar trushchobalarining paydo bo'lishlarini oldini olish maqsadida ishchilar mavzelari qurildi. Neft sanoatda 1872-yilda joriy etilgan qonun Ozarbojon poytaxti Boku shaharining jaddalik bilan rivojlanishiga olib keldi. Bokuda oldinroq Qora shahar, keyinroq Oq shahar nomli sanoat tumanlari paydo bo'ldi. Shaharlarning XX asr boshidagi rivojlanishi muhandis Fon der Nonne tomonidan ishlab chiqilgan loyiha asosida amalga oshirildi. Bu loyihada Bokuning qadimiy qismi Ichki shahar («Icheri shexer»)ni ham tubdan qayta qurish rejalanigan edi. Mablag'ning tanqisligi tufayli ichki shahar o'z tarixiy qiyofasini saqlab qoldi.

Moskvada 1870-yillardan keyin shaharda qurilish miqyosi yanada kengaydi. Savdo, tadbirkorlik binolari, ijara uylar qurilish ko'lami, ayniqsa, markazda – Kitay gorodda yaqqol namoyon bo'ldi. U Londondagi Sitiga o'xshab ketdi. Kitay gorodning kunduzgi aholisi kechki aholisiga qaraganda ko'p marotaba ortiq bo'lib qoldi. Moskvaning bosh Tverskaya ko'chasida yaxshigina sisatli uylar, mehmonxonalar, magazinlar va boshqa turdag'i binolar qurildi.

1860-yillarda Hiyobonlar halkasi (Бульварное кольцо) ko'kalamzorlashtirildi.

Bog'lar halqasining shakllana boshlanishi 1816-yilga bo'rib taqaladi. O'sha vaqtida shaharning tuproq devori (Земляной вал) buzilib o'rmini turar uylar qurilishiga berilgan edi. XX asrning 2-yarmida Boglar halqasining shakllanish jarayoni tugadi. Bunday uylar oldida palisadnik (ko'kalamzor) va bog' barpo etish shart edi. Keyinchalik Boglar halqasida ham magazinlar, ijara uylar va boshqa ko'p qavatli binolar ko'payib ketdi. 1912-yilda Bog'lar halqasi ichida shahar aholsining uchdan bir qismigina yashar edi. Qolgan bir million-dan ortiq aholi bu halqaning tashqarisida istiqomat qilgan.

XX asrning boshida Moskvaning chetlarida paydo bo'lgan sanoat tumanlari (hududlari) shaharni gir aylanasisiga o'rab oldi. Ulardan tashqari, fabrika-qishloqlar (Orexovo-Zuevo, Frazino kabilar) ham qurilib, ular Moskvaning yana bir tashqi sanoat hududlar qurshovini tashkil etdi. Ulardan birida Prozorovka qo'rg'onida (posyolkasida) inglizlarning «shahar – bog» tuzish tajribasi qo'llaniladi (me'mor V.Semyonov, 1912-y.).

Bu davrda ham Moskvaning rasmiy chegarasi Kamer-Kaluga vali (Kamer-Kalujskiy val) hisoblangan. 1917-yilning fevral oyidan keyin shaharning chegarasi Aylana temir yo'lga qadar kengaydi. Yo'lning bekat (stansiya) va posbonlik (post)-lari me'morligi uslubiy jihatdan yaxlit yechimda bajarildi.

Rossiyaning rasmiy poytaxti Sankt-Peterburg sanoat Moskvanikidan ertarov ko'chaydi. Sanoat korxonalari asosan shaharning janubiy va shimoliy-sharqida paydo bo'ldi. Yangi temir yo'l chiziq (liniya)lari qurildi. Shaharning port sifatidagi mavqesi oshdi. Gutuev orolida yangi port ochilib, Fin ko'rfazigacha 32 km uzunlikdagi kanal qazildi. Sankt-Peterburgda ijara uylar Moskvadan ilgariroq, 1840-yillardan qurila boshlangan. Petropavel qal'asining g'arbiy yonida yangi ko'prik tushgach Kamennoostrov prospekti (shohko'chasi) serqatnov ko'chalaridan biriga aylandi. Uning ikki tomonlarida ko'pqavatli turar uylar, magazinlar, kinematograf kabi binolar


vujudga keldi. Bunday imoratlar shaharning asosiy shohko'-chasi – Neva prospektida va uni ko'ndalangiga kesib o'tgan boshqa ko'pgina ko'chalarida ham barpo bo'ldi. Binolarning ko'rinishlari avvalgi, klassitsizm davridagi binolar ko'rinishiga mos emasdi. Shahar markazi (Admiralteystvo atrofi)-ning klassitsizm davrida shakillanib bo'lgan yaxlit qiyofasi asosan saqlab qolindi.

Shahardagi kamchilmklarni (binolar tarzlaridagi eklektizm, kanallarining iflosligi va boshqalarni) bartaraf etish uchun shaharning rivojlanish rejasini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanib qoldi. Shahar muommmolari muhandis F. Enakievning «S.-Peterburgni o'zgartirish vazifalari» nomli kitobida ko'tarildi. Ammo unda bayon etilgan g'oyalar hayotga tatbiq etilmadi.


Rossiyaning XIX asr 2-yarmi – XX asr boshidagi shaharlarning rivojlanishi keskin qarama-qarshiliklar girdobida kechdi.




298-rasm. Kiyev sh., XX a boshi, ko'ndalang chiziqlar bilan ajratilgan, yo'g'on chiziq temir yo'lni ifoda etadi (7-ad., 284-b.).



299-rasm. Nijegorod yarmarkasi; 1-Spas sobori ; 2-Eski Bosh uy; 3-armanlar cherkovi; 4-tatarlar masjidi; 5-Yangi Bosh uy; 6-12-boshqa muhim binolar (7-ad., 278-b.).




300-rasm. Moskvaning aylana temiryo'li sxeması
(7-ad., 334-b.).



301-rasm. Moskva. XX asr boshi. Shahar chekkasidagi ishchilar mavzeleri:
1 - Presna; 2 - Butirki; 3 - Mar'ina roshcha; 4 - Sokolniki; 5 - Pre-
obrojenskoe; 6 - Blagusha - Lefortovo; 7-Rogojskaya slabodasi;
8 - Simonovo; 9 - Zamoskvorech'e; 10 - Xamovniki; 11 - Dorogomilovo;
А - Miusskaya maydoni; Б - Vvedenskaya maydoni.



302-rasm. Peterburg sh.,
XX a. boshi. Pyotr – Pavel
qal'asining sharq tomonida
Kamenoostrovnoy prospekt
(shohko'cha) o'tgan
(7-ad., 350-b.).



303-rasm. Peterburg sh.,
Kamenoostrovnoy
prospekt; bu shoh ko'cha
bo'ylab ko'plab modern
uslubidagi ijara uylar
qurilgan (7-ad., 342-b.).

